

ISSN: 2181-4120

Scientific Journal

GOLDEN BRAIN

Social Sciences & Humanities



Volume 3, Issue 7



webgoldenbrain.com

April
2025/7

ISSN 2181-4120
VOLUME 3, ISSUE 7
APRIL 2025



<http://webgoldenbrain.com/>

“GOLDEN BRAIN” SCIENTIFIC JOURNAL
VOLUME 3, ISSUE 7, APRIL, 2025

EDITORIAL BOARD

G. Kholmurodova

Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

A. Madaliev

Professor, Doctor of Economics, Tashkent State Agrarian University

G. Sotiboldieva

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

U. Rashidova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Philological Sciences, Samarkand State University

D. Darmonov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

X. Abduxakimova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

U. Ruzmetov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Chemical Sciences, National University of Uzbekistan

M. Yusupova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

M. Kambarov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Namangan State University

S. Sadaddinova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Physics and Mathematics Sciences, Tashkent University of Information Technologies

M. Fayzullaev

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) Geographical Sciences, Karshi State University

Z. Muminova

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine

B. Kuldashov

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine

Kh. Askarov

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Fergana Polytechnic Institute

S. Nazarova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Bukhara State University

O. Rahmonov

Doctor of Philosophy (Phd) in Technical Sciences, Fergana Polytechnic Institute

G. Tangirova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

Z. Koryogdiev

Doctor of Philosophy (Phd) in Historical Sciences, Bukhara State University

S. Ubaydullaev

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnology

R. Yuldasheva

Associate Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

M. Yuldashova

Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Namangan State University

Editorial Secretary: J. Eshonkulov

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15234320>

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIGA FE‘L SO‘Z TURKUMIGA OID SO‘ZLARNING YASALISHINI O‘RGATISH METODIKASI

Xalmuratova Dinora Odil qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 1-kurs

M.Hamrayev

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga fe‘l so‘z turkumiga oid so‘zlarning yasalishi to‘liq yoritilib berilgan. Bundan tashqari ushbu maqolada mavzuga oid mustaqil bajarish uchun topshiriqlar ham berilgan.

Kirish so‘zlar: fe‘l, so‘z yasalishi, o‘zak(asos), qo‘shimcha, lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimcha, shakl yasovchi qo‘shimcha.

Аннотация. В данной статье подробно рассматривается словообразование глаголов у учащихся начальных классов. Кроме того, в статье представлены задания для самостоятельного выполнения по данной теме.

Ключевые слова: глагол, словообразование, корень (основа), аффикс, словообразовательный аффикс, формообразующий аффикс.

Annotation. This article provides a detailed explanation of the formation of verbs for primary school students. In addition, it includes exercises for independent practice on the topic.

Keywords: verb, word formation, root (base), affix, derivational affix, inflectional affix.

Ish-harakat va holatni bildiradigan soʻzlar **feʼl** deyiladi. Feʼl **Nima qilmoq? Nima qiladi? Nima qildi? Nima qilmoqchi? Nima qilgan?** Kabi soʻroqlarga javob boʻladi. Misol uchun: yugurdi, keldi, ketdi (harakat feʼllari), oʻyladi, yotibdi (holat feʼllari), ulgʻaydi, yetildi(jarayon feʼllari).

Feʼllar yasallishiga koʻra **2 turga** boʻlinadi:

1)affiksial usul;

2)kompozitsion usul;

Affiksial usul – oʻzak(asos)ga soʻz yasovchi qoʻshimchalarni qoʻshish orqali yangi harakat va holatni ifodalovchi soʻzlarning yasallishi.

Kompozitsion usul – birdan ortiq mustaqil maʼnoli soʻz yoki soʻz shakllarining qoshiluv, birikuvi orqali yangi soʻz yasash.

Feʼllarning yasallishi(affeksial usul):

1. Ot, son, sifat, olmosh, ravish, undov, modal soʻzlardan feʼl yasovchi qoʻshimchalar:

-la	egar la , bosh la , osh la , bogʻ la , qoshiq la , ish la , moy la , gulla; oq la , yaxshila, tozala, sekin la , hoʻp la ;
-a, -ay	osha, sana, oʻyna, ata, qona, tuna, yasha, kuch ay ; boʻsha, qiyna; qor ay , koʻp ay ,oz ay , tor ay , pas ay , ulgʻ ay , kam ay ;
-ik, -iq	koʻz ik , yoʻli q ; kechik, birik, zoʻri q , hayi q ;
-ir,-r, -ar, -ur	gapir ir ; qisqar ir , eskir ir , oqar ir , koʻkar ir , yashar ir ; tupur ir ;
-sa, -sira	suv sa , uyqusira, hadiksira, suvsira, xavfsira; yotsira, begonasira, sensira;
-i	changi; boyi, tinchi;
-ka	iska;
-lan, -lash	faxrlan, gʻazablan, dardlash, bahslash, oʻrtoqlash;
-t	toʻlat (ravishdan);
-it, -ot	berkit (sifatdan); yoʻqot (modal soʻzdan)
-sit	kamsit (ravishdan);
-ol	yoʻqol (modal soʻzdan);

3. Taqlid soʻzdan feʼl yasovchi qoʻshimchalar:

-ira	yaltira, miltira, yarqira;
-illa, -ulla	chiqilla, taqilla, gʻizillamoq, charsillamoq, shovullamoq, guvulla, gursulla;
-la	gumburla, jimirla, shivirla;
-a	shildira, guldira;
-an	kuchan (otdan);

Kompozitsion usul: soʻzlarni qoʻshish orqali yangi soʻz yasash usuli.

Ot	Feʼl	Qoʻshma feʼllar
harakat	qilmoq	harakat qilmoq
sayr	qilmoq	sayr qilmoq
dam	olmoq	dam olmoq
yordam	bermoq	yordam bermoq
eʼlon	qilmoq	eʼlon qilmoq
imzo	chekmoq	imzo chekmoq
Sifat	Feʼl	Qoʻshma feʼl
yangi	boʻlmoq	yangi boʻlmoq
xafa	boʻlmoq	xafa boʻlmoq
oʻsal	boʻlmoq	oʻsal boʻlmoq
yaxshi	koʻrmoq	yaxshi koʻrmoq
Son	Feʼl	Qoʻshma feʼl
bir	boʻlmoq	bir boʻlmoq
yarim	qilmoq	yarim qilmoq
Taqlid soʻz	Feʼl	Qoʻshma feʼl
chirs	etmoq	chirs etmoq
lim	boʻlmoq	lim boʻlmoq
yalt	etmoq	yalt etmoq
Olmosh	Feʼl	Qoʻshma feʼl
shunday	qilmoq	shunday qilmoq
oʻziga	kelmoq	oʻziga kelmoq
Undov soʻzlar	Feʼl	Qoʻshma feʼl
dod	solmoq	dod solmoq
uh	tortmoq	uh tortmoq

Fe'l	Fe'l	Qo'shma fe'l
olib	kelmoq	olib kelmoq
sotib	olmoq	sotib olmoq
borib	kelmoq	borib kelmoq
ko'tarib	olmoq	ko'tarib olmoq

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, fe'llarning yasalishi o'zbek tilining so'z boyligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ular tub fe'llar, yasama fe'llar va qo'shma fe'llar shaklida hosil bo'ladi. Yasama fe'llar turli qo'shimchalar yordamida boshqa so'z turkumlaridan yoki fe'llarning o'zidan yasaladi, qo'shma fe'llar esa ikki yoki undan ortiq so'zning birikishidan hosil bo'ladi. Bu jarayon tilimizda yangi so'zlarni yaratish va fikrni aniq ifodalash imkonini beradi.

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar:

1. Quyida berilgan fe'llarni o'zak(asos) va qo'shimchalarga ajrating.

Gullamoq, tozalamoq, changitmoq, sovuqmoq, yumshamoq, yaxshilamoq, qoraymoq, kattalashmoq, hozirlandi, tinchidi, begonasiradi.

2. Quyida berilgan gaplardan yasama fe'llarni ajrating.

1. Bog'dagi gullar bahorda yana gulladi. 2. Bolalar quvnoq kulishdi va o'ynashdi. 3. U kitob o'qib, yangi ma'lumotlar o'rgandi. 4. Daryo suvi kechasi ko'tarilib, ertalab pasaydi. 5. Usta devorni tekislab, bo'yadi.

4. Quyidagi fe'llarni tub, yasama va qo'shma fe'llarga ajrating.

O'ynadi, kirib keldi, ishlar, bormoq, yuzma-yuz keldi, chizmoq, tozalamoq, yurib bordi, tinglamoq, gapirib berdi, olib keldi, harakat qildi, hadiksiradi, boshqardi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N.Erkaboyeva, O‘zbek tilidan ma’ruzalar to‘plami, Toshkent-2022.
2. M.Hamrayev va boshqalar, Ona tili va bolalar adabiyoti(1-qism, Ona tili),Toshkent-2022.
3. H.Narimov, Ona tili fani bo‘yicha o‘quv qo‘llanma, Urganch -2022.
4. A. Mahmudov. O‘zbek tilining sintaksis va morfologiyasi. Toshkent, 1999
5. Internet resurslari: zenodo.uz, googol.uz.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15234338>

O'QUVCHI YOSHLAR ORASIDA SODIR ETILADIGAN ZO'RAVONLIK HOLATLARI VA UNI BARTARAF ETISH USULLARI

Mamayusupova Sabohat Baxodirovna

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va
psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi
metodisti

gmail: markovermars71@gmail.com

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'quvchi yoshlar o'rtasida uchrayotgan zo'ravonlik holatlari, ularning kelib chiqish sabablari, ijtimoiy-psixologik oqibatlari hamda ushbu holatlarni bartaraf etishning samarali usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, ta'lim muassasalarida sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirish, o'quvchilar o'rtasida do'stona munosabatni mustahkamlash va profilaktik chora-tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshirish yo'llari haqida fikr yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** O'quvchi, zo'ravonlik, ta'lim muassasasi, psixologik salomatlik, profilaktika, ijtimoiy muhit, huquqbuzarlik, empatiya, muomala madaniyati.*

Kirish

Bugungi globallashuv jarayonida jamiyatimizda sodir bo'layotgan ijtimoiy o'zgarishlar, axborot oqimining tezlashuvi, yoshlarning axloqiy va ruhiy holatiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, maktab va kollej kabi ta'lim muassasalarida o'quvchilar orasida zo'ravonlik holatlarining ko'payib borayotgani jiddiy muammoga aylanmoqda. Zo'ravonlik – bu nafaqat jismoniy zarar yetkazish, balki inson psixologiyasiga salbiy ta'sir etuvchi, uning ijtimoiy moslashuviga to'siq bo'luvchi omildir.

Ta'lim muassasalarida sog'lom muhitning mavjudligi har bir o'quvchining shaxs sifatida to'laqonli rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Shuning uchun ham bugungi kunda zo'ravonlikka qarshi samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish, bu borada o'qituvchi, psixolog va ota-onalar o'rtasida yaqindan hamkorlik qilish nihoyatda muhim masalaga aylangan.

Mazkur maqolada o'quvchi yoshlar orasida sodir etiladigan zo'ravonlik holatlarining turlari, sabab va oqibatlarini, shuningdek, bu muammoni bartaraf etishning samarali usullari haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Asosiy qisim:

Har bir inson hayotida maktab — nafaqat bilim manbai, balki shaxsiy kamolot sari ilk qadamdir. Maktab devorlari orasida nafaqat darslar o'tiladi, balki insoniylik, do'stlik, bag'rikenglik kabi tushunchalar ham shakllanadi. Afsuski, bugungi kunda ta'lim muassasalarida bunday ijobiy qadriyatlar bilan bir qatorda salbiy holatlar — zo'ravonlik, tahqir, tajovuzkorlik ham uchrab turibdi.

Zo'ravonlik — bu jismoniy urish yoki haqorat qilish bilan cheklanib qolmaydi. Bu — kimningdir qalbiga og'riq solish, uni kamsitish, yolg'izlatish yoki rad etishdir. Ayniqsa, o'quvchi yoshlar orasidagi ruhiy zo'ravonlik ularning butun hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Yomon muomala yoki tazyiq ostida qolgan o'quvchi asta-sekin o'ziga bo'lgan ishonchini yo'qota boshlaydi, jamiyatdan chetlashadi, hatto depressiyaga tushadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, har bir pedagog, har bir ota-ona va har bir o'quvchining zimmasida katta mas'uliyat bor. Biz yoshlarga nafaqat matematikani, tarixni o'rgatishimiz, balki qanday qilib inson bo'lib yashashni ham ko'rsatishimiz kerak. Zo'ravonlikka qarshi kurashish — bu og'ir jazolar bilan emas, balki mehr, tushunish va empatiya bilan boshlanadi.

Maktabda sog'lom psixologik muhit yaratish, o'quvchilar o'rtasida ishonchli munosabat o'rnatish, muomala madaniyatini o'rgatish — bularning barchasi zo'ravonlikning oldini olishda eng samarali vositalardandir. Ayniqsa, psixologlar va sinf rahbarlarining o'quvchilarning ichki dunyosiga quloq tutishi, ularga mehr

ko'rsatishi bu borada katta natijalar beradi. Har bir bola hayotga mehr bilan, ishonch bilan qarashga haqli. Shunday ekan, biz — kattalar, ularning bolaligini og'riqsiz, tahqirsiz va xavfsiz o'tkazishlariga yordam berishimiz lozim. Zero, ertangi kunimiz ularning qalbida qanday iz qoldirganimizga bog'liq.

Ilmiy psixologik yondashuv: Psixologik nuqtayi nazardan olganda, zo'ravonlik — bu ichki agressiya yoki boshqarilmagan emotsional holatning tashqi ifodasidir. Ko'pincha bunday holatlarda o'quvchilar o'z his-tuyg'ularini to'g'ri ifoda eta olmaydi va natijada zo'ravonlikka murojaat qilishadi. Bu esa o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarining pastligi, hissiy savodxonlikning yetishmasligidan dalolat beradi. Masalan, tajovuzkor bola ko'pincha o'zining shaxsiy muammolarini (uydagi muhit, e'tiborsizlik, bosim) boshqalar ustidan kuch ko'rsatish orqali "kompensatsiya" qilishga urinadi. Bu holat o'z-o'zini himoya qilish refleksi sifatida yuzaga chiqadi. Shunday vaziyatlarda o'qituvchilar va maktab psixologlari bunday o'quvchini jazolashdan ko'ra, uning ichki ruhiy ehtiyojlarini aniqlab, psixologik yordam ko'rsatishlari lozim.

Shaxsiy misollar asosida mulohaza: Mening maktabdagi amaliyotim davomida bir holat yodimda qolgan: sinfdagi bir o'quvchi (ismni aytmayman) doimo boshqalarga tanbeh beradi, ba'zida qo'pol so'zlar bilan muomala qilardi. Boshida uni "be'adab", "tajovuzkor" deb baholagan edik. Keyinchalik psixologik suhbat orqali ma'lum bo'ldiki, u uyda ota-onasining doimiy janjallariga guvoh bo'lib ulg'aygan, onasi esa unga e'tibor bermas edi. Demak, bu bola o'z ichidagi qattiq ruhiy bo'shliqqa qarshi kurashayotgan edi. Biz unga do'stona muhit yaratganimizda, u bosqichma-bosqich ijobiy o'zgarishni boshladi.

Bu voqea menga zo'ravonlik ortida doimo bir sabab borligini, va har bir sabab — tushunishga loyiq ekanligini isbotlagan.

Inson qalbi — nozik bir dunyo. Ayniqsa, hali voyaga yetmagan, o'zini anglash yo'lida bo'lgan yosh qalblar — mehr va tushunishga, xavfsizlikka tashna bo'ladi. Afsuski, ba'zan bu ehtiyojlar o'z vaqtida qondirilmaydi va natijada — ruhiy zo'ravonlik, tahqir, tajovuzkorlik yoki jismoniy zo'ravonlik ko'rinishida jamiyat

hayotida o'z aksini topadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, zo'ravonlikka qarshi kurash faqat muammoni aniqlagach emas, unga olib keladigan sabablarni erta payqash va oldini olish orqali samarali kechadi.

Ba'zida o'quvchi bolani darsdan chalg'igan, agressiv yoki beparvo deb baholaymiz. Lekin u yuragida og'ir yukni, uyidagi muammolarni, do'stlari orasida rad etilganini, e'tiborsizlikni olib yurayotgan bo'lishi mumkin. Zo'ravonlikning ildizi — befarqlikda va bu befarqlik ko'pincha kattalarning e'tibor yetishmovchiligidan boshlanadi. Shuning uchun har bir maktabda, har bir sinfda — mehr, ishonch va eshitish muhitini yaratish zarur. O'qituvchi — faqat bilim beruvchi emas, balki qalb tarbiyachisi hamdir. U har bir bolaning ko'zidagi so'zsiz yordam so'rovini ilg'ab olishi kerak. Shunda zo'ravonlikning ildizi hali chuqurlashmasdan, yechimini topa olamiz.

Maktab psixologlarining faol ishtiroki, ota-onalar bilan muntazam muloqot, ijtimoiy-emotsional treninglar, do'stlik va hamkorlikka asoslangan sinf muhitlari — bularning barchasi zo'ravonlikka qarshi eng kuchli qalqondir. Hamma gap o'z vaqtida e'tibor qaratishda. Zero, zo'ravonlik boshlangan joyda mehr tugagan bo'ladi. Mehr bo'lgan joyda esa na tahqir, na kuch ishlatish, na rad etish bo'ladi.

Zo'ravonlik holatlarini kamaytirish — bu jamoaviy harakat va tizimli yondashuvni talab etadi. Faqatgina hamkorlik, tushunish, mehr va ijobiy ijtimoiy muhit orqali biz o'quvchilarni zo'ravonlikdan asrab qolishimiz, ularning baxtli va sog'lom shaxs sifatida kamol topishlariga zamin yaratishimiz mumkin.

Farzandlarimiz kelajagi — ularning bolaligida qanday muhitda yashaganiga bog'liq. Shunday ekan, ularning bugunini himoya qilish — ertangi jamiyatni asrash demakdir.

Xulosa

O'quvchi yoshlar orasida sodir etilayotgan zo'ravonlik holatlari — bu nafaqat ta'lim muassasalari, balki butun jamiyatning dolzarb muammolaridan biridir. Bunday holatlar o'quvchilarning ruhiy salomatligiga, o'z-o'ziga bo'lgan ishonchiga, ijtimoiy

moslashuviga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Zo'ravonlik faqat jismoniy emas, balki psixologik shaklda ham ifodalanishi mumkin, va ko'pincha bu holatlar tashqi tomondan ko'zga tashlanmaydi. Shu sababli, muammoni erta aniqlash, zo'ravonlikka nisbatan befarq bo'lmaslik, ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirish orqali unga qarshi kurashish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Har bir pedagog, ota-ona va mutaxassis bu jarayonda faol ishtirok etishi, o'quvchilarning ehtiyojlariga e'tibor bilan yondashishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva, N. (2019). "Yoshlar va zo'ravonlik: Sabablari va ijtimoiy oqibatlar." – Ijtimoiy pedagogika asoslari.
2. Orifova, G. (2018). "O'quvchi yoshlar orasida zo'ravonlik va uning oldini olish usullari." – Psixologiya va ta'lim.
3. Mansurov, M. (2020). "Ta'lim muassasalarida o'quvchilar orasida zo'ravonlikni kamaytirish usullari." – O'qituvchilar uchun qo'llanma.
4. <https://www.pacer.org/bullying/>
5. Ziyonet.uz
6. Armat.uz

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15235382>

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR- DARS SAMARADORLIGINING MUHIM OMILI SIFATIDA

**Suyunova Munisa, Akramova Aziza,
Qambaraliyeva Zarina, Amirova Oynisa.**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Boshlang'ich ta'lim fakulteti

2-kurs talabalari

Ilmiy rahbar: Dotsent Murodxo'jayeva Ziyoda Baxodirovna

O'zining mustaqil ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'lini tanlab olgan O'zbekiston Respublikasi ta'lim sohasini ham sobit qadamlik bilan isloh qilib bormoqda. Ayniqsa, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilingach, bu boradagi ishlar keng ko'lamga erishdi. Ushbu hujjatlarning talablari asosida bilim va kasb-hunar egallashga bo'lgan e'tibor kuchayib ketdi. Shu tufayli ta'lim-tarbiya tizimiga yangicha ilmiy-uslubiy yondashuvlar kirib kela boshladi.

Bu yondashuvlar, o'z navbatida, o'quv jarayonining turli tashkiliy va metodik jamg'armalarida muayyan ijobiy o'zgarishlarni sodir etadi, albatta. Ularning ko'pchiligi pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat bilan uzviy bog'liq o'zgarishlardir.

Milliy dasturda ko'zda tutilgandek, zamonaviy axborot texnologiyalari va kompyuterlar tarmoqlari negizida ta'lim jarayonini axborot bilan ta'minlash rivojlanib boradi. Fan va ta'limning nashriyot bazasi rivojlanadi. O'quv, o'quv-uslubiy, ilmiy, innovatsion, zamonaviy texnologiyalar mukammallashib, o'quv jarayoniga tatbiq etib boriladi. Ma'lumki, didaktikaning predmetini o'rgatish, o'rganish hamda ta'lim mazmuni tashkil qiladi. Bunda ishtirok etayotgan uchta komponent bir-biri bilan uzviy

aloqada bo'lib, ulardan birortasini e'tibordan chetda qoldirish mumkin emas. Xo'sh, ishni ularning qaysi biridan boshlash zarur? Ishni o'rganish yoki o'rgatishdan boshlasak, tabiiy ravishda nimani (qaysi mazmundagi o'quv materialini) o'rganmoqchimiz yoki o'rgatmoqchimiz, degan savol tug'iladi. O'rgatish ham, o'rganish ham, ularning oxirgi natijasi ham ta'lim mazmuniga bog'liq.

O'qituvchi o'quvchilarni faollashtiradigan, uzi va o'rganuvchi uchun qulay bo'lgan yo'llarni, usul va uslublarni, o'qitish shakllari, metod va vaziyatlarni izlaydi, zamonaviy pedagogik texnologiyaga suyanib, o'quv jarayoni samaradorligini oshiradi. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatib, o'quv jarayonining yuqori sifat va samaradorligiga erishadi. Shu boisdan ham, pedagogik texnologiya, didaktik texnologiya, ta'lim texnologiyalariga o'quv jarayonidagi eng samarali vositalar deb qaralmoqda. Ularning daryo pedagogik amaliyotida keng foydalanilmoqda. Hozirgi kunda eng dolzarb masala va vazifa ta'lim standartlarini o'quv jarayoniga tatbiq etishdan iboratdir. Agar bu vazifa amalga oshirilmas ekan, ta'lim-tarbiya sohasida sifat va samaradorlikka erishish, o'quv jarayonini takomillashtirish masalalari hal etilmay qoladi. Yangi pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga tatbiq etish uchun uning ilmiy-amaliy mexanizmini yaratish zarur.

Pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga olib kirishda quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- pedagogik texnologiya amaliyoti va nazariyasini o'qib o'rganishni tashkil etish;
- pedagogik texnologiyalarni o'rganish, kuzatish, nazorat qilish va amalda joriy etish kurslarini tashkil etish;
- pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etish bo'yicha seminarlar, treninglar o'tkazish;
- pedagogik texnologiyalarni to'plash, tanlash, qo'llash bo'yicha tegishli ma'lumotlar bankini yaratish, ularni tahlil qilish asosida o'quv jarayoniga tatbiq etish;
- ilg'or pedagogik texnologiyalarni amalda qo'llash tajribalarini tahlil etish, umumlashtirish, ommalashtirish bo'yicha tavsiya, qo'llanmalar yaratib, ta'lim muassasalariga yetkazish.

Pedagogik texnologiya hozirda barcha pedagogik kasblar hamda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, boshqarish, nazorat qilish bilan bog'liq kasblarning asosini tashkil qiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan barcha pedagoglar xabardor bo'lishlari zarur.

Pedagogik texnologiyalarning maqsadi dars jarayonida samarali qo'llash orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirish imkoniyatlarini o'rganish. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mohiyatini ochib berish va ularning ta'lim jarayonidagi rolini tadqiq qilish. O'qitishning innovatsion metodlarini joriy etish orqali o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish va ularning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishni ta'minlashdan iborat. Pedagogik texnologiyalarning vazifasi esa nazariy asoslarini o'rganish ya'ni pedagogik texnologiya tushunchasining ta'rifi, rivojlanish tarixi va ahamiyatini tahlil qilish. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning turlari va ularning xususiyatlarini aniqlash.

Shuningdek, ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash nafaqat o'quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtiradi, balki ularning shaxsiy rivojlanishi, mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Prezident Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning: "Farzandlarimizni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirsak, ularni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalasak, Vatanimizni yangi marralarga olib chiqamiz", degan so'zlari ta'lim tizimining rivoji va yuksak maqsadlar sari intilishida biz – bo'lajak pedagoglar uchun ham yo'l-yo'riqdir.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik texnologiyalar bugungi ta'lim tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Ularni o'quv jarayoniga tizimli ravishda joriy etish orqali biz nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki yosh avlodni har tomonlama barkamol va zamonaviy bilimlarga ega shaxslar sifatida tarbiyalashga erishamiz. Shu boisdan, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish har bir pedagog uchun muhim va dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

H.T. Omonov, N.X. Xo‘jayev, S.A. Madyarova, E.U. Eshchonov. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T, ." Iqtisod-Moliya" 2009

J.F. Yo‘ldoshev, S.A. Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. T, ."O‘qituvchi" 2004

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15235576>

ОБ ОДНОМ ИЗ МЕТОДИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ К ОЗНАКОМЛЕНИЮ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ С ОСНОВНЫМИ ГЕОМЕТРИЧЕСКИМИ ЭЛЕМЕНТАМИ

Жураев Отабек Турсунович

Преподаватель кафедры математики

Ферганского государственного университета,

otabek7954@gmail.com

***Аннотация:** В данной статье представлены некоторые методы преподавания начальных геометрических понятий учащимся начальных классов с использованием удобных наглядных средств и активного участия самих учеников.*

***Ключевые слова:** геометрические фигуры; треугольная линейка; образ элемента фигуры; верёвка или шнур; точки, расположенные на равном расстоянии от заданных точек; параллельные и перпендикулярные прямые.*

ON ONE OF THE METHODOLOGICAL APPROACHES TO FAMILIARIZING PRIMARY SCHOOL STUDENTS WITH BASIC GEOMETRIC ELEMENTS

***Annotation:** This article presents several methods for teaching basic geometric concepts to primary school students using practical visual tools and encouraging active student participation.*

***Keywords:** geometric shapes; triangular ruler; image of a figure element; rope or string; points equidistant from given points; parallel and perpendicular straight lines.*

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI ASOSIY GEOMETRIK ELEMENTLAR BILAN TANISHTIRISHNING USLUBIY YONDASHUVLARIDAN BIRI HAQIDA

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga datslabki geometrik tushunchalarni qulay vositalar va o'quvchilarning ishtiroki asosida o'qitishning ayrim usullari taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: geometrik shakllar; uchburchakli chizg'ich; figura elementi obrazi; arqon yoki ip; berilgan nuqtalardan teng masofalarda joylashgan nuqtalar; parallel va perpendikulyar to'g'ri chiziqlar.

ВВЕДЕНИЕ

Один из приоритетов современной педагогики — пробуждение интереса к математике у учеников начальных классов. Наряду с обучением арифметическим действиям — сложению, вычитанию, умножению и делению — важным аспектом является ознакомление с геометрическими фигурами, их построением, отличиями и взаимосвязью размеров, что способствует правильному формированию представлений о начальных понятиях геометрии. Здесь особая роль отводится учителю начальных классов.

Геометрия — наука с более чем 2500-летней историей, название которой происходит от греческого слова, означающего «измерение земли». Важную роль в становлении геометрии как науки сыграли практические задачи ученых Древнего Египта, Вавилона и особенно Древней Греции.

Точка, отрезок, ломаная линия, прямая, треугольник, прямоугольник, квадрат, многоугольник, окружность, круг, шар, куб — все это геометрические фигуры.

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ И МЕТОДОЛОГИЯ

Преподавание геометрических понятий в начальных классах основывается на последовательном и соразмерном расширении тем, с учётом возрастных особенностей учеников. Знания, полученные на этапе дошкольного образования

в виде визуальных представлений, в начальной школе расширяются до понятий: острый, тупой и прямой угол, треугольник, прямоугольник, квадрат, многоугольник, длина отрезка, площадь, периметр, многогранники и их элементы, объём куба. Основной целью изучения геометрического материала является формирование у учащихся целостной системы представлений о геометрических фигурах, их элементах, взаимосвязях между ними, а также об их отдельных свойствах[5].

С первого класса ученики обучаются различать геометрические фигуры, формировать целое из частей и наоборот, распознавать простые пространственные формы. Построение прямого угла осуществляется в три этапа: сначала на плоскости отмечается точка, затем проводится прямая линия через эту точку, и с помощью транспортира строится прямой угол. В результате получается правильный прямой угол.

Задачи с геометрическим содержанием, как правило, включают практические действия, такие как рисование на бумаге, построение фигур и т.д. Особое внимание уделяется формированию навыков черчения. Программа указывает, когда дети должны научиться пользоваться линейкой, выполнять простые задания и измерения. К ним относятся: построение отрезка заданной длины, измерение отрезков с помощью линейки, построение прямоугольника на бумаге, построение прямого угла и прямоугольника на нелинованной бумаге с помощью чертёжного треугольника[6].

Приобретённые знания, умения и навыки применяются не только в выполнении практических упражнений, но и в решении текстовых задач. Критерии усвоения знаний, умений и навыков учащимися начальных классов определены в соответствии с государственными образовательными стандартами следующим образом:

Знания:

- взаимосвязь между единицами измерения длины;
- способы изменения формы геометрических фигур;

Умения:

- распознавать изученные геометрические фигуры не только по отдельности, но и в различных сочетаниях среди предметов окружающей среды, моделей, рисунков, чертежей;
- измерять длину отрезка с помощью линейки (в том числе суммарную длину сторон прямоугольника) и строить отрезок заданной длины;
- строить простые фигуры, симметричные относительно заданной оси.

Навыки:

Использование приобретённых знаний и умений в практической деятельности и повседневной жизни, в том числе:

- определение направления в пространстве;
- сравнение и классификация предметов по различным признакам — форме, поверхности и массе;
- оценка размеров предметов «на глаз».

В обновлённой программе начального образования темы и их распределение сформулированы следующим образом: основа курса начальной математики — это натуральные числа и ноль, четыре арифметических действия с положительными целыми числами и их основные свойства, а также устные и письменные методы счёта, основанные на этих знаниях. Особое внимание уделяется развитию таблицы умножения и навыков быстрого счёта[7].

Программа предусматривает освоение математических понятий на основе жизненных ситуаций. Это позволяет учащимся осознать, что изучаемые понятия и правила применимы на практике и возникли из жизненных потребностей. Таким образом, создаются условия для правильного понимания связи между наукой и практикой.


ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Вовлечение учеников начальных классов в процесс ознакомления и построения геометрических фигур является важным фактором. Это означает, что учащиеся принимают непосредственное участие в формировании фигур,

выступая в роли элементов фигуры. Например, держа в руках верёвки определённой длины, дети могут изображать прямые линии и с их помощью создавать различные геометрические элементы[8].

Рассмотрим процесс построения параллельных и перпендикулярных прямых.

При знакомстве учащихся с перпендикулярными прямыми, двое учеников натягивают верёвку синего цвета, ещё двое — верёвку красного цвета[15]. Если рассматривать полученные отрезки как части прямых, то для их пересечения под прямым углом требуется, чтобы расстояние от одного из учеников, держащих конец синей (или красной) верёвки, до двух учеников, держащих другую верёвку, было одинаковым. Это условие обеспечивает, что синие и красные верёвки формируют перпендикулярные прямые. [17]. Если же расстояния неравны, то прямые не являются перпендикулярными (рис. 1).



Для демонстрации параллельных прямых два ученика натягивают синюю верёвку, и ещё двое — красную, причём обе верёвки должны быть одинаковой длины. Если отрезки рассматриваются как части прямых, то параллельность обеспечивается равенством расстояний между учениками, держащими соответствующие концы синих и красных верёвок. В случае неравных расстояний прямые не будут параллельными (рис.2).




Рис.2

Визуальное представление учениками процесса построения параллельных и перпендикулярных прямых способствует переносу абстрактных понятий в реальность, что является важным шагом в развитии их творческого

подхода[9]. Если отрезки, лежащие на прямых, не удовлетворяют условиям параллельности или перпендикулярности, то такие прямые пересекаются под острым или тупым углом. Если одна из пересекающихся прямых отклоняется влево от положения перпендикуляра, то угол называется тупым (рис.3), если вправо — острым (рис.4).




Рис.3




Рис.4

ВЫВОДЫ

Выделение отдельных тем для изучения геометрического материала в учебниках по математике для начальных классов позволяет применять описанные выше подходы в обучении. Это, в свою очередь, помогает учащимся лучше понять такие количественные понятия, как сравнение величин (больше, меньше, равно), и формирует у них соответствующие представления.

Кроме того, в процессе знакомства учеников с элементами геометрии и геометрическими фигурами целесообразно использовать виртуальные демонстрации, то есть применять возможности информационно-коммуникационных технологий.

Литературы

1. Постановление президента республики Узбекистан о совершенствовании деятельности центра среднего специального, профессионального образования министерства высшего и среднего специального образования республики Узбекистан. г. Ташкент, 3 февраля 2018 г., № ПП-3504
2. Постановление президента республики Узбекистан о мерах по повышению качества образования и развитию научных исследований в области математики. г. Ташкент, 7 мая 2020 г., № ПП-4708
3. Об утверждении национальной программы по развитию народного образования в 2022 — 2026 годах. Указ Президента Республики Узбекистан, от 11.05.2022 г. № УП-134. <https://lex.uz/ru/docs/6008668>
4. Doniyor Qulmurodovich Jolanov, & Jahongir Sobirovich Namozov (2021). Boshlang'ich sinf matematika darslarida geometrik shakllarni va materialni o'rgatish jarayonida ko'rgazma hamda didaktik o'yinlardan foydalanish yo'llari. Academic research in educational sciences, 2 (5), 957-964.
5. G'ofurova Mahfuza Abbosovna, Muhtorova Dildora Rasuljon qizi. (2024). Boshlang'ich sinf matematika darsligida geometrik materialning ahamiyati. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11202123>
6. Djumaev Mamanazar Irgashevich Boshlang'ich sinfdlarda qo'shish va ayirishni mustahkamlashda inglizcha so'zlashuv imkoniyatlari. Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari. 2025 yil 3-son. 152-162
<https://maktabgacha-va-maktab-talimi-jurnal.uz/index.php/jurnal/index>
7. Djumaev Mamanazar Irgashevich Raqamli ta'lim muhitida xalqaro standartlashtirish mohiyati. Fizika, matematika va informatika. Ilmiy uslubiy jurnal. Toshket, №1 2025yil. 194-201 bet. <http://uzpfiti.uz/519-2/>
8. Djumaev Mamanazar Irgashevich [Ta'limda Yangicha Kompetensiyaviy yondashuv](#). Published in GOLDEN BRAIN, 3(3), 146-153, ISSN: 2181-4120, 2025. March 3, 2025 [146-153](#) <https://zenodo.org/records/14964423>
9. Djumaev Mamanazar Irgashevich Milliy o'quv dasturini amalitga joriy etish istiqbollari haqida mulohazalar. "Aqlli texnologiyalar va tadqiqotlarda innovatsion yondashuv: raqamli kelajakni yaratish" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi 22.02.2025. 646-652. <https://zenodo.org/records/14923207>
10. Djumayev M.I. The development of mathematical abilities in younger students. Science And Innovation International Scientific Journal Volume 2 Issue 1

January 2023 Uif-2022: 8.2 | Issn: 2181-3337 | Scientists.Uz/ 424-434
<https://scientists.uz/uploads/journal/202301C.pdf>

11. Djumayev M.I Formation of mathematical competence in future primary school teachers in the. Educational process science and innovation international scientific journal volume 2 issue 3 march 2023 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337 | scientists.uz 165-173 <https://scientists.uz/uploads/journal/202303A.pdf>

12. Djumayev M.I The transformation of the english language's variants in contemporary great Britain. Educational process science and innovation international scientific journal volume 2 Issue 4 April 2023 Uif-2022: 8.2 | Issn: 2181-3337 | Scientists.Uz 19-27 <https://doi.org/10.5281/zenodo.7818607>

13. Djumaev M.I. (2023) Some Considerations of Teaching Mathematics Inuzbek Primary School. Journal of Mathematical & Computer Applications. SRC/JMCA-123. *J Mathe & Comp Appli*, 2023 Volume 2(2): 1-5 ISSN: 2754-6705
<https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/43777>

14. Джумаев М.И. Перспективы совершенствования преподавания математики в школе, колледже и вузе Республики Узбекистан. Ямало.Нанецк Россия «Профессиональное образование арктических регионов» № 1, МАПТ, 2023. № 6(147) 3-6 ст <https://arctic-journal.ru/index.php/prof>

15. O. Jurayev, M. Yunusaliyeva. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga axborot texnologiyalarini o'rgatishning psixologik va didaktik tahlili. Ilmiy axborotnoma. – Namangan, 2021. – №8. – B. 35-39.

16. O.Juraev, G.Suyarova. In the teaching of elementary mathematical concepts Geogebra.org use of services. Modern problems of applied mathematics and information technologies. – Al-Khwarizmi, 15-17 November 2021. – P. 219.

17. O.Zhuraev. Development of ICT competence of primary school teachers in the process of continuing education. Science and Innovation. – Vol. 2, No. 4, March 2023. – Pp. 48-53.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15235619>

**O‘QUVCHINING INTELLEKTUAL KAMOLOTIDA TARBIYA
METODLARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK
SHART-SHAROITLARI**

Irkinova Muxlisa, Ismatova Kamola,

Ahmadjonova Saida, Bahodirova Madina

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Boshlang‘ich ta’lim fakulteti

2-kurs talabalari

Ilmiy rahbar: Dotsent Murodxo‘jayeva Ziyoda Baxodirovna

ANNOTATSIYA: *Bu maqola o‘quvchining intellektual kamolotiga erishishda tarbiya metodlarini shakllantirish va samarali pedagogik shart-sharoitlarni yaratish haqida.*

KALIT SO‘ZLAR: *intellekt, shaxs, tarbiya, metod, kamolot, ta’lim.*

АННОТАЦИЯ: *В статье рассматривается формирование методов обучения и создание эффективных педагогических условий для достижения интеллектуальной зрелости учащегося.*

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *интеллект, личность, воспитание, метод, зрелость, образование.*

ABSTRACT: *The article examines the formation of teaching methods and the creation of effective pedagogical conditions for achieving the intellectual maturity of the student.*

KEYWORDS: *intelligence, personality, upbringing, method, maturity, education.*

Intellekt (lotincha: intellects — bilish, tushunish, idrok qilish) — insonning aqliy qobiliyati; hayotni, atrof muhitni ongda aynan aks ettirish va o'zgartirish, fikrlash, o'qish-o'rganish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyati; turli masalalarni hal qilish, bir qarorga kelish, oqilona ish tutish, voqea-hodisalarni oldindan ko'ra bilish layoqati. Intellekt tarkibiga idrok qilish, xotirlash, fikr yuritish, so'zlash va hokazo psixik jarayonlar kiradi. Intellektning rivojlanishi tug'ma iste'dod, miya imkoniyatlari, jo'shqin faoliyat, hayotiy tajriba kabi ijtimoiy omillarga bog'liq. Intellekt saviyasi, darajasi inson faoliyatining natijalariga, shuningdek, psixologik testlarga qarab ham belgilanadi.

Intellektual rivojlanishni ta'minlovchi bir qancha omillar mavjud bo'lib, hozir ularning bir nechtasi ko'rib chiqamiz.

1. Innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish. Bu ta'lim jarayonini yanada samarali hamda qiziqarli tashkil qilishga yordam beradi.
2. Muammoli vaziyatlarda o'quvchilarni faollashtirish. Ta'lim jarayonida faqatgina o'qituvchining o'zi faol bo'lib qolmasdan o'quvchilarni ham maksimal darajada faollashtirishi talab qilinadi. Bu darsdan olinadigan natijaning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ta'lim oluvchining real hayotda muammolarga duch kelganda ularni qanday hal qila olish ko'nikmalarini shakllantiradi.
3. Tanqidiy va ijodiy fikrlash usullarini qo'llash.
4. Mustaqil o'qish va tadqiqot faoliyatini rivojlantirish.

Intellektual kamolot shaxsning ijtimoiy muhitga moslashuvini yengillashtiradi. Mustaqil fikrlash va yangi bilimlarni o'zlashtirish qobiliyati shaxsni har tomonlama rivojlangan yetuk inson sifatida shakllantiradi. Intellektual kamolotga ega bo'lgan o'quvchi o'zlashtirish qobiliyatini oshirib, o'quv jarayonida yuqori natijalarga erishadi. Bu esa zamonaviy ta'limning asosiy maqsadlaridan biridir. Intellektual jihatdan rivojlangan shaxslar jamiyatda tezroq moslashib, professional va shaxsiy hayotda muvaffaqiyat qozonadilar. Maktab va boshqa ta'lim obyektlarining asosiy maqsadlaridan biri ham o'sib kelayotgan yosh avlodni jamiyatga moslashtirish, unda o'z o'rnini topishiga yordam berishdan iborat. Intellektual kamolot ijodiy fikrlash va

innovatsiyalarni joriy etish uchun zarur omildir. Innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish va yangicha biznes loyihalarni amalga oshirishda intellektual rivojlanishning roli beqiyosdir. Hozirgi kundan kunga rivojlanib borayotgan hayotimizda “zamonaviy texnologiya”, “zamonaviylik”, “innovatsiya” tushunchalari ko‘p qo‘llanilmoqda. O‘z o‘rnida jamiyatdagi har bir sohaga bu tushunchalar o‘z ta‘sirini ham ko‘rsatib kelmoqda. Bir so‘z bilan aytganda bu talab darajasiga ham ko‘tarildi. Intellektual salohiyatli insonlar jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatib, ilmiy va texnologik yutuqlarni amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

O‘quvchining intellektual rivojlanishining muvaffaqiyati asosan sinfda, o‘qituvchi o‘z o‘quvchilari bilan yolg‘iz qolganda erishiladi. Va uning tizimli, kognitiv faoliyatni tashkil qilish qobiliyati o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqish darajasini, bilim darajasini, doimiy o‘z-o‘zini tarbiyalashga tayyorligini, ya‘ni ularning intellektual rivojlanishi. Intellektual rivojlanish inson faoliyatining eng muhim tarkibiy qismi bo‘lib xizmat qiladi. Aloqa, o‘qish, ishlashga bo‘lgan ehtiyojini qondirish uchun odam dunyoni idrok qilishi, faoliyatning turli qismlariga e‘tibor berishi, nima qilishi kerakligini tasavvur qilishi, eslab qolishi, o‘ylab ko‘rishi kerak. Shunday qilib, insonning intellektual qobiliyatlari faollikda rivojlanadi. Intellektual qobiliyat - bu xotira, idrok, tasavvur, fikrlash, nutq, e‘tibor. Ularning rivojlanishi boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalarni o‘qitishning eng muhim vazifalaridan biridir.

Tarbiya metodi (yunoncha «metodos» – yo‘l) tarbiya maqsadiga erishishning yo‘li. Maktab amaliyotiga tatbiq etilganda, metodlar – bu tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg‘ulari va xulqiga ta‘sir etish usullaridir. Tarbiyalanuvchilarga ta‘sir etishi natijalariga ko‘ra metodlarni ikki guruhga bo‘lish mumkin:

1. Axloqiy me‘yorlar, motivlarni hosil qilishga, tasavvur, tushuncha, g‘oyalarni shakllantirishga ta‘sir etuvchi.
 2. Xulq-atvorning u yoki bu turini aniqlaydigan odatlarni hosil qilishga ta‘sir etuvchi.
- Metodlar tarbiyaning maqsad va mazmuniga bog‘liq bo‘ladi. Tarbiya metodlari barkamol shaxs fazilatlarini tarkib toptirishga qaratilgan bo‘ladi. Shuning uchun tarbiyalanuvchilarning rivojlanganlik darajasini hisobga olish tarbiya metodlaridan

samarali foydalanishning muhim shartlari hisoblanadi. Tarbiya metodlarini to'g'ri tanlash tarbiya vazifalarini ijobiy hal qilishda o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalash faolligini oshirishga yordam beradi. Masalan, o'qituvchi birinchi sinf o'quvchilari bilan ishlash jarayonida o'quvchilarni ular uchun yangi bo'lgan mehnat faoliyatini o'rgatishda o'quvchilarning xulq-atvor qoidalarini, ularda kun tartibi aniq bo'lishi muhimligini, ularga o'quvchilarning qat'iy tartibga amal qilishi zarurligini tushuntirish metodidan foydalanadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak o'quvchilarning intellektual rivojlanishini ta'minlash uchun ta'lim jarayonida samarali tarbiya metodlarini qo'llash va ularga qulay pedagogik shart-sharoit yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovatsion metodlar va o'qituvchilarning kasbiy mahorati o'quvchilarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishda asosiy omil hisoblanadi. Shunday qilib, intellektual kamolotni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik faoliyat nafaqat o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga, balki jamiyat taraqqiyotiga ham katta hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar;

1. Nishonov, Z. "Pedagogika nazariyasi va metodikasi" – Toshkent: O'zbekiston fanlar akademiyasi nashriyoti, 2017
2. Yo'ldoshev, Q. "Ta'lim-tarbiya metodlari va ularning ahamiyati" – Samarqand: Zarafshon nashriyoti, 2019.
3. Internet resurslari

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15235633>

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ARIFMETIK AMALLARNING XOSSALARIDAN FOYDALANIB MISOLLAR YECHISHGA O'RGATISHDA QO'LLANILADIGAN METOD VA USULLAR

Meyliyev Sobirjon Xolmuradovich

Toshkent davlat pedagogika universiteti

Boshlang'ich ta'limda matematika va uni o'qitish metodikasi kafedrası dotsenti

sobirjonmeyliyev@gmail.com

Qilichova Mohichexra Jumaqul qizi

Boshlang'ich ta'limda matematika va uni o'qitish metodikasi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilariga arifmetik amallarning xossalarini o'rgatishning dolzarbligi, maqsad va vazifalari, metodik asoslari hamda samarali usullari haqida ma'lumot beradi. Maqolada nazariy bilimlar bilan amaliy mashg'ulotlarning uyg'unligi, interfaol metodlardan foydalanish, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish kabi muhim jihatlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Arifmetik amallar, xossalar, boshlang'ich sinf, metodika, interfaol usullar, og'zaki hisoblash, amaliy mashg'ulotlar.

Аннотация: В статье изложены сведения об актуальности, целях и задачах, методических основах и эффективных приемах обучения учащихся начальной школы свойствам арифметических действий. В статье рассматриваются такие важные аспекты, как сочетание теоретических знаний и практических занятий, использование интерактивных методов, учет индивидуальных особенностей студентов.

Ключевые слова: Арифметические действия, свойства, начальная школа, методика, интерактивные методы, устный счет, практические упражнения.

Annotation: *The article presents information about the relevance, goals and objectives, methodological foundations and effective methods of teaching primary school students the properties of arithmetic operations. The article examines such important aspects as the combination of theoretical knowledge and practical classes, and taking into account the individual characteristics of students.*

Key words: *Arithmetic operations, properties, primary school, methodology, interactive methods, mental arithmetic, practical exercises.*

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarning matematik bilimlarining poydevori hisoblanadi. Shu sababli, arifmetik amallarni o'rgatishda ularning xossalariidan foydalanishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Bu o'quvchilarning hisoblash ko'nikmalarini oshirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va matematikaga bo'lgan qiziqishini uyg'otishga yordam beradi.

Hozirgi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining arifmetik amallarni o'zlashtirish darajasi talabga javob bermaydi. Ko'pchilik o'quvchilar amallarni bajarishda qiyinchilikka duch kelmoqdalar, xossalardan foydalanishga yetarli e'tibor qaratilmayapti. Bu esa ularning kelgusidagi matematik bilimlarni o'zlashtirishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqolaning maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarini arifmetik amallarning xossalariidan foydalanib misollar yechishga o'rgatishning samarali metodikasini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishdan iborat.

Boshlang'ich sinf matematika darslarida nomanfiy butun sonlar ustida arifmetik amallar xossalariidan foydalanib hisoblashlar bajarilishini og'zaki hisoblash usullari bilan tanishtirish metodikasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Tayyorgarlik bosqichi:

- O'quvchilarning bilim darajasini aniqlash: Arifmetik amallarning asosiy xossalari (o'rin almashtirish, guruhlash, taqsimot) va og'zaki hisoblash usullari bo'yicha o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash (oddiy misollar, testlar, so'rovlar orqali).

- Motivatsiya yaratish: O'quvchilarga og'zaki hisoblashning kundalik hayotda qanchalik muhim ekanligini tushuntirish (do'konda hisoblash, vaqtni aniqlash, masofani taxmin qilish va h.k.). Og'zaki hisoblash orqali matematikani qiziqarli o'yinga aylantirish.

2. Asosiy bosqich: Arifmetik amallarning xossalarini bilan misollar orqali tanishamiz:

O'rin almashtirish xossasi: Qo'shish va ko'paytirish amallarida hadlarning o'rnini almashtirish natija o'zgarmasligini tushuntirish (masalan, $3+5=5+3$, $2 \times 4=4 \times 2$). Buni oddiy misollar va ko'rgazmali qurollar yordamida ko'rsatish.

Guruhlash xossasi: Qo'shish va ko'paytirish amallarida hadlarni guruhlash natijaga ta'sir qilmasligini tushuntirish (masalan, $(2+3)+5=2+(3+5)$, $(1 \times 2) \times 3=1 \times (2 \times 3)$). Buni ham misollar va ko'rgazmali qurollar yordamida tushuntirish.

Taqsimot xossasi: Ko'paytirishning qo'shishga nisbatan taqsimot xossasini tushuntirish (masalan, $2 \times (3+4)=2 \times 3+2 \times 4$). Buni sodda misollar bilan tushuntirish va ko'rgazmali qurollar yordamida ko'rsatish.

Og'zaki hisoblash usullarini tanishtirish:

- "Yaxlitlash" usuli: Qo'shiluvchilardan birini yaxlit songa (10, 20, 100 va h.k.) aylantirib, keyin tuzatish kiritish (masalan, $29+15 = 30+15-1 = 44$).

- "Bo'laklash" usuli: Sonlarni yig'indiga yoki ko'paytmaga ajratib hisoblash (masalan, $17+8 = 17+3+5 = 25$, $6 \times 7 = 6 \times 5 + 6 \times 2 = 42$).

- "Qulay usul" (o'rin almashtirish va guruhlashdan foydalanish): Misollarni qulayroq tartibda yozib, hisoblashni osonlashtirish (masalan, $2+7+8 = 2+8+7 = 17$).

- "O'nlikdan oshirib o'tish" usuli: Qo'shishda o'nlikdan oshib o'tish holatlarini osonlashtirish (masalan, $8+5 = 8+2+3 = 13$).

Mashqlar bajarish:

- Soddadan murakkabga tamoyili asosida misollar berish.

- Turli xildagi mashqlardan foydalanish (og'zaki savollar, kartochkalar bilan ishlash, taxtada yozish, o'yinlar va h.k.).

Interfaol metodlar, vositalar va usullar yordamida o‘qituvchilar boshlang‘ich sinf matematika darslarida nomanfiy butun sonlar ustida arifmetik amallar xossalaridan foydalanib og‘zaki hisoblash ko‘nikmalarini rivojlantirishga muvaffaq bo‘ladilar. Muhimi, darsni qiziqarli, interaktiv va har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘tkazishdir.

1. “Matematik detektiv” (Muammoli ta’lim elementi):

G‘oya: O‘quvchilar detektiv rolini o‘ynab, arifmetik amallar qonunlaridan foydalanib “sirli” misollarni yechadilar.

Metod: O‘qituvchi misolning bir qismini yashiradi (masalan, qo‘shiluvchilardan birini yoki amal belgisini). O‘quvchilar arifmetik amallar qonunlaridan foydalanib, yashirilgan qismini topishlari kerak.

Misol: “Politsiya xodimi noma’lum sonni qo‘shish orqali 15 javobini oldi. U 7 soniga nimani qo‘shgan?” ($7 + ? = 15$).

Qiziqarli jihati: O‘quvchilar muammoni hal qilishda o‘zlarini “detektiv” deb his qilishadi, bu esa ularning motivatsiyasini oshiradi.

2. “Matematik teatr” (Rollarga bo‘linib o‘ynash elementi):

G‘oya: O‘quvchilar arifmetik amallar qonunlarini “jonlantiradilar”.

Metod: O‘quvchilar guruhlariga bo‘linadilar va har bir guruhga arifmetik amallar qonunini namoyish etuvchi sahna ko‘rinishi tayyorlash vazifasi beriladi.

Misol: O‘rin almashtirish qonuni uchun ikki o‘quvchi raqamlarni (masalan, 3 va 5) ifodalaydi. Ular o‘rinlarini almashtiradilar va yig‘indi o‘zgarmasligini ko‘rsatadilar.

Qiziqarli jihati: O‘quvchilar qonunlarni faol ravishda o‘rganadilar, bu esa ularning tushunish darajasini oshiradi.

3. “Matematik xazina izlash” (O‘yin elementlari):

G‘oya: O‘quvchilar arifmetik amallar qonunlaridan foydalanib, xazina joylashgan joyni topadilar.

Metod: Xazina xaritasini yaratish (sinf xaritasi yoki maket). Xaritada arifmetik amallar qonunlariga oid misollar yashirilgan. Misollarni to‘g‘ri yechib, o‘quvchilar xazina joylashgan joyni aniqlaydilar.

Misol: “Agar $5 + (3 + ?) = 11$ bo‘lsa, xazina stol ostida joylashgan”.

Qiziqarli jihati: O‘quvchilar o‘yin orqali o‘rganadilar, bu esa ularning motivatsiyasini va qiziqishini oshiradi.

Ushbu metodlar o‘quvchilarning faolligini, qiziqishini va motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. Ulardan foydalanish darsni yanada qiziqarli va unutilmas qiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini arifmetik amallarning xossaligidan foydalanib misollar yechishga o‘rgatish ularning matematik bilimlarining mustahkam poydevorini yaratadi. Samarali metodikalardan foydalanish, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish va interfaol usullarni qo‘llash orqali ushbu maqsadga erishish mumkin. Kelgusida bu borada yanada chuqurroq tadqiqotlar o‘tkazish va amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-6079-son Farmoni

2. Jumaev M. E. Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. Toshkent. “Ilm Ziyo” 2018 yil.

3. Geometriya elementlarini o‘qitishda elektron ta’lim resurslaridan foydalanib axborot-tahlil kompetentligini rivojlantirish . INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY. Vol.2 ISSUE2 (2025):SCENCE and TECHNOLOGY.

4. Elektron resurslarini yaratishda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini axborot-tahlil kompetentligini rivojlantirish. Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari ilmiy- nazariy jurnali. 2025y 1-son.

5. I-IV sinflar uchun matematikadan qiziqarli masala va topshiriqlar to‘plami o‘quv uslubiy qullanma // S.Meyliyev, M.Xolmuradova, S. Xolmuradov. Toshkent.

“O‘qituvch” nashriyoti 2024y.-119b

6.S.Burhonov va boshq. Uchinchi sinf matematika darsligi. Toshkent. “Sharq” 2022 y

7..Axborot madaniyati: Darslik / M. M. Abdullayeva, G. A. Axmedova. - T.: "Fan va texnologiyalar", 2021.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15235649>

**MAKTABGACHA TA'LIMDA BOLALAR NUTQIY KOMPETENSIYASINI
BADIY ADABIYOT VA TRIZ TEXNOLOGIYASI ORQALI
RIVOJLANTIRISH**

Temirova Shahloxon Xoshimjon qizi

FarDU Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(maktabgacha ta'lim) mutaxassisligi 1-bosqich magistranti
shahlotemirova96@gmail.com

Yuldasheva Dilafruz Maxamadaliyevna

FarDU filologiya fanlari doktori (DSC), dotsent
yuldilaf@mail.ru

Annotatsiya: Tezida maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirish, to'g'ri talaffuz, dialogik va monologik nutq ustida ishlashda bolalar adabiyotining lirik janrlaridan foydalanishning ahamiyati ifoda etilgan. Bolalar lug'atini boyitishda bolaning ongiga mavzuga oid hamda yangi so'zlarni kiritishga oid qarashlar bayon etilgan hamda misollar orqali tavsiflangan. Bolalarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda badiiy adabiyotning o'rni, TRIZ texnologiyasi orqali ijodkorligini oshirish kabilar muayyan yoritilgan.

Kalit so'zlar: Bola, til, nutq, talaffuz, undoshlar, muloqot, nutqiy ifoda, badiiy adabiyot, TRIZ.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy kompetensiyasi ustida ishlash faol ijodkorlikni talab etadi. O'z ichki "men"ini taniyotgan, tevarak-atrofni bor bo'yicha qaul qilayotgan, o'zini o'rab turgan olamga qiziqish bilan qaraydigan maktabgacha yoshdagi bolalarning so'zlash qobiliyatini ochish, tog'ri talaffuzi ustida ishlash, lug'at boyligini oshirib borishda tarbiyachining ham nutqiy bilimi, muloqot madaniyati tugal va o'ziga xos jozibador bo'lishi zarur. Maktabgacha ta'lim tizimiga kirib kelayotgan

TRIZ yangicha ta'lim texnologiyasi o'qitishning interfaol usuli, ta'limda samaradorlik va natijadorlikka yo'naltirilgan izlanishlar uchun amaliy inkon ekani haqida fikrlar, ilmiy qarashlar ilgari surilgan. Triz texnologiyasi orqali bolada nutrni rivojlantirish, lug'atini boyitish va ijodkorligini yuksaltirish mumkin. TRIZ texnologiyasining maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning aqliy qobiliyatini o'stirish, ularda ijodkorlik va ixtirochilik iqtidorini ijodiy shakllantirish muhim ahamiyatga egadir.

Misol tariqasida, bola nutqida nuqsoni bo'lyapti, uning nutiqni badiiy adabiyot orqali boyitish, TRIZ texnologiyasi orqali esa ixtirochiligini, har qanday vaziyatda muammalarga oson yechim topishga bu orqali esa bolaning jamiyatda o'z o'rnini topishiga yordam beradi.

Nutqiy rivojlanish jarayonini A.N. Leontyev quyidagicha tavsiflaydi: "Nutqni rivojlantirish jarayoni bola lug'atining va so'zlarning assotsiatsiya asosida bog'lanishining ortishida ifodalanadigan miqdoriy o'zgarishlar jarayoni emas, balki sifat jihatdan o'zgarish jarayonidir, zero u fikrlash va ong rivojlanishi bilan ichki bog'langan holda so'zning barcha funksiyalari, tomonlari va aloqalarini qamrab oladigan haqiqiy rivojlanish jarayonidir".

Chindan ham, 3-7 yoshli bolalarning MTTda yosh guruhlari bo'yicha guruh kutubxonasidan foydalanishi, avvalo, ularning badiiy kitoblar bilan tanishuvidan boshlanadi. Qiziqarli ma'no-mazmunni o'zida mujassam etgan rango-rang adabiyotlar bola uchun yangi so'zlar va ma'nolar manbasi bo'lib xizmat qilishi, tabiiy. Shu nuqtayi nazardan, bolalarning hissiy-emotsional, psixologik ta'sirchanligi, hissiyotga beriluvchanligidan kelib chiqib, ularning tafakkur olamini nutqiy boyitish, so'zlarning maftunkor jilosini his ettirishda badiiy adabiyotning didaktik ta'siri alohida ahamiyatga ega. Bolalar nutqini shakllantirish va rivojlantirishning usullari bir necha bo'lib, quyida ularga nazariy jihatdan to'xtalib o'tamiz.

Hikoya qilish bolalarning jummlarni grammatik jihatdan to'g'ri tuzish, tovushlarni, qo'shimchalarni to'g'ri talaffuz etish, yoshiga mos darajada tasviriy

vositalardan to'g'ri foydalana olishiga yordam berib boriladi. Kattalarning mehnat jarayonini kuzatish, tabiatga, daryo, cho'l, dalalarga sayohatlar asosida hikoyalar tuzishni tavsiya etish bolalarning bog'lanishli nutqini rivojlantirishda eng qulay usullardan hisoblanadi.

Rasmlar ketma-ketligi asosida hikoya tuzish. Bunda bolaning diqqat, idrok va tafakkurining rivojlanganlik darajasini aniqlash mumkin. Bu vaziyatda bola birinchi galda rangli suratlarni ko'radi, ularda tasvirlangan voqealarni o'z so'zi bilan ifodalashga harakat qiladi, buning uchun u mantiqiy fikrlashga harakat qiladi. Hikoya tuzish metodi orqali bola nutqining leksik-grammatik xususiyatlariga hamda bola tafakkurining umumlashtira bilish xususiyatlariga diqqatli bo'lish talab etiladi. Bola tashqi dunyoni xotira, tasavvur, xayol, tafakkur kabi ruhiy jarayonlar yordamida, shuningdek, nutq yordamida bilib olish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Bolalar lug'atini boyitishning asosini bolaning ongiga mavzuga aloqador so'zlar, sinonimik qatorlar, antonimik juftliklar, ko'p manoli so'zlarni kiritish tashkil qiladi.

Bolalar bilan sinonimlar ustida ishlash ularning so'zlarning mavzuga iod so'zlar guruhlarini o'zlashtirishlariga oid ishlar bilan uyg'unlashtirib kelishlari lozimligini ifoda etadi.

Bola nutqi, agarda u atrofdagilarga tushunarli bo'lsagina ishonchli muloqot vositasi bo'lib xizmat qiladi, bu esa fikrni so'zlarda izchil, ravon va to'liq ifodalashga, aniq so'zlarni tanlashga, talaffuzning sofligi va to'g'riligiga bog'liqdir.

Unutmaslik kerakki, bola nutqi ustida ishlash o'ziga xos murakkab va davomli jarayon. Avvaliga tovush, so'z, so'z birikmasi va gap qurilishini asta-sekin o'rganish bola uchun yangi bosqich, rivojlanish yuksalishidagi muhim pog'ona, dadil qadamdir. Bu o'rinda oilada ota-ona, MTTda tarbiyachining asosiy "quroli" badiiy adabiyot bo'la oladi. Bolalar ijodkorlarining bolalar uchun yozgan kichik nasriy va lirik asarlari MTT tarbiyalanuvchilarining tasavvur, tafakkur, fikrlash va bayon etish, umuman,

monologik nutqini to'g'ri rivojlanishiga amaliy imkon beradi. Buni muallif N.Rayimovanning "Zebo" hikoyasi misolida ko'rishimiz mumkin:

Hikoya yengil boshlanadi va yengil o'qiladi. Hikoyadagi qizaloq – Zebo MTTdagi har bir bolaga do'st-o'rtoq bo'la oladigan qahramondir. Hikoyada uning odobi, nutqi, xatti-harakati muayyan ketma-ketlik hamda o'ziga xos bolalarcha beg'uborlik bilan kechadi. Bu–hikoyaning tarbiyaviy tomoni. Muallif hikoya so'ngida "Ayting-chi, bolalar, Zebo nega suyundi?" deya ochiq savol qoldiradi. Bolalar hikoyani tinglagach, qizaloqning nega suyunganini tahlil hamda nutq orqali tasvir qilib brishga harakat qiladilar. Maktabgacha katta yosh guruhi uchun mo'ljallangan ushbu hikoya savoliga javob topish orqali bolalar hikoyaning badiiy ahamiyati hamda tarbiyaviy ta'sirini o'z-o'zidan, beixtiyor o'rganib, o'zlashtirib oladilar. Yoki yana bir misol:

Bahor chog'i bog'iga

Anor ekdi Anorxon.

Suvlar tashin anhordan,

Terlar to'kdi Anorxon.

Uch yil o'tib oradan,

Duv-duv to'kdi anorlar.

Mushtdek-mushtdek yoqutga

To'lib ketdi qanorlar.

Rang-ro'ylari o'xshaydi

Anorxonning yuziga.

Shirinligi o'xshaydi

Anorxonning so'ziga..."

Ushbu misralardagi "**chog'i**", "**anhor**", "**duv-duv**", "**yoqut**", "**rang-ro'y**" kabi yangi so'zlar bolaning faol lug'atini boyitishga xizmat qilish barobarida, talaffuzini "charxlash"ga amaliy yordam beradi.

Tarbiyachi-pedagog bolalarning tafakkuri va nutqining barcha jihatlari, shu jumladan, obrazlilikni ham ularga atrofdagi hayot, oila va maktabgacha ta'lim tashkilotining maishiy hayoti, kishilar mehnati, ijtimoiy voqea va hodisalar, jonli tabiat va predmetli olam bilan tanishish imkonini beradigan darajada rivojlantiradi, deyishimiz mumkin.

Obrazli nutqni rivojlantirish keng ma'noda nutq madaniyatining tarkibiy qismidir. Bu o'rinda nutq madaniyati deganda, adabiy til normalariga rioya qilish o'z fikrlarini, hissiyotlarini tasavvurlarini aytilayotgan gapning yo'nalishi va maqsadiga muvofiq holda mazmunli, grammatik to'g'ri, aniq va ifodali bera olish anglashiladi.

Bolani kichik badiiy asarlar bilan tanishtirish badiiy adabiyotda ifoda vositalarining rolini tushunishni rivojlantirishga ta'sir etadi. Obrazlilik nutqining turli jihatlarning muhim xususiyati hisoblanadi. Obrazlilikning grammatik tomoni ham muhimdir, chunki bola turli stilistik vositalardan foydalangan holda, o'z fikrlarini grammatik jihatdan to'g'ri va shu bilan bir qatorda ifodali tarzda bildiradi. Xulosa qilib aytganda, bolalar adabiyoti bolalar nutqini nazariy va amaliy rivojlantirishda samarali vosita bo'lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bolalar nuqtini o'stirish nazariyasi va texnologiyalari fanidan o'quv-uslubiy majmua. Tuzuvchi: Z.U.Mamirova, GulDU, Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi.- Guliston – 2021
2. “Durdona” Boqchalar uchun badiiy adabiyot xrestomatiyasi: To'plam: Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun. – T.: Cho'lpon 1995.
3. “G'aroyib avtobus”. She'rlar, topishmoqlar, tarjimalar, yosh qalamkashlarga adabiy saboqlar. A.Akbar. “O'qituvchi” nashriyot-manbaa ijodiy uyi. T.-2012.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15235666>

РОЛЬ ИНТЕРФЕРЕНЦИИ ПРИ ИЗУЧЕНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА В УЗБЕКСКОЙ АУДИТОРИИ

Мухиддинова Робияхон Азизовна,
студентка 2-курса

Миртурсунова Юлдуз Абдумаликовна,
и.о.доцента ТГПУ имени Низами

Аннотация. В данной статье рассматриваются сложности изучения неродного языка под интерферирующим влиянием родного языка.

Ключевые слова: полилингвизм, интерференция, неродной язык, иноязычный, наращение, звуковая структура, лингвистический анализ, влияние интерференции.

Abstract. This article examines the difficulties of learning a non-native language under the interfering influence of the native language.

Key words: multilingualism, interference, non-native language, speech, foreign language, extension, sound structure, linguistic analysis.

Annotatsiya. Ushbu maqola ona tilining aralashish ta'siri ostida ona tilini o'rganishdagi qiyinchiliklarni ko'rib chiqadi.

Tayanch so'zlar: ko'p tillilik, interferensiya, o'quvchilar, ona tili bo'lmagan til, nutq, chet tili, kengaytma, tovush tarkibi, lingvistik tahlil, interferensiya ta'siri.

Полилингвизм - одна из значимых проблем, которая была поставлена обществом перед наукой. Студенты, изучающие неродной язык (в нашем случае, русский язык), часто встречаются с трудностями, вызванными явлением интерференции. Данная статья посвящена анализу влияния фонетической интерференции на процесс изучения русского языка узбекскими студентами. Проблема интерференции при обучении иностранным языкам, в том числе и русскому языку как иностранному, является актуальной и многоаспектной. Исследования в этой области направлены на выявление причин возникновения интерференции, анализ ее проявлений на различных уровнях языка, а также разработку эффективных методов и приемов преодоления интерференционных ошибок. В контексте узбекской аудитории, где русский язык изучается как второй или третий язык, проблема интерференции приобретает особую значимость в силу значительных различий в грамматических системах узбекского и русского языков.

Данное явление проявляется в различных языковых аспектах, включая:

- **Лингвистическую интерференцию:** отклонения от норм русского языка, обусловленные структурными и лексическими особенностями узбекского языка.
- **Орфоэпическую интерференцию:** искажение произношения русских слов под влиянием фонетической системы узбекского языка.
- **Грамматическую интерференцию:** нарушение синтаксических и морфологических норм русского языка в результате переноса грамматических конструкций из узбекского языка.
- **Орфографическую интерференцию:** ошибки в написании русских слов, вызванные влиянием орфографических правил узбекского языка.
- **Стилистическую интерференцию:** несоответствие стилистическим нормам русской речи из-за переноса стилистических особенностей узбекского языка.

Проблемы, связанные с изучением русского языка, проявляются не только у студентов узбекских групп. Студенты групп с русским языком обучения, для которых русский не является родным, также сталкиваются с трудностями, особенно в устной речи. Это **орфоэпические** ошибки, в основном, проявляющиеся следующим образом:

1. Неправильная постановка ударения: это связано с различиями в системах ударения в русском и узбекском языках.

2. Искажение звуко - буквенных сочетаний: произношение русских звуков, не имеющих аналогов в родных языках студентов, представляет особую сложность.

Это проявляется в тенденции к побуквенному прочтению слов, что приводит к отклонениям от орфоэпических норм. Например:

- слово «что» произносится как [что], а не как [што];
- слово «счёт» произносится как [сч'от], а не как [ш'от];
- слово «легкий» произносится как [л'эцкий], а не как [л'охк'ий].

Данные явления свидетельствуют о трудностях, связанных с освоением редукции гласных и оглушения согласных в русском языке, а также о влиянии орфографической формы слова на его произношение.

Также **грамматические** ошибки:

1. Неправильное использование падежей: русская падежная система сложна для носителей языков, где падежи отсутствуют или представлены в меньшем объеме.

2. Ошибки в согласовании рода и числа: различия в грамматическом роде и правилах согласования могут вызывать затруднения.

Данные наблюдения свидетельствуют о наличии общих трудностей в процессе освоения русского языка как иностранного, обусловленных интерференцией родного языка и сложностью системы русского языка. Для минимизации влияния интерференции при изучении русского языка как второго или третьего неродного языка рекомендуется применение следующих стратегий:

Артикуляционно-фонетическая тренировка:

- Систематическое проговаривание вслух незнакомых звуков и звуко-буквенных сочетаний, представляющих артикуляционную сложность.
- Особое внимание следует уделять сочетаниям, в которых орфографическое представление не соответствует фонетической реализации (например, «что» - [што], «счёт» - [ш'от]).
- Целенаправленная работа над артикуляцией звуков, не имеющих аналогов в родном языке.

Фонематический анализ:

- Развитие навыков фонематического анализа, позволяющего различать звуки, близкие по звучанию, но имеющие разное смысловоразличительное значение.
- Анализ звуко буквенных сочетаний, где две буквы дают один звук, для корректного произношения.

Регулярная практика:

- Регулярная практика проговаривания, для закрепления материала.
- Работа с аудиоматериалами, для улучшения восприятия на слух.

Данные методические приемы способствуют формированию адекватных артикуляционных навыков и развитию фонематического слуха, что, в свою очередь, способствует преодолению интерференции и повышению эффективности освоения фонетического аспекта русского языка.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Джусупов М. Билингвальное образование: проблема звуковой и лингвокультурной интерференции. Вестник РУДН.Серия: Вопросы образования: языки и специальность. 2017 Vol/ 14 No.3 351-358
2. Миртурсунова Ю. Интерференция в речи студентов и причины ее возникновения. Scientific journal «GOLDEN BRAIN» 2024 Vol.2 No. 18 p.129-133
3. Ризамухамедова Г. Грамматическая интерференция при изучении русского языка в узбекской аудитории. «SCIENCE TIME» 2021 p.36-39

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15235691>

ДРЕВЕСНЫЕ МОТИВЫ ЛИРИКИ С.ЕСЕНИНА

Буриева Мухаббат Ойназаровна

Старший преподаватель Бухарского государственного педагогического
института

Аннотация: В статье рассматриваются древесные мотивы в поэтическом наследии Сергея Есенина как важный элемент его художественной картины мира. Анализируются образы деревьев и других растений, играющих символическую и эмоциональную роль в лирике поэта. Выявляются устойчивые древесные символы, отражающие мировоззрение Есенина и специфику его поэтического языка.

Ключевые слова: древесные мотивы, поэтический приём, метафора женственности, символ Родины, береза, тополь, ива, клен.

Abstract: The article examines arboreal motifs in the poetic legacy of Sergei Yesenin as an important element of his artistic worldview. It analyzes images of trees and other plants that play symbolic and emotional roles in the poet's lyrics. The study identifies recurring tree symbols that reflect Yesenin's worldview and the specifics of his poetic language.

Keywords: arboreal motifs, poetic device, metaphor of femininity, symbol of the Motherland, birch, poplar, willow, maple.

Поэзия Сергея Есенина тесно связана с природой. Цветы, деревья, сады — это не просто часть пейзажа, а важные образы, через которые поэт выражает свои чувства, мысли, философские размышления. Особенно значимыми в его лирике становятся древесные мотивы — они помогают передать состояние души, отразить перемены в жизни, показать связь человека с природой.

Образ природы у Есенина часто рождается из ассоциаций с деревенским, крестьянским укладом, тогда как внутренний мир человека раскрывается через

образы живой природы. С раннего детства поэт впитал в себя народное восприятие мира, которое во многом сформировало его уникальный поэтический стиль. Для Есенина сравнение человека с деревом — не просто поэтический приём, а глубинная жизненная истина. Он не просто верил в тесную связь человека и природы — он ощущал себя её неотъемлемой частью, словно продолжение земли, трав, лесов.

Очеловеченные образы деревьев обрастают «портретными» подробностями: у березы - «стан, бедра, груди, ножка, прическа, подол, косы», у клена - «нога, голова».

Так и хочется руки сомкнуть
Над древесными бедрами ив.
(" Я по первому снегу бреду ...", 1917 г.),
Зеленая прическа,
Девическая грудь,
О тонкая березка,
Что загляделась в пруд?
("Зеленая прическа", 1918 г.)

Стихи «Я по первому снегу бреду...» (1917) и «Зелёная прическа» (1918) - произведения связаны образным и чувственным восприятием деревьев, в которых Есенин видит женские образы, одухотворённые и нежные.

В строке «Так и хочется руки сомкнуть / Над древесными бёдрами ив» Есенин передаёт не только эстетическое восхищение ивой, но и подчёркивает чувственное слияние природы и человека. Ветви ивы сравниваются с бёдрами — это метафора женственности, мягкости и хрупкости. Природа здесь становится не просто фоном, а живым существом, вызывающим отклик в душе поэта.

Во втором стихотворении — «Зелёная прическа» — образ берёзы сравнивается с молодой девушкой. Её «девичья грудь», «тонкая» фигура и

взгляд, «заглядевшийся в пруд», создают картину юности, невинности, легкой задумчивости. Природа здесь воспринимается как зеркало чувств: берёза — это воплощение девичьей красоты, неуловимой грусти и нежности. Образ воды в пруду усиливает настроение задумчивости, как будто девушка-берёза вглядывается в своё отражение и размышляет о чём-то сокровенном.

Есенин видит в природе красоту, сродную человеческой, особенно женской, и через это передаёт тонкие эмоциональные состояния. Эти строки — гимн живой природе, прочувствованный как любовь и восхищение женщиной, её грацией, нежностью и тайной.

Среди всего многообразия деревьев в поэзии Есенина особое место занимают берёза и клён — они становятся не просто деталями пейзажа, а полноценными героями его поэтических историй. Именно эти образы оказываются самыми глубокими и протяжёнными по смыслу и настроению.

Берёза — неотъемлемый символ русской души, образ, пронизанный народной памятью и чувствами. В народной и классической традиции она давно утвердилась как символ Родины, света и нежности. Ещё в древнеславянских обрядах берёза считалась священным деревом весны — «майским деревом», олицетворением обновления, чистоты и живой связи с природой.

Есенин, при описании народных весенних праздников, упоминает березу в значении этого символа в стихотворениях "Троицыно утро..." (1914 г.) и "Зашумели над затоном тростники ..." (1914 г.)

Троицыно утро, утренний канон,
В роще по березкам белый перезвон.

В таких стихотворениях, как "Не жалею, не зову, не плачу..." (1921 г.) и "Отговорила роща золотая..." (1924 г.), лирический герой размышляет о прожитой жизни, о молодости:

Не жалею, не зову, не плачу,
Все пройдет, как с белых яблонь дым.
Увяданья золотом охваченный,
Я не буду больше молодым.
...И страна березового ситца
Не заманит шляться босиком.

В стихотворении «Не жалею, не зову, не плачу...» флористические образы играют ключевую роль. Уже во второй строке возникает тонкая, почти призрачная картина: «Всё пройдёт, как с белых яблонь дым». Это сравнение указывает на мимолётность жизни и юности. Цвет яблони — это символ весны, начала, расцвета. А «дым» с белых яблонь — это уже нечто неуловимое, уходящее, как воспоминание. Таким образом, флористический образ яблони становится метафорой прошедшей молодости.

Ещё один важный природный образ — «страна берёзового ситца». Берёза в поэзии Есенина — символ Родины, русской природы, светлой и трогательной. Слово «ситец» придаёт образу лёгкость, простоту и нежность, ассоциируясь с деревенским бытом, родными местами, детством. Однако в контексте стихотворения поэт осознаёт, что эта страна, как и молодость, уже не может вернуть его прежнего состояния — он больше не может «шляться босиком», как когда-то. Связь с природой не исчезает, но меняется: из наивного и радостного ощущения — в тихую, зрелую грусть.

С образом березы тесно переплетается и тема Родины. Каждая есенинская строка согрета чувством безграничной любви к России. Сила лирики поэта заключается в том, что в ней чувство любви к Родине выражается не отвлеченно, а конкретно, в зримых образах, через картины родного пейзажа. Это можно увидеть в таких стихотворениях как "Белая береза". (1913 г.), «Возвращение на Родину» (1924 г.), "Неуютная жидкая лунность" (1925 г.). Клен, в отличие от других деревьев, не имеет столь определенного,

сформированного образного ядра в русской поэзии. В фольклорных традициях, связанных с древними языческими ритуалами, он не играл значительной роли. Поэтические воззрения на него в русской классической литературе в основном складываются в 20 веке и поэтому еще не приобрели ясных очертаний. В стихотворении «Село» (1914 г.) С. Есенин сравнивает листья тополя с шелком: В шелковых листьях тополя. Сравнение листьев тополя с шёлковой тканью рождается не случайно — у этих деревьев особая, двойственная структура листы. С одной стороны лист блестит ярко-зелёным, словно отполированным светом, с другой — остаётся матово-серебристым, приглушённым. Так же и шёлк: лицевая сторона сияет, переливается, а изнанка — тиха и невидима. Когда ветер треплет листья тополя, их цвет переливается — от зелёного к серебру, как будто ткань природы мягко играет светом.

Тополя нередко растут вдоль дорог, на обочинах — и оттого возникают ассоциации с путниками, босоногими странниками, что идут без цели, ведомые лишь ветром и собственным сердцем.

Эта тема странничества отражена в стихотворении «Без шапки, с лыковой котомкой...» (1916 г.).

Лирический герой - странник «бредет» «под тихий шелест тополей». Здесь странник-человек и странник-дерево перекликаются, дополняют друг друга для достижения большей тонкости в раскрытии темы. В произведениях Есенина тополя тоже знак Родины, как и береза. Прощаясь с домом, уезжая в чужие края, герой грустит о том, что

Уж не будут листвою крылатой

Надо мною звенеть тополя.

("Да ! Теперь решено...", 1922 г.)

В русской народной поэзии ива - символ не только любовной, но и всякой разлуки, горя матерей, расстающихся со своими сыновьями. Иву называют

«плакучей». Образ ивы более однозначен и имеет семантику меланхоличности. В поэзии С. Есенина образ ивы традиционно ассоциируется с грустью, одиночеством, с разлукой. Эта грусть по прошедшей юности, по утере любимого человека, от расставания с родиной.

Например, в стихотворении «Ночь и поле, и крик петухов...» (1917 г.)

Здесь все так же, как было тогда,
Те же реки и те же стада.
Только ивы над красным бугром
Обветшалым трясут подолом.

«Обветшалый подол ив» - прошлое, старое время, то, что очень дорого, но то, что больше никогда не вернется. Разрушенная, исковерканная жизнь народа, страны.

И вызванивают в четки
Ивы - кроткие монашки.
("Край любимый..." , 1914 г.)

В раннем стихотворении «*Край любимый...*» (1914) ивы названы «кроткими монашками», а их движения — «вызванивают в чётки». Здесь ива предстает как смиренный и чистый духовный образ — она словно молится, шепчет молитву. Такое олицетворение говорит о глубокой связи поэта с родной природой, которая воспринимается как святая, сакральная часть мира. Тон этих строк — тихий, благоговейный, созерцательный.

«Так и хочется руки сомкнуть / Над древесными бёдрами ив». Здесь ивы приобретают явно чувственный, почти эротический облик. Их ветви сравниваются с «бедрами» — метафора, полная жизни, движения и скрытого влечения. Это уже не кроткие монашки, а женственные, грациозные существа, которые вызывают в поэте отклик не только душевный, но и физический.

Природа становится объектом желания, она не только духовна, но и телесна. Анализируя стихотворения, в которых звучат образы деревьев, мы всё яснее чувствуем: поэзия Сергея Есенина пронизана ощущением нерасторжимой связи человека с природой. Мир природы для него — неотделим от человеческих мыслей, чувств и судеб. Образ дерева у Есенина несёт ту же символическую нагрузку, что и в народной поэзии: это живое существо, сроднённое с человеком, продолжение его души. Авторский мотив «древесного романа» рождается из глубинной традиции — из древнего тропа, где человек уподобляется растению, дереву, коренится в земле. Описывая природу, поэт незаметно вплетает в неё черты деревенского быта, народных праздников, в которых живая связь с животным и растительным миром ощущается особенно остро. Он словно сплетает два мира — человеческий и природный — в единое целое, в живую ткань, где нет границ. Он часто прибегает к приему олицетворения. Природа — это не застывший пейзажный фон: она горячо реагирует на судьбы людей, события истории. Она — любимый герой поэта.

Список литературы:

1. Буриева М. ОБРАЗ ПРИРОДЫ В ПОЭЗИИ С. ЕСЕНИНА И У. НОСИРА //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 10. – С. 294-298.
2. Буриева М. О. ОБОГАЩЕНИЕ СЛОВАРНОГО ЗАПАСА УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА //Miasto Przyszłości. – 2024. – Т. 44. – С. 623-626.
3. Буриева М., Фатуллаева Н. ФОРМИРОВАНИЕ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2024. – Т. 3. – №. 13. – С. 26-30.
4. Есенин С. Собрание сочинений в трёх томах. – Москва: Правда, 1977.
5. Бузник В.В. Русская советская литература – Москва: Просвещение, 1987.
6. Марченко А. М. Поэтический мир Есенина. - М., 1972.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15235705>

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI BADIY ADABIYOT ORQALI ESTETIK VA NUTQIY KOMPETENSIYALARINI OSHIRISH YO‘LLARI

Yuldasheva Dilafruz Maxamadaliyevna

FarDU o‘qituvchisi, f.f.d (DSc) , dotsent

Abdusamadiy Gulnoza Abiljon qizi

FarDU maktabgacha ta’lim mutaxassisligi

1-kurs magistranti

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy adabiyot orqali estetik va nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishning muhim o‘rni, kompetensiyani oshirish bo‘yicha tavsiyalar va bolalar uchun samaradorligi yoritilgan. Pedagogik jarayonda badiiy asarlardan foydalanish orqali maktabgacha yoshdagi bolaning tasavvuri, tafakkuri, estetik didi va nutqi qanday rivojlanishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha yosh, badiiy adabiyot, nutqiy rivojlanish, ijodiy tafakkur, estetika, kompetensiya, dramatizatsiya.

Hozirgi kunda zamonaviy ta’lim jarayoni insonning har tomonlama rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi qarorining 3-bobida maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishning maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlarining birida maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish kabi vazifalar ham belgilab berilgan.

Darhaqiqat, nozik didli bo‘lish, go‘zallikni fahmlay va qadrlay olish, badiiy va nutqiy madaniyat, so‘zlarni chiroyli qo‘llay olish kabi fazilatlarni rivojlantirishda badiiy adabiyot asosiy vosita sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Badiiy adabiyot bolaning dunyoqarashini kengaytirish, uni axloqiy-me‘yorlar bilan tanishtirish, tasavvurini, tafakkurini boyitishda va rivojlantirishda beqiyos ahamiyatga egadir. Maktabgacha yoshdagi bolalar badiiy asarlarni qabul qilishlarida va tushunishlarida turli holatlar kuzatilishi mumkun. Misol qilib aytadigan bo‘lsak, badiiy asarni o‘qish jarayonida qahramonlarga qayg‘urish va ularga hamdard bo‘lish, shu tufayli bevosita tashqi ifodalangan emotsiyaning kamayishi;

badiiy asar bolaning shaxsiy hayoti emas, balki ko‘proq ertakka o‘xshash bo‘lgani uchun ham uni o‘zgartirishga urunishi;

badiiy asarlar o‘rtasidagi o‘xshashliklarni aniqlashi;

asar qahramoniga xos xislatlarni muhokama qilib, uning yaxshi va yomon jihatlarini tahlil qila olish kabilardir.

Badiiy adabiyot bevosita badiiy tilga suyanadi. Adabiy asarni yaxshi yozish uchun badiiy uslubga yaxshi e‘tibor berish kerak. Alisher Navoiy “Mahbub-ul qulub” da tilni “ko‘ngil xazinasining qulfi”, deya ta’riflaydi. Buyuk shoir kishilarni qisqa va mazmunli, chuqur mantiq bilan so‘zlashga chaqiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mo‘ljallangan badiiy asarlar qiziqarli, o‘ziga jalb etuvchi, ravon tilda va albatta mazmundor bo‘lishi muhimdir. Ravon til bilan yozilgan badiiy asarlar bolalarning nutqiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi, so‘z boyligini oshiradi. Shuningdek, badiiy asarlar bolaning estetik kompetensiyalarini shakllantirib, keyingi o‘qish va shaxsiy rivojlanishiga tayyorgarligini ta’minlaydigan madaniyatning tarkibiy qismidir. Shu jumladan nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar va shaxsiy fazilatlar to‘plamini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun muhim ahamiyatga ega kelajakdagi hayot faoliyatidir.

Shuningdek, badiiy adabiyot bolalarning estetik kompetensiyasini shakllantirishda ham muhim vazifani bajaradi. Bola she’rni yod olganda, u ohangni, ritmni va tovushlar uyg‘unligini sezadi, bu esa bolaning estetik didini shakllantiradi.

Estetikaga to'xtaladigan bo'lsak, "Estetika" atamasini birinchi bo'lib buyuk olmon faylasufi Aleksandr Baumgarten ilmiy muomilaga kiritgan. Baumgarten estetikani hissiy idrok etish nazariyasi sifatida olib qaradi. Hegel esa o'z ma'ruzalarining birida quyidagicha yozgan edi : *"Estetika" degan nom muvaffaqiyatsiz chiqdi va yuzaki ekani sababli boshqa atama qo'llashga urinishlar bo'ldi. So'zning o'z-o'zicha bizni qiziqitirmasligini nazarda tutib, biz "estetika" nomini saqlab qolishga tayyormiz, buning ustiga, u odatiy nutqqa singishib ketgan...*

Ko'rinib turibdiki estetika go'zallikni tushunish, ijodiy rivojlanish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bola ijodiy jarayonlarning barchasida o'z estetik didini shakllantirib boradi.

-tasviriy san'at bilan bog'lash: o'qilgan badiiy asarga rasm chizish orqali bolaning estetik idroki kuchayadi.

-rolli o'yinlar va dramatizatsiya: ertak yoki hikoyani rollarga bo'lib ijro etish ham bolalarning tasavvurini va obrazli fikrlashini rivojlantiradi.

Bola rivojlanib borar ekan, ular o'zlarini aniq va ishonchli ifoda eta olishlari uchun ularning nutq, muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish muhim. Shu o'rinda bolalar badiiy adabiyoti bolalarni har tomonlama rivojlantirishning qudratli vositasi bo'lib xizmat qiladi, u bolalar nutqini rivojlantirish va boyitishga ulkan ta'sir ko'rsatadi.

Bolalar kitoblari she'riy obrazlarda bolaga jamiyat va tabiat hayotini, insoniy his-tuyg'ular va munosabatlar dunyosini ochib beradi hamda tushuntiradi. Badiiy so'z bola nutqini boyitadi, uni obrazli, ifodali qiladi, ona nutqining go'zalligini anglashga yordam beradi.

Badiiy adabiyot orqali nutqiy kompetensiyalarni oshirish usullarini bo'yicha quyidagi tavsiyalarni keltiramiz.

- og'zaki muloqot(hikoyalarni aytib berish va nutq so'zlash):

bu intonatsiyalar va tembrlarni o'z ichiga olgan so'zlarni bir-biri bilan almashish jarayonidir. Bu jarayonda ota-onalar bolalariga uyqudan avval hikoyalar, ertaklar aytib berish yoki nutq so'zlashda yuzaga chiqadi. Bunda bolalar so'z boyligi oshadi va to'g'ri talaffuz qilish shakllanadi.

- she'rlarni yod olish va ularni harakatlar bilan ifodalash:

ertak qahramonlarining nutqini dramatzatsiya qilish orqali ularni jonlantirish

- savol javob usuli:

asardan keyin savol berish bolaning fikrlash va ifoda qilish qobiliyatini kuchaytiradi.

- matnni qayta hikoya qilish:

bola eshitgan asarni o'z tili bilan qayta hikoya qilib berish orqali og'zaki nutqini mashq qiladi.

so'z boyligini oshirish: badiiy matnlarda, asarlarda uchraydigan yangi so'zlar bilan tanishish va ularni nutqda qo'llash orqali lug'at boyiydi.

Bundan tashqari "Ertakni davom ettir" o'yinida bolaning ijodiy fikrlashi rivojlanadi, tasavvuri kengayadi. "Qahramon tanlash" esa bolaning estetik tanlov qilish qobiliyatini mustahkamlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning estetik kompetentsiyasini rivojlantirishning nazariy va uslubiy apparati yetarlicha ishlab chiqilmagan. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va pedagogik tajribani umumlashtirish asosida biz quyidagi yondashuvlarni tanladik va birlashtirdik: umumiy ilmiy darajada - ko'p madaniyatli yondashuv; xususan- ilmiy darajada - poliartistik yondashuv; uslubiy va texnologik daraja – ishtirokchi yondashuv. Ko'p madaniyatli yondashuv J.Banks, K.Grant, O.V.Gukalenko, N.V.Kuzmina, I.L.Suprunova, P.Yang va boshqalarning ishlarida ko'rib chiqilgan. Badiiy adabiyot bolalarni har tomonlama tarbiyalashning asosiy vositasi bo'lib, u ular nutqiy va estetik kompetensiyalarini rivojlantirish va boyitishga ulkan hissa qo'shadi. Badiiy adabiyot orqali bola go'zallikni anglashi, so'z boyligini oshirishi, fikrni ifoda etish ko'nikmalarini shakllantiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni dastlab badiiy adabiyot bilan tanishtirishni ularning yosh imkoniyatlari, nutqiy rivojlanish va adabiy asarlarni qabul qila olish darajasini hisobga olgan holda amalga oshirish zarurdir. Shunday ekan, pedagoglar bolalarga tarbiyaviy va didaktik vosita sifatida badiiy adabiyotdan keng foydalanib, faol qo'llashlari lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi qarori.
2. Mamasoli Jumaboyev, O'zbek va chet el bolalar adabiyoti. 2002.
3. Шишова, О.А. Художественное воспитание детей в учреждениях дополнительного образования (на материале школ искусств): автореф. дис.... канд. пед. наук / О.А. Шишова. - М.: Моск. гос. открыткй пед. ун-т, 2000. – 239с.
4. Georg Vilgelm Fridrix Gegel, " Estetika bo'yicha ma'ruzalar"
5. F.R.Qodirova. R.M. Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi" .Toshkent., "Istiqlol". 2006
6. G.A. Abdusamadiy. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI BADIY ADABIYOT ORQALI ESTETIK KOMPETENTSIYASINI SHAKLLANTIRISH MASALASI. *PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA IJTIMOY TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(12)
<https://mudarrisziyo.uz/index.php/pedagogika/article/view/1848>
7. D.R. Babayeva "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi" .Toshkent. 2018

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15235719>

KIBERBULLING HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA

Mamayusupova Sabohat Baxodirovna

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va
psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi
metodisti

gmail: markovermars71@gmail.com

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada ta'lim muassasalarida o'quvchilar orasida zo'ravonlik holatlarining ko'payib borayotgani jiddiy muammoga aylanmoqda. Zo'ravonlik – bu nafaqat jismoniy zarar yetkazish, balki inson psixologiyasiga salbiy ta'sir etuvchi, uning ijtimoiy moslashuviga to'siq bo'luvchi omillar hamda ularning kelib chiqish sabablari, ijtimoiy-psixologik oqibatlari ushbu holatlarni bartaraf etishning samarali usullari tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** Kiberbulling, internet, nishon, g'azablan, fenomen, zo'ravonlik, ta'lim muassasasi, psixologik salomatlik, profilaktika, ijtimoiy muhit, huquqbuzarlik, empatiya, muomala madaniyati.*

Kirish

So'nggi yillarda internet va ijtimoiy tarmoqlarning hayotimizga keng kirib kelishi bilan yangi turdagi zo'ravonlik, ya'ni **kiberbullying** muammosi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Kiberbullying — bu odamning onlayn muhiti orqali boshqalarini haqoratlash, ular bilan munosabatlarni buzish yoki psixologik zarar yetkazishdir. Ushbu fenomen yoshlar orasida tez tarqalib, ularning ruhiy salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Kiberbullyingning boshqa zo'ravonlik shakllaridan farqi shundaki, bu turdagi zo'ravonlik odamlarni yuzma-yuz muloqotda emas, balki elektron tarmoqlarda,

masalan, ijtimoiy tarmoqlarda, forumlarda yoki onlayn o'yinlarda amalga oshiriladi. Kiberbullying, ayniqsa, yoshlar orasida o'zini ifoda etish va ijtimoiy aloqalar qurishda qiyinchiliklarga olib keladi. Bunday holat o'quvchilarda depressiya, o'z-o'zini past baholash, ijtimoiy izolyatsiya va o'z joniga qasd qilish kabi salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Bu maqolada kiberbullyingning mohiyati, uning sabablari, oqibatlari va unga qarshi kurashish usullari haqida so'z yuritamiz. Kiberbullyingni oldini olish va unga qarshi samarali choralar ko'rish, ayniqsa, yoshlarning ruhiy va ijtimoiy xavfsizligini ta'minlash uchun muhimdir.

Asosiy qisim:

Avvalo Kiberbullying: Internet hujumi nima? Degan savolga qisqacha to'xtalib o'tsak. Kiberbullying deb raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshiriladigan zo'ravonlikka aytiladi. Bu ijtimoiy media, xabar almashish platformalari, o'yin platformalari, internet tarmoqlari va mobil telefonlarda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan jarayon hisoblanadi. Bu xatti-harakatlar, nishonga olinganlarni qo'rqitish, g'azablantirish yoki sharmanda qilishga qaratilgan bo'ladi.

Kiberbullying — bu internet yoki boshqa elektron vositalar orqali amalga oshiriladigan psixologik zo'ravonlikdir. Unda odamlar ijtimoiy tarmoqlar, elektron pochta, xabar almashish platformalari yoki hatto o'yinlar orqali bir-biriga tahdid qiladilar, xaqorat qiladilar yoki mazax qiladilar. Kiberbullying maktab o'quvchilari va ularning ota-onalari uchun dolzarb va ahamiyatli mavzu hisoblanadi, chunki internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish o'sib borayotgani sababli zo'ravonlikning bu turi jadal sur'atlar bilan ommalashib bormoqda. Bu holat o'quvchilarning ruhiy holatiga va ularning ta'lim olish jarayoniga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli kiberbullying haqida bilish va unga qarshi kurashish bo'yicha bilimlarni oshirish o'quvchilar va ularning ota-onalari uchun muhimdir.

Kiberbullyingni kelib chiqish tarixiga nazar soladigan bo'lsak: Zamonaviy dunyoda axborot jamiyat taraqqiyotining eng muhim tarkibiy qismiga aylandi desak mubolag'a bo'lmaydi. Jamiyatning axborot jamiyatiga aylanishi shuni anglatadiki, har

qanday shaxsiy ma'lumot ahamiyatli bo'lib bormoqda. Axborot chegara tanlamaydigan, virtual to'siqlarni tan olmaydigan shunday bir davrda kiberjinoyatchilik global tusdagi, chegara bilmas muammoga aylanib ulgurdi. Kiber zo'ravonlik yangi tushuncha bo'lsa-da allaqachon ko'plab davlatlar iqtisodiyotiga kirib bordi va zarar yetkazib ulgurdi desak xato bo'lmaydi.

Takidlab o'tish kerakki, kompyuter jinoyat paytida maqsadli yo'naltirilgan qurol vazifasini bajarib beradi. Kiberjinoyat kimningdir xavfsizligi va moliyaviy saviyasiga zarar yetkazish maqsadida sodir etiladi. Ana shunday kiberjinoyatlardan biri 1971-yilda sodir etilgan birinchi "elektron jinoyat" edi. Bu rasmiy qayd etilgan birinchi "elektron jinoyat" hisoblanadi. Mutahassislarning fikricha: "Kiber-xavfsizlik XXI asrning eng dolzarb muammolaridan biridir. Kiberjinoyat tarixi barchamizni tashvishga solayotgan eng so'nggi tarixlardan hisoblanadi. Hozirgi vaqtda kiber zo'ravonlik muammosi jahon hamjamiyati miqyosigacha o'sib borayotganligi bizga sir emas.

Kiberbullingga misollar keltiradigan bo'lsak: 1. Xaqoratlash va tahqirlash:

ijtimoiy tarmoqlarda kimdir haqida yolg'on ma'lumotni tarqatish yoki kimnidir xijolatli fotosuratlarini joylashtirish;

-elektron pochta yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali odamlarni mazax qilish, ularning sha'nini to'kish.

-xabar almashish platformalari orqali zararli xabarlar yoki tahdidlar yuborish;

2. Yashirin tarzda kuzatish: Boshqa shaxslarning shaxsiy ma'lumotlarini to'plash va ulardan tahdid qilish yoki qo'rqitish maqsadida foydalanish;

-kimningdir tomonidan ish qilish va ularning nomidan boshqalarga haqoratlaydigan xabarlar yuborish;

3. Bosim o'tqizish uchun tahdid qilish: Qo'rqitish yoki sharmanda qilish uchun shaxsiy yoki yolg'on ma'lumotlar tarqatish, yana bir ko'rinishi — kiberbulling qiluvchi shaxs o'zini boshqa odam sifatida ko'rsatish va yolg'on yo'l bilan boshqa shaxslarni firibgarlik yo'li bilan zararlash;

Kiberbulling raqamli iz qoldiradi, bu foydali bo'lishi bilan birga, tahqirlashni to'xtatish uchun dalillar keltirishi mumkin bo'lgan yozuvlardir.

Kiberbulling korreksiyasi haqida pedagoglarga tavsiyalar: Pedagoglarga kiberbulling korreksiyasi va uning turlari bo'yicha quyidagi tavsiyalarni berishim mumkin:

- o'quvchilarga kiberbulling haqida ochiq muloqot olib borish imkonini bering. Ularni his-tuyg'ulari va tajribalari bilan bo'lishishga undang;
- kiberbullingning ta'siri, turlari va oqibatlari haqida darslar o'tkazing. O'quvchilarga kiberbullingni aniqlash va unga qarshi kurashish usullarini o'rgating;
- sinfdagi ijtimoiy muhitni diqqat bilan kuzatib boring;
- o'quvchilarga internetda ijobiy xulq-atvor ko'rsatish, boshqalar bilan hurmatli muloqot qilishni o'rgating;
- o'quvchilarga shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish va xavfsiz onlayn muomala qoidalarini tushuntirib boring;
- o'quvchilarni jamoaviy bir-birlari bilan ishlashga undang. Bu ularning do'stlik aloqalarini kuchaytiradi;

Ushbu yuqorida keltirib o'tilgan tavsiyalar pedagoglarga kiberbullingni aniqlash, oldini olish va unga mos ravishda choralar ko'rishda yordamingizni ayamang.

Kiberbulling korreksiyasi haqida ota-onalarga tavsiyalar: Kiberbullingga samarali choralarini ko'rish uchun ota-onalar va o'qituvchilar tomonidan diqqat bilan munosabat bildirilishi zarur bo'ladi. Quyidagi tavsiyalar ota-onalar va o'quvchilar uchun muhim qadam bo'lishi mumkin. Kiberbulling profilaktikasida ota-onalarning ishtiroki muhimdir. Ular o'z bolalarining internetdan foydalanish odatlari va kimlar bilan muloqot qilayotganliklarini kuzatib turishlari kerak. Bunda quyidagi ishlar amalga oshirilishi mumkin:

- **Ota-onalar uchun seminarlar:** Ota-onalarni internet xavfsizligi va kiberbulling haqida xabardor qilish, bolalarini qanday himoya qilish kerakligi haqida maslahatlar berish;

• **Ijtimoiy tarmoqlarda kuzatuv:** Ota-onalar bolalarining ijtimoiy tarmoqlarda qanday kontent bilan tanishib, kimlar bilan muloqot qilayotganliklarini bilishlari kerak. Shuningdek, bolalarga internetdagi shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish muhimligini o'rgatishlari lozim.

• **Farzandingizni qo'llab-quvvatlang:** Agar farzandingiz kiberbullingga duch kelgan bo'lsa, uni qo'llab-quvvatlash muhimdir. Bu holatda ularni jazolash yoki ayblash o'rniga, yordam berishga intiling.

• **Kiberbullingni hujjatlashtiring:** Agar farzandingiz kiberbulling qurboni bo'lsa, barcha tahdidli xabarlar yoki tahqirlovchi kontentni saqlab qo'ying. Bu materiallar kerak bo'lsa, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yoki maktab ma'muriyatiga taqdim etilishi mumkin.

• **Mutasaddilar bilan hamkorlik qiling:** Maktab ma'muriyati, o'qituvchilar yoki psixologlar bilan maslahatlashing. Ularning yordami bilan muammoni hal qilishga harakat qiling.

Xulosa

Xulosa o'rnida sizga tavsiya, kiberbulling nafaqat o'quvchilarning ruhiy holatiga, balki ularning hayotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shunday ekan, bu masalaga jiddiy e'tibor qaratish va uning oldini olish uchun zarur choralarni ko'rish kerak. Ota-onalar, o'qituvchilar va o'quvchilar birgalikda ishlashlari va kiberbullingni oldini olish choralari ko'rishlari kerak. Agar siz kiberbullinga duch kelayotgan bolaga yordam berishni xohlasangiz, ularni tinglash, qo'llab-quvvatlash va zarur bo'lsa, mutaxassisga murojaat qilish orqali muammolarga yechim topish mumkinligini tushuntirib borish juda muhimdir. Yana bir tavsiya, Raspublika Tashxis Markazi tomonidan ishlab chiqilgan "Vertual zo'ravonlik" hamda "Vertual zo'ravonlik oqibatlari va ularni oldini olish" mavzularidagi video roliklarni o'quvchilarga qo'yib berish orqali kiberbulling haqida tushuncha olishlariga yordam berishingiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yuldoshev, U. (2022). “Yoshlar va kiberbullying: Muammolar va yechimlar”. – Ijtimoiy pedagogika va psixologiya ilmiy tadqiqotlari.
2. Mirmuhammedov, A. (2020). “Kiberbullying va internet xavfsizligi”. – Internet va yoshlar jurnali.
3. Shodiev, B. (2021). “Kiberbullyingning ta’siri va uning yoshlar orasidagi tarqalishi”. – Psixologiya va ta’lim jurnali.
4. Ziyonet.uz
5. Armat.uz

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15235725>

**SOME REMARKS ON UZBEKISTAN INTELLECTUALS AND THEIR
ACTIVITIES IN AFGHANISTAN (SECOND HALF OF THE 20TH
CENTURY - BEGINNING OF THE 21ST CENTURY)**

Norkuchkarov Khushvakt Eshnazarovich

Termez State University of Engineering and Agrarian Technologies

Teacher of the Department of Social and Humanitarian Sciences

E-mail: xushvaqt.norqochqarov@mail.ru

ANNOTATION:

The article reveals the Uzbek intellectuals in Afghanistan from the second half of the 20th century to the beginning of the 21st century, their place in Afghan society, and how immigrant Uzbeks in Afghanistan, despite all the difficulties, became intellectuals and scholars. We witness their becoming members of the Afghan Academy of Sciences, and even occupying important positions in prestigious educational institutions of the world thanks to their knowledge and work.

Keywords: *Afghanistan, Uzbeks, region, immigrant Uzbeks, Afghan Academy of Sciences, intellectuals, scholars.*

INTRODUCTION. After gaining independence, Uzbekistan followed a path based on equality, peace and harmony in its foreign policy, and this aspect has reached a new level today, especially since our relations with neighboring countries have been further strengthened, and socio-cultural relations between our peoples are developing. This means that we are peoples who have historically shared customs and traditions, language, religion and beliefs in one region and one place, and are connected by

kinship, lineage and ancestral ties. In studying history, one people living in this region cannot be studied in isolation from another.

At a time when all aspects of the history of Uzbekistan are being deeply studied by our historians and scholars, we can see the history of the peoples living in neighboring regions, in particular the Uzbeks, as a part of this history that needs to be supplemented. In this regard, especially today, the largest number of Uzbeks living outside Uzbekistan lives in Afghanistan. The majority of them have historically lived in this region, led a similar lifestyle on both sides of the Amu Darya, and established strong ties. However, in the following turbulent times, we can see that their number has increased further due to the Uzbeks who settled in this region under the influence of various socio-political processes.

In science, we can say that the term “Afghan Uzbeks” was formed in terms of a territorial unit specific to the neighboring country.

Studying the similarities and peculiarities of the ethnic composition, lifestyle, culture, customs, language, and social structure of Uzbeks living in Afghanistan is a pressing issue. The article focuses on the activities of Uzbek intellectuals in Afghanistan, one of these aspects, and their place in Afghan society.

MATERIALS AND METHODS. The article is based on the generally accepted historical methods in the study of history - historicism, logic, comparative analysis, consistency and objectivity, and briefly reviews the activities of Uzbek intellectuals in Afghanistan and analyzes them from a scientific, comparative and logical perspective. Although this aspect has not been studied as a separate research work, we can find information about this in the works of N. Nazarov, who is considered the main source on Afghan Uzbeks, in the works of the scientist Sh. Khayitov, who conducted in-depth research on the history of Uzbek emigrants in Uzbek historiography, its causes and consequences, in the works of Uzbek researchers A. Ismailov and A. Tashkin, who conducted brief analyses of the location of Uzbeks in world geography and the share of Turkic-speaking peoples in neighboring Afghanistan in the country's population, as well as in a number of other archival materials, articles and Internet information.

DISCUSSION AND RESULTS. Uzbekistan, as a constant supporter of peace in neighboring Afghanistan, has always promoted peace initiatives and drawn the attention of the world community to the conflicts in this region. One such initiative is the international conference on “Peace Process, Security Cooperation and Regional Partnership” held in Tashkent in the spring of 2018. At this conference, our President Sh.M. Mirziyoyev emphasized that “great figures of the Central Asian Renaissance such as Abu Raykhan Beruni, Lutfi, Alisher Navoi, Kamoliddin Behzod, Zakhiriddin Muhammed Babur, Boborakhim Mashrab, and many other great ancestors of ours lived and worked on Afghan soil... Today, close political, trade-economic, and cultural-humanitarian ties have been established between Uzbekistan and Afghanistan. Millions of Uzbeks live in Afghanistan.”[1] - this is evidence that the history, language, and culture of the Uzbeks in this region have a common root. It is also an example of the equal value of these great figures for the peoples on both sides of the river.

Since ancient times, Central Asia has produced many great scholars and scientific geniuses who have made a great contribution to world science and culture, such as Musa Al-Khwarizmi, Ahmad Al-Farghari, Abu Nasr Al-Farabi, Abu Rayhan Beruni, Ibn Sina, Mahmud Az-Zamakhshari, Mirzo Ulugbek, Alisher Navoi, Imam Bukhari, Imam Termizi, Ahmad Yassawi, Bahauddin Naqshbandi, Najmiddin Kubro. Their works in the fields of mathematics, astronomy, geography, philosophy, logic, medicine, and religious sciences are still studied by people all over the world as basic reference books. In order to become worthy successors to them, many scientists who created scientific innovations have also emerged from among the Uzbeks of Afghanistan.

In the 70s and 80s of the 20th century, a generation of highly educated intellectuals and scientists in the fields of philology, philosophy, law, medicine, and economics was raised in various countries from among the Uzbek emigrants and their children. One of such scientists is the famous anthropologist, Professor Muhib Zarif Shahrani, whose father, Haji Karim ugli and mother, Zebuniso Naim qiz, were originally from Andijan, and who was born in Afghanistan in 1945. Muhib Nazif

defended his doctoral dissertation on the topic “Kyrgyz and Revelations in Afghanistan” at the University of Washington in Seattle (USA) in 1976. He participated in archaeological excavations in Afghanistan, Pakistan, Turkey, and the USA. He taught students at Washington, Harvard Universities, and Pitzer College on the subject of “Central Asian Anthropology.” From 1985 to 1990, he served as a full professor (the highest, sixth-highest rank of professorship in the United States) at the Institute of Anthropology and Middle Eastern Studies at the University of California, Berkeley. In 1990, he moved to Columbia University. Hamdi published dozens of scientific articles about the leader of the Kyrgyz emigrants, Rakhmon Qulikhan (1900-1986), in praise of his research, such as "Kyrgyz and Revelations in Afghanistan" (1979), "Revolutions and Uprisings in Afghanistan" (1984), "The Gradual Growth of Self-Consciousness in the Muslim Soviet Republics of Central Asia" (1985), and "Islamic Teachings and Social Neutrality in Modern Afghanistan and Turkestan" (1991). He considers himself a descendant of Zahiriddin Muhammad Babur (1483-1530)[2, pp. 119-120].

Our compatriot Mubashshirkhan Salman Kasani, who moved from Afghanistan to Saudi Arabia, published a three-volume book “History of Central Asia” in Uzbek language and Arabic script. He went from the city of Akhba, where he lived, to Medina, and had the historical book printed at the printing house affiliated with Abdulkadir Margilani’s “Maktabi Iman” library[3, P.81-82].

The Afghan Academy of Sciences was established in the 1980s, The last election to the Academy of Sciences was held in 1986, and eight Academicians and 32 corresponding members were elected. Yakuv Vahidi was elected as a corresponding member from the Uzbeks[4, P.46-47].

Also, the dissertation of the Afghan Uzbek Fayzullo Aimok on the topic “Folk Songs of the Uzbeks of Afghanistan” is the first high-level scientific work on the study of the folklore of the Uzbeks of Afghanistan.

Uzbek poet Shafiqa Yarqin, who worked at the Department of Uzbek Language and Literature of the Afghan Academy of Sciences, prepared for publication the poetry

collections "Bobur's Poetical Library" and "Babur's Armugon" in honor of the 460th anniversary of Babur's "Baburnoma" (1990). Before the 550th anniversary of Alisher Navoi (1991), Shafiqa Yarqin, together with the head of this department, an Afghan scholar (Uzbek from Juzjan), Professor Muhammad Yakub Vahidi, prepared for publication the writer's works "Muhakamatul Lughatain", "Me'zonul-Awzon", and "Waqfiya" [5, P.25].

In recent years, we can mention several Uzbek poets who have conducted scientific innovations in the field of Uzbek language and literature, created textbooks for Uzbek students in schools, and conducted scientific research on the Uzbek language and literature within the Afghan Academy of Sciences, and published collections of poetry in Uzbek: Salam Asim, Fayzullo Qardosh, Matin Andhoyi, and others [6, P.13-14].

At this point, we should note that the Uzbek intelligentsia in Afghanistan can be divided into two groups: local indigenous Uzbek intelligentsia and Uzbek intelligentsia who, for various reasons, migrated from Turkestan to Afghanistan as immigrants. In addition, we can see that among the Uzbeks who migrated to this region, most did not live long in this region and continued to emigrate to other Islamic-Arab or Western countries. This feature is especially noticeable among those who emigrated.

CONCLUSION. In conclusion, we can say that no matter how complicated and difficult the situation in Afghanistan is, or how they suffer from emigration and statelessness, we can see that the Uzbek people's blood never fades, and that with their knowledge and hard work, they can follow in the footsteps of their great ancestors and show that they can be intelligent, knowledgeable, and enlightened in any situation.

REFERENCES

1. Mirziyoev Sh.M. Shpeech of the International Coference on Afghanistan “Peace Process, Security Cooperation and regional Partnership” // Khalk Suzi newspaper, No.59-60 (7017-7018), march 28, 2018
2. Khaitov Sh. History of Uzbek Immigration (1917-1991). – Tashkent, “ABU Press Consalting”. – 2008. – 207 pages.
3. Khaitov Sh.A., Saidov I.M. History and Etnography of Uzbeks Abroad. Moography. – Samarkand, “MEHRIBON-POLIGRAPH SERVIS”, 2015. – 159 pages
4. N.Nazarov. Uzbeks of Afghanistan. – Tashkent, 2011.
5. Khaitov Sh.A., Badriddinov S. Having said their homeland, they were left whithout a homeland. – Bukhara. Bukhara Pulishing House, 2005. – S.159.
6. Ismailov A., Toshkin A. The Turkic Languges Situation in Afghanistan // Magazine “The Torch of the East”, 2005, No. 1. –P. 12-16.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15235738>

THE IDEOLOGICAL VIEWS OF THE JADIDS ARE TRANSFORMING INTO PRACTICAL LIFE IN NEW UZBEKISTAN

Mamatraimov Komil Mamatmurod o'g'li

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

Tarix fani assistent-o'qituvchisi

ANNOTATION.

This article focuses on the activities of the Jadids and their views on the issues of educating a harmoniously developed generation, on the fact that the Jadids of Turkestan promoted the idea of freeing the people from backwardness and religious prejudice, creating an independent state where free thinking prevails, spreading enlightenment to the people, and achieving national autonomy. At the same time, it is said that the reforms being carried out today in New Uzbekistan coincide with the ideological views of the Jadids, and the ideas they conceived are becoming a practical process.

Keywords: *Jadid, ideological processes, enlightenment, Jadid method, national uprising, press, national idea, reforms being implemented in "New Uzbekistan" and practical expression of "Jadids'" ideas.*

ENTRANCE.

Changes in each society manifest themselves based on the historical conditions of its time. Historical figures, especially the intelligentsia, played a significant role in these changes, and each of them put forward their own progressive ideas. Intellectuals try to find ways to solve socio-economic problems in society. A similar process occurred in the second half of the 19th century in Crimea, Transcaucasia, Turkestan,

the Bukhara Emirate, which became a protectorate, and the Khiva Khanate, which were part of the Russian Empire. In the second half of the 19th century, intellectuals under colonial oppression began actions aimed at enlightening their peoples and raising their level of development. The term "Jadid" translated from Arabic means "New."

This term first appeared among the Turkic peoples during the reign of the Ottoman Turkish ruler Sultan Selim III. Abubakr Ratib Efendi, who was sent as an ambassador to the Austrian state, in his letters to the sultan, explains to the sultan that the system of administration he saw there is "Nizami jadid." The positive aspect of this system was that the development of society determined the progress of the country, determined the level of the state in political activity. "Nizami jadid" envisioned the Europeanization of the administrative system, in a broad sense, the modernization of science, education, industry, and agriculture.

At the end of the 19th century, the enormous cultural-educational, socio-political changes taking place in world civilization, new relations, in one way or another, began to penetrate the Turkestan region. The Jadids, under the influence of the "Ghanch (Young) Turks" organizations in the Ottoman Turkish state, formed a Jadid organization in the Turkestan region under the names "Young Bukharans," "Young Khivans," and "Young Turkestanis."

DISCUSSION AND RESULTS.

If the initial activity of the Jadid movement began in school and education, then in the period of its subsequent activity it moved to the sphere of press, art, and politics. Ismail Gasprinsky (1851-1914) founded the Jadid movement in Russia and its colonies. In 1884, he opened the first "usuli jadid" (new method) school in Bakhchisaray, Crimea. Having deeply mastered religious and secular knowledge, he became closely acquainted with world development, studied several foreign languages and the culture of different peoples. Ismail Gasprinsky's greatest contribution was to introduce and bring closer to each other the Turkic peoples living within the borders of Russia, but who, due to the circumstances of the time, had become distant and estranged from each other.

Jadidism, which entered the sphere of social life of Turkestan as a cultural and educational movement and set itself the goal of reforming the old school, was formed as a broad social movement. By the end of the 19th and the beginning of the 20th centuries, the national awakening, reflecting the views of the most progressive thinkers of society, manifested itself as a certain ideology, primarily in the Enlightenment. The Jadids were determined to form a social and national consciousness of the entire Turkestan people to initially fight against colonial rule. They believed that the main path to liberating the region from backwardness and oppression lay primarily in the cultural and educational direction, and by opening new-method schools, they sought to redirect the people to a new socio-cultural course. To awaken the nation and encourage its progress, the Jadid enlighteners began by establishing a newspaper. Through printed publications such as "Tarjimon," "Oyina," "Taraqqiy," "Sadoyi Turkiston," "Sadoyi Farg'ona," "Najot," "Hurriyat," "Al-isloh," they strived to bring life-giving ideas such as national independence, freedom, and enlightenment to the people. If we pay attention to the views of the Jadid enlighteners, most of them paid serious attention to the proper organization of upbringing in the family. As the great Jadid enlightener Abdurauf Fitrat noted: "Parents should seriously engage in the upbringing of their child, but parents engaged in child-rearing must, first of all, have certain knowledge about the upbringing of their child, both of them must perfectly fulfill their duties, their parental duty, so that they raise the child physically, mentally, and morally, and bring them to life with strong, intelligent, and good morals".

The above-mentioned ideas of our Jadid ancestors are becoming practical results in New Uzbekistan under the leadership of our respected President Shavkat Mirziyoyev. The Head of State announced his decision to award the Order "For Great Services" to the Jadids Abdulla Avloni, Mahmudkhoja Behbudi, and Munavvarkori Abdurashidkhanov, who were executed by the Soviets at the celebration on October 1st, Teacher and Mentor Day. He gave instructions to create a "Collection of Jadids" dedicated to the memory of our patriotic Jadids, especially mentioning the names of Mahmudkhoja Behbudi, Munavvar qori Abdurashidkhanov, Abdurauf Fitrat, Abdulla

Qodiriy, Abdulhamid Cholpon, Abdulla Avloniy, Is'hoqxon To'ra, and G'ulom Zafariy, and ensured the implementation of the resolution in a short time.

RESULT.

In this process, drawing conclusions from the historical past of our country, under the leadership of our esteemed President Shavkat Mirziyoyev, our reforms aimed at building a just, free, and prosperous society, a people's state, and a prosperous life in New Uzbekistan are in harmony with the noble ideas and programs of our Jadid forefathers. The ideological-political, socio-educational, and legal-moral views put forward by our great enlightened ancestors, along with establishing the principles of tolerance and harmony between different nations and ethnic groups, and their aspirations to protect national interests, serve as a true example for all of us, especially our youth, in today's complex times.

Currently, the widespread promotion of innovative and creative achievements and a worthy response to the intensifying competition on a global scale through the spiritual heritage left by our ancestors is becoming a priority in our daily activities as a strategic task. Therefore, the spiritual heritage created by our ancestors fills us, the descendants, with pride in the upbringing of the younger generation and means that love for the Motherland in the hearts of people is the highest value. The invaluable didactic heritage created by our ancestors serves as an important factor in the education and upbringing of youth. Today, the harmonization of the educational methods created by them with advanced foreign experience and their effective use in the educational process, in turn, allows achieving the expected effectiveness in the educational process.

REFERENCES USED.

1. Jo‘rayev N. O‘zbekiston tarixi: (Turkiston Chorizm mustamlakachligi davrida). 1-kitob. –T.: Sharq. 2011-yil.
2. X.Ziyayev. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. T., “Sharq”, 1998.
3. X.Sodiqov va boshqalar. O‘zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. T., “Sharq”, 2000.
2. угли Маматраимов, К. М. (2024). ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ ЗНАНИЙ «ИСТОРИИ ПОЛИТИКО-ПРАВОВЫХ ПРОЦЕССОВ НЕЗАВИСИМОГО УЗБЕКИСТАНА» У СТУДЕНТОВ НЕСПЕЦИАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ. *GOLDEN BRAIN*, 2(11), 64-70.
3. Mamatraimov, K. (2023). OCHIQLIK, OSHKORALIK VA KO‘P TOMONLAMA HAMKORLIK O‘ZBEKISTON TASHQI SIYOSATINING USTUVOR YO‘NALISHI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(12), 391-396.
4. Mamatraimov, K. M. (2023). O‘ZBEKISTON VA XITOIY XALQ RESPUBLIKASI: TARAQQIYOT YO‘LIDAGI HAMKORLIK. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4), 87-90.
5. Mamatraimov, K. M. (2024). SUSTAINABLE DEVELOPMENT STRATEGIES IN POLITICAL AND LEGAL PROCESSES OF UZBEKISTAN ARE SERVING THE DEVELOPMENT OF THE COUNTRY. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*.

INTERNET SAYTLARI.

- 1.www.xs.uz
- 2.<https://www.gazeta.uz>
- 3.<https://nauchniy.impuls.ru>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15235807>

SHUHRATNING "OLTIN ZANGLAMAS" ASARI G'UYAVIY BADIY XUSUSIYATLARI

Ma'mirova Farangiz

Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti

O'zbek tili va adabiyoti fakultetining 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: JDPU o'qituvchisi **Jo'rayev Shukrullo**

Annotatsiya: Shuhratning "Oltin zanglamas" asarida insonparvarlik, sadoqat kabi hislatlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Shuhratning bu asari badiiy ko'lamliligi bilan, kitobxonni qiziqtirib qo'yadi. Asarda irodasi mustahkam, qalbi metindek pok insonlar nima bo'lishidan qat'iy nazar o'zligidan kechmasligi, ya'ni asl oltin zanglamasligi ifodalangan.

Kalit so'zlar: Insonparvarlik, vatanga muhabbat, sadoqat, haqiqat, inson, badiiy, ikkinchi jahon urishi, front, iroda, or-nomus, Sodiq, sotqin, nafrat.

Kirish: Har bir inson badiiy asar o'qir ekan, hammada har hil tushunchalar, o'y-kechinmalar paydo bo'ladi. Badiiy asarda muallif kitobxonning dunyo qarashini inobatga olib yozsa, kitobxon ham asarda muallif nima demoqchi ekanligini o'ylab o'qisa, asarga yuzaki yondashmay, o'zini asar ichida tasavvur etib o'qisa, tahlil maqsadga muvoq ravishda bo'ladi. Har bir kitobxon asarni o'z dunyo qarashidan kelib chiqib tahlil qiladi, xulosa chiqaradi.

Asosiy qism: Shuhratning "Oltin zanglamas" asarini o'qir ekanmiz, asardagi Sodiq obrazi hammani e'tiborini tortadi. Asar qahramoni bo'lgan Sodiq har sohada mukammal shaxs bo'lib tasvirlangan. "Tirnoqqa zor oila" asarning bu joyida Sodiqning

sabirliligini ko'rish mumkin. "Dunyoda befarzandlikdan yomon narsa bormi?" deb yozadi adib. "Ayol quchog'iga beshik ber hayot"² deyishganidek. Farzandli bo'lmayotganidan sirtidan, Jannat qancha siqilsa, Sodiq ichidan undan o'n barobar ezilib borardi. Farzandsizlik azobi Jannatni juda ham qiynab qo'ygandi, shuning uchun Sodiqning xiyonatida o'zini aybladi.

O'ksimasin, guldan go'zal jozibalar
Ato qilgin farzanddayin mo'jizalar
Ular go'yo kapalakdek ojizalar
Ayollarni farzandga zor qilma Alloh³.

Asarda Sodiq befarzandlikdan qiynalsa, Dilovarxo'ja obrazi esa oila, farzand qadriga yetmaydigan, noshukur inson tasvirini ifodalaydi. Asarda Dilovarxo'janing farzandi ko'p bo'ladi, lekin, unga o'zidan boshqa hechkim muhim emas. Sodiq tirnoqqa zor, bor narsaga shukur qiladigan inson bo'lsa ham, uni farzandsizlik azobida qiynaydi. Necha yil deganda ko'rgan bitta-yu bitta farzandini ko'rish ham, uning diydoriga to'yish ham armon bo'lib qoladi. Mirsalimning hiylalariga aldanib, Jannat bilan ajrashgan Sodiq umri mobaynida sevib uylangan sabrli, irodali ayoli oldida vijodi qiynalib yashadi. Jannatni ko'rib kechirim so'ramaguncha qalbi taskin topmadi. Bogun bilan bo'lgan voqealarda: "Ha, aytgancha Bogun qayoqda? Birga edik. Huv anaviyerga kelganda bo'mba portladi, bir- birimizni yo'qotdik. -Ey satqai odam keting! -kishi shunaqa vaqtda ham sherigini tashlab qochadimi?" (333-b)¹ ushbu so'zlaridan Sodiqning do'stlikda ham bebaho shaxs ekanini ko'rish mumkin. Dilovarxo'ja bilan bo'lgan suhbatlarida esa: "Sodiqjon biz yutqazdik-dedi. Keyin varaqni uzatdi. -Mana buni qarang. Sodiq varaqdan hazar qilgandek qo'liga ham olmadi. Bizni kafanga o'rab qo'yibdimi? Ishonmang, yolg'on! Tushga nimalar kirmaydi, dushman nimalar demaydi." (379-b)¹ Uning irodasi metindek qattiq, vatanga bo'lgan muhabbati tog'dek baland, insonparvarlik, poklik tuyg'ulari oltindek yaraqlab turishini ifodalaydi.

Kuylayman, qalbidan jo‘shib sharchashma,
Sening tarifingga, tariflarim lol.
Senda musaffolik, soflik barchashma,
Ozod yurtim abad, ozod bo‘lib qol.

Bilamizki asarda tergovchi Chuxanov obrazi bor. Chuxanov Sodiq qamoqqa tushganda, "Tuxmat bilanqamalganman"-degan so‘zlariga ham ishonmay, uni vatan sotqini deb hisoblaydi. Sodiqqa doim bir o‘y dalda berib, tushkunlikka tushishga yo‘l qo‘ymasdi, "Haqiqat baribir qaror topadi", "Yolg‘onning umri qisqa". Chindan ham uning umidlari zoyi ketmadi. Asar so‘ngiga yaqinlashganda Sodiqning frontda ko‘rsatgan jasorati Chuxanovni ham lol qoldirdi. Sodiq umrining so‘ngigacha odamlarga ilm o‘rgatishga, yordam berishga, vatanni nafaqat frondaga dushmanlardan, balki ichidagi sotqinlardan ham himoya qilishga harakat qildi. Sodiqning, Dilovarxo‘ja fashist tomonga o‘tayotganda uni o‘ldirib: "Bu ityalog‘ni o‘zimga hamroh qilishning nima hojati bor edi? Ko‘chalarda daydi itdek sang‘ib, yo‘lga tushib ketmasmidi?" (419-b)¹ bu jummalardan Sodiqning yurt hoyinlariga bo‘lgan cheksiz nafratini ko‘rish mumkin. Sodiqning vatanga bo‘lgan muhabbati, ezgu ishlari, qalban pok, samimiy insonligi, unga otilgan tuxmat toshlari qanchalik yolg‘on ekanligi asar so‘ngida juda chiroyli, badiiy g‘oyalar bilan ochib berilgan.

Xulosa: Asarda ilm sohiblarining, o‘qituvchilarning yoshlarga yaxshi o‘rnak bo‘lishi, yaxshi tarbiyalab vatanga muhabbatli, iymonli shaxs etib tarbiyalishi yo‘lidagi kechinmalar shu qatorda insonparvarlik, vatanga bo‘lgan cheksiz muhabbat, or-nomusini deb o‘limdan ham qo‘rqmagan, qancha zug‘m, jabr ko‘rsa ham vijdonini, yurtini sotmagan inson tasviri Sodiq orqali ifodalangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shuhrat. (2018). Oltin zanglamas. - T.: Yangi asr avlodi.
2. Hoshimov, O‘. (2018). Dunyoning ishlari. Qissa.
3. Suhrob Isroilov. 2020-yil. Yangi she’rlar.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15235868>

O‘ZBEK TILIDAGI PARONIMLAR VA ULARNING XUSUSIYATLARI

M.A.Hamrayev

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,

O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri

m.a.hamrayev@gmail.com

Аннотация. Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi paronimlar, paronimiya hodisasining yuzaga kelish sabablari, omonimlar, omofonlar, omoformalar, variantdoshlikdan haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Paronimlar, unli tovushlar, undosh tovushlar, reduksiya, paronimik juftlik, omonimlar, omofonlar, omoformalar, variantdoshlik.

Аннотация. В данной статье рассматриваются паронимы в узбекском языке, причины возникновения явления паронимии, омонимы, омофоны, омоформы и варианты написания. рассматривается.

Ключевые слова. Паронимы, гласные, согласные, редукция, паронимические пары, омонимы, омофоны, омоформы, варианты когнаты.

Abstract. This article examines paronyms in the Uzbek language, the causes of the phenomenon of paronymy, homonyms, homophones, homoforms and variant spellings. considered.

Key words. Paronyms, vowels, consonants, reduction, paronymic pairs, homonyms, homophones, homoforms, variant cognates.

Kirish.

Tilimizda shakl va ma'no munosabatlariga ko'ra **paronimlar** guruhiga mansub birliklar ham mavjud. Paronimlar yunoncha **para** – yonidagi, **onuma** – nom degan ma'noni ifodalaydi. Boshqa shu kabi guruhlardan farq qilib, o'zaro talaffuzigina o'xshash kamida ikkita so'zdir. Masalan: *amir* – *amr*, *xalos* – *xolos*, *asir* – *asr* juftliklari bunga misol bo'la oladi. Shunisi borki, bu guruhga kiruvchi so'zlarning aniq chegarasini belgilash sal mushkulroq. Quyida shu muammoni hal qilishga urinib ko'ramiz.

Asosiy qism.

Avvalo, bu guruh so'zlardagi talaffuzdoshlikning yuzaga kelish sabablarini aniqlaymiz.

1.Paronimikning asosiy xususiyati shuki, ular talaffuz jihatdan o'xshash (yuz foiz emas) bo'ladi. Bunda quyidagi holalar kuzatiladi: a) **birinchi holat:** tarkibidagi undosh tovushlarning uchta xususiyatidan (hosil bo'lish o'rni, hosil bo'lish usuli, ovoz va shovqin ishtiroki) ikki jihatdan o'xshash bo'lib, bir jihatdan noo'xshash bo'ladi: **adib** (*badiiy asar yozadigan shaxs*) — **adip** (*to'n, xalat kabilarning chetiga tikiladigan ensiz mato – mag'iz*). Bu so'zlar tarkibidagi **p** va **b** tovushlarning har ikkalasi ham hosil bo'lish o'rniga ko'ra lab-lab tovushlaridir, hosil bo'lish usuli jihatdan ham bir xil, ya'ni sof portlovchi undoshlardir. Farqi: biri jarangli, ikkinchisi esa jarangsizdir, xolos. Bu undosh tovushlarga tegishli xususiyatlar. Bular natijasida paronimlik yuzaga kelgan.

b) **endi** unli tovushari jihatidan o'xshashlikni ko'rib chiqamiz: **Xalos** (ozod, erkin) – **xolos** (faqat, faqatgina) juftligi. Bu juftlikdagi so'zlar o'zaro **a** va **o** unlilari bilangina farq iladi, shundayam bu unlilar uchta xususiytdan (tilning gorizontal holati, tilning vertikal holati, lablarning ishtiroki) bittasi o'xshash, ikki jihatdan noo'xshashdir: ikkala unli ham quyi keng unli. Farqlari: **a** old qator, **o** orqa qator unli; **a** unlisi lablanmagan, **o** esa lablangan unli hisoblanadi. Natijada bunda ham paronimlik yuzaga kelgan.

b) **paronimik** juftlikdagi bitta so'zga ikkita undosh orasiga talaffuzda unli orttiriladi va natijada paronimlik yuzaga keladi. **Azim** (g'oyat katta, ulkan) – **azm** (qat'iy qaror) juftligida shunday

hodisa yuz beradi. Bunda ikkinchi soʻzda **i** unlisi orttiriladi. Natijada bunda ham paronimlik yuzaga kelgan.

d) **diplomat** (davlatlar bilan aloqa qilib turuvchi hukumat vakili)— **diplomant** (diplom ishini bajarayotgan talaba). Koʻrinyaptiki, ikkinchi soʻzdagi **n** tovushi talaffuzda deyarli eshitilmaydi. Natijada, paronimlik yuzaga keladi.

Paronimlarni **yondosh** hodisalardan farqlash lozim. Bular quyidagilardir.

1. Omofonlar talaffuzi bir xil, fonemalar miqdori teng, yozilishi va maʼnosi har xil boʻlgan leksemalardir: *toʻn(kiyim) – ton (tovush toni)*. Paronimlarda esa talaffuzi bir-biriga yaqin boʻladi, fonemalar miqdori teng boʻlmasligi mumkin: **Ilk** (avvalgi) - **Ilk** (suyak ichidagi yogʻsimon modda)

2. Variantdoshlik. Bu hodisa bir leksemaning turlicha koʻrinishidir: *gado – gadoy, doʻppi – toʻppi*¹. Paronimlar esa faqat talaffuzigina oʻxshash, yaqin leksemalardir.

3. Omonimlar talaffuzi ham bir xil, yozilishi ham bir xil, lekin maʼnolari har xil leksemalardir: *bogʻ (daraxtzor) - bogʻ (bir bogʻ oʻt)*

4. Omoformalar talaffuzi, yozilishi va ayrim grammatik shakllari jihatidan bir xil, lekin maʼnolari va soʻz turkumi har xil leksemalardir: *teri (ot: peshona teri, 3-shaxs, birlik egalik shaklida) – teri (ot: odam va hayvon tanasining tashqi qoplami, tana aʼzolarini tashqi taʼsirlardan himoya qiluvchi va turli fiziologik vazifalarni bajaradigan posti)*.

5. Dubletlar mazmunan bir tushunchani ifodalovchi, kelib chiqish nuqtai nazaridan umumiylikka ega boʻlgan va koʻpincha tilga turli davrda kirib kelgan oʻzlashtirma soʻzlar hisobiga vujudga keladigan ikki yoki undan ortiq soʻzlardir. Masalan: *shuvoq — suvoq, supurgi — shupurgi*.²

6. “Omograflar — yozilishi bir xil, talaffuzi har xil boʻlgan leksemalar: **soya** («quyosh nuri tushmaydigan salqin joy») — **soya** («dukkakli oʻsimlikning bir turi va uning doni»), **rom** (oyna oʻrnatilmagan deraza) — **rom** (spirtli ichimlikning bir turi) kabi»³. Demak, bular faqat yozilishigina bir xil, ammo talaffuzi va maʼnosi har xil boʻlgan leksemelardir.

¹ Jamolxonov H.. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Toshkent, “Talqin” nashriyoti, 2005-yil.183-bet.

² Jamolxonov H.. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Toshkent, “Talqin” nashriyoti, 2005-yil.180-bet

³ Maʼrufov A. Paronimlar lugʻati (talaffuzi yaqin soʻzlar). «Oʻqituvchi» nashriyoti, Toshkent - 1974. 3-bet

Shuni ham aytish lozimki, paronimlikning yuzaga kelishida soʻzning ijtimoiy tomoniga ham eʼtiborni qaratish kerak, yaʼni paronimik juftlikdagi qaysi bir komponent faolroqligi ham hisobga olinishi kerak. Masalan, adresant – **adresat**, **diplomat** – diplomant, abroʻ - **obroʻ**, **alam** – aʼlam, arkon – **arqon**, **asr** – asir, **ahil** – ahl, **bayon** – boyon, **borlik** – borliq, vaqf – **voqif**, **gal** – gall, ganj – **ganch**, **dakki** – daqqi, **daha** – daho kabi bir qancha juftliklardagi qaysi component faolroq boʻlsa, til egasi shu soʻzni asos qilib oladi (faolroqlari ajratib berildi) va u paronimlikka asos boʻlib hisoblanadi.

Xulosa.

Xulosa oʻrnida shuni aytish lozimki, paronimik juftliklarni fonetik tahlil qilish jarayonida paronimlikning yuzaga kelish sabablarini ilmiy jihatdan isbotlash mumkin ekan. Shuningdek, paronimiya hodisasini omonimiya, variantdoshlik, omofoniya va omoforma, omograf kabi yondosh hodisalardan farqlash lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy oʻzbek tili. –Toshkent: Universitet, 2006. –464 b.
2. Maʼrufov A. Paronimlar lugʻati (*talaffuzi yaqin soʻzlar*). «Oʻqituvchi» nashriyoti, Toshkent – 1974.
3. Jamolxonov H.. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Toshkent, “Talqin” nashriyoti, 2005-yil.
4. M.Hamrayev, D.Shodmonqulova, N.Doʻsanov. Ona tili vabolalar adabiyoti (1-qism: Ona tili) darslik) “Grandkondoprint”, Toshkent, 2023-yil.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти. –Т., 2008, 4-jild.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15235985>

SUV RESURLARINI INTEGRALLASHGAN HOLDA BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI

Mengliqulova Munisa Ergash qizi,

Qarshi davlat texnika universiteti magistranti.

Annotatsiya. Mazkur maqolada suv resurslarini integrallashgan holda boshqarish (SRIB) ning nazariy asoslari, xalqaro tajribalari va O'zbekiston Respublikasida bu yo'nalishdagi tashkiliy-huquqiy asoslarning shakllanishi tahlil etilgan. SRIB konsepsiyasining asosiy tamoyillari, uni amalga oshirishda uchraydigan muammolar, shuningdek, xalqaro tajriba asosida O'zbekistondagi amaliyot bilan taqqoslanadi. Tahlil davomida SRIBni muvaffaqiyatli joriy qilish uchun zarur bo'lgan qonunchilik, institutsional muvofiqlik, suv foydalanuvchilari ishtiroki va transchegaraviy hamkorlik kabi omillar alohida o'rganilgan. O'zbekistonning suv resurslarini boshqarish tizimi o'zgartirishni talab qiladi, shu jumladan, markazlashtirilgan boshqaruv tizimidan chiqish va davlatlararo kelishuvlarga asoslangan yangi integrallashgan yondashuvni joriy etish zarur.

Kalit so'zlar: Suv resurslari, integrallashgan boshqaruv, tashkiliy-huquqiy asoslar, xalqaro tajriba, transchegaraviy hamkorlik, ekologik xavfsizlik, barqaror rivojlanish, suv bilan ta'minlanish.

Kirish. Suv resurslari barcha iqtisodiy faoliyat va ekologik tizimlarning asosi hisoblanadi. Bugungi kunda dunyo bo'ylab suv tanqisligi global muammo sifatida tan olingan. Xususan, Markaziy Osiyo mintaqasida, jumladan O'zbekistonda, suv resurslarining 80% dan ortig'i transchegaraviy manbalardan olinadi. Suv resurslarining chegaralanganligi va transchegaraviy xarakteri, shuningdek, iqlim o'zgarishlari va

rivojlanayotgan iqtisodiyotlar talablarining ortishi, suvni boshqarishdagi yangi yondashuvlarni joriy qilishni taqozo etadi. Suv sohasidagi tobora kuchayib borayotgan muammolar uni boshqarishda yangicha yondashuvlarni talab qiladi. Boshqaruvni takomillashtirish va uning samaradorligini oshirishga barqaror suv resurslarini integrallashgan holda boshqarish usullari yordamida erishish mumkin. Ulardan foydalanish barqaror rivojlanish bo'yicha xalqaro konferensiyalarda bir necha bor muhokama qilingan.

Asosiy qism. Suv resurslarini integrallashgan holda boshqarish (SRIB) – bu suvni boshqarishning xalqaro standartlariga asoslangan tizimli yondashuv bo'lib, uning maqsadi suvni iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatlardan samarali boshqarishni ta'minlashdir. Bu atama suvdan foydalanishda kompleks, muvozanatli va barqaror yondashuvni anglatadi. Ya'ni, suv resurslarini boshqarishda:

Ekologik barqarorlik – atrof-muhitga zarar yetkazilmasligi;

Iqtisodiy samaradorlik – suvdan isrof qilmasdan, samarali foydalanish;

Ijtimoiy adolat – barcha qatlamlar uchun suvga teng imkoniyat yaratish kabi tamoyillar bir vaqtda e'tiborga olinadi.

Suv resurslarini integrallashgan holda boshqarishning asosiy tamoyillari 1992-yilda Dublindagi “Suv va atrof-muhit” bo'yicha xalqaro konferensiyada belgilangan bo'lib, unda: a) chuchuk suv zaxiralari cheksiz emasligi, suv – jamiyat hayotining asosi va barqaror rivojlanishi; b) suv resurslarini ishlab chiqish va boshqarish, suvdan foydalanadiganlar, barcha darajadagi rejalar va qarorlarni qabul qiluvchilar o'rtasida teng taqsimlanishi kerak; d) suv iqtisodiy ahamiyatga ega va uni iqtisodiy ne'mat sifatida qabul qilish kerakligi alohida ta'kidlangan. Keyinchalik “Dublin tamoyillari”ga asoslangan SRIB konsepsiyasi 1992-yil Rio-de-Janeyroda bo'lib o'tgan BMTning “Atrof-muhit va barqaror rivojlanish” konferensiyasida “XXI asr kun tartibi”da qabul qilingan.

SRIB modeli suv resurslarini boshqarishdagi muvofiqlikni ta'minlash, suvdan adolatli foydalanish, resurslarni tejash va ekologik barqarorlikni saqlashni ko'zda tutadi. O'zbekistonning suv resurslari boshqaruvi tizimi o'zgartirishlarni talab

qilmoqda va SRIBni amaliyotga tadbiq qilish uchun davlatning barcha darajalari o'rtasida mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yish zarur. Orol dengizi havzasi (ODH)ning umumiy suv vaziyatida Afg'oniston, Tojikiston va Qirg'iziston mintaqadagi asosiy suv resurslari shakllanadigan mamlakatlar hisoblansa, Qozog'iston, Turkmaniston va O'zbekiston davlatlari asosiy suv iste'molchilari sifatida xarakterlanadi. Turli hisob-kitoblarga ko'ra, Afg'oniston shimolida (yuqori Amudaryo) yiliga 8-10 dan 16-18 km³ gacha, Qirg'izistonda ODHning 25 foizi, Tojikistonda Amudaryo oqimining 80 foizi va transchegaraviy Zarafshon daryosining deyarli butun suvi shakllanadi. Davlatlararo ahamiyatdagi suv xo'jaligi infratuzilmasi obyektlarining tarvaqaylab ketgan tuzilmasi vaziyatni yanada murakkablashtiradi.

Ko'plab mutaxassislar va tahlilchilar fikriga ko'ra, Markaziy Osiyo transchegaraviy suv resurslari (TSR)dan foydalanishda ko'plab nizoli vaziyatlar mavjud bo'lgan, kelajakda bu vaziyatlar hukumatimizning oqilona siyosatiga bog'liqligi ko'rinib turibdi. Misol uchun, Afg'onistonda qurilayotgan Qo'shtepa sug'orish tarmog'i. 2023-yil 11-oktyabr kuni Afg'onistonda uzunligi 280 km, eni 100 metr va chuqurligi 8 metr bo'lishi kutilayotgan kanal qurilishining 2-bosqichiga start berildi. Mintaqadagi suv muammolari bilan bog'liq holda yuzaga keladigan siyosiy vaziyat Markaziy Osiyo davlatlarining jipslashishiga yoki, aksincha, ular orasida nizolar kuchayishiga sabab bo'luvchi omillar bo'lishi mumkin.

Xulosa. Suv resurslarini integrallashgan holda boshqarish (SRIB) – bu hozirgi va kelajak avlodlar uchun suv resurslarini saqlab qolish, ularni ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan oqilona taqsimlashni ta'minlaydigan kompleks yondashuvdir. U nafaqat suvdan foydalanishni muvozanatli qilish, balki suv sifati, taqsimoti, foydalanish ustuvorliklari va xavfsizligi bilan bog'liq barcha masalalarni yagona tizimda boshqarishni ko'zda tutadi. O'zbekistonda suv resurslarini boshqarishga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlar mavjud bo'lib, ular muayyan darajada zamonaviy yondashuvlarga javob beradi. Biroq, amaliyotda hali ham bir qator tizimli muammolar, qaror qabul qilishdagi markazlashuv, suv foydalanuvchilarining cheklangan ishtiroki va zamonaviy texnologiyalarning yetarli darajada joriy qilinmaganligi kuzatilmoqda.

Suv resurslarini barqaror boshqarish va SRIB tamoyillarini to'liq joriy etish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

Qonunchilikni tizimlashtirish va yangilash: mavjud qonun va qarorlar o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish, xalqaro standartlarga moslashtirish, suv resurslarini havza asosida boshqarishni qonuniy asosga qo'yish lozim;

Suv foydalanuvchilari ishtirokini kuchaytirish: suv iste'molchilari uyushmalari, mahalliy jamoalar va nodavlat sektor ishtirokini oshirish, ularni qaror qabul qilish jarayoniga jalb etish orqali boshqaruvda shaffoflik va mas'uliyatni ta'minlash zarur;

Texnologik modernizatsiyani jadallashtirish: suvni tejovchi sug'orish tizimlari, raqamli monitoring, suv hisobini yuritish va suv sifati nazoratini ta'minlaydigan ilg'or texnologiyalarni joriy qilish orqali resurslardan samarali foydalanish mumkin;

Kadrlar salohiyatini oshirish: suv xo'jaligi sohasida malakali mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash, ilmiy-tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash orqali sohaga innovatsion yondashuvlarni jalb etish lozim;

Xalqaro tajriba va hamkorlikni kuchaytirish: transchegaraviy suvlar masalasida mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash, BMT, Jahon banki, FAO va boshqa xalqaro tashkilotlarning ilg'or tajribalaridan foydalanish muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, SRIB prinsiplari – bu nafaqat suv resurslarining samarali boshqaruvi, balki ijtimoiy barqarorlik va ekologik xavfsizlikning asosiy kafolati bo'lib xizmat qiladi. Shu boisdan, O'zbekiston sharoitida integrallashgan boshqaruv tizimining to'liq shakllanishi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Global Water Partnership. Integrating legal frameworks for IWRM. – 2019.
2. Kalantari, K., Maknoon, R., & Karimi, D. Integrated Water Resources Management in Iran. – 2018.
3. To‘rayev U.M. “Iqlim o‘zgarishi davrida suv resurslarini integrallashgan holda boshqarishning adaptatsion-modernizatsiyalashgan mexanizmi (Qashqadaryo daryosi havzasi misolida)”. Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2024. – 110 b.
4. Karimov, A. Suv iste‘moli boshqaruvining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari. – Toshkent, 2023.
5. Berdiyev, A. Suv resurslaridan foydalanishda xorij tajribalari. – 2024.
6. UN-Water. Water for Sustainable Development: a New Global Framework. – 2021.
7. Краткий обзор Доклада о прогрессе 2021 года: ЦУР 6-водоснабжение и санитария для всех. ООН – Водные ресурсы, Версия: июль 2021 года. Женева, Швейцария. 2021. – 54 с.
8. World Bank. Water Scarcity and Climate Change: Addressing the Challenge. – 2022.
9. *FAO and UN Water. 2021. Progress on Level of Water Stress. Global status and acceleration needs for SDG Indicator 6.4.2, 2021. Rome. Elektron resurs URL: <https://www.unwater.org/publications/progress-level-water-stress-2021-update>*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15236027>

INKLYUZIV TA'LIMDA PEDAGOG VA PSIXOLOGLARNING RO'LI

Mamayusupova Sabohat Baxodirovna

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va
psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi
metodisti

gmail.: markovermars71@gmail.com

Anotatsiya: Mazkur maqolada inkluziv ta'lim — bu har bir o'quvchining, uning ehtiyojlari va imkoniyatlariga qarab, ta'lim jarayonida ishtirok etishini ta'minlashga qaratilgan yondoshuvdir. Ushbu ta'lim modeli barcha o'quvchilarni teng ravishda qabul qiladi va ularning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim muhitini yaratadi va o'quvchilar o'rtasida do'stona munosabatni mustahkamlash va profilaktik chora-tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshirish yo'llari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Inklyuziv, kamol toppish, qobiliyat, sezgi, ta'lim muassasasi, psixologik salomatlik, profilaktika, ijtimoiy muhit, ehtiyoj, moslashuv, tajriba, empatiya, muomala madaniyati.

Kirish

Inkluziv ta'lim — bu har bir bola, uning individual xususiyatlari va imkoniyatlarini inobatga olgan holda, ta'lim muhitiga teng va faol tarzda jalb qilishni maqsad qilgan ta'lim yondoshuvidir. Ushbu model ta'limda barcha o'quvchilarning teng imkoniyatlarga ega bo'lishini, ularning o'qishdagi ehtiyojlari va talablari asosida moslashtirilgan usullarni qo'llashni nazarda tutadi. Inkluziv ta'limning asosiy g'oyasi — jismoniy va ruhiy imkoniyatlari cheklangan bolalardan tortib, ijtimoiy va madaniy xilma-xillikka ega bo'lgan o'quvchilargacha, hamma uchun teng ta'lim sharoitlari yaratishdir.

Psixologlar esa, inkluziv ta'limda o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini, ular duch kelayotgan muammolarni va ehtiyojlarni aniqlashda yordam berishadi. Ular o'quvchilarning o'zini ifoda etish, ijtimoiy integratsiya va ruhiy salomatligini qo'llab-quvvatlash orqali ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradilar. Psixologik yordam o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish, ularni ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy muhitga moslashuvlarini yaxshilashga yordam beradi.

Asosiy qisim:

Inklyuziv ta'limning mohiyati: barcha bolalarga, jumladan maxsus ehtiyojli bolalarga, teng ta'lim olish imkoniyatini yaratishdir. Ota-onalarning o'z bolalariga ta'limli yordam ko'rsatishini cheklamaslik bilan bir jihatdan kengaytirish zarur. Shunday yo'l bilan ota-onalar bolalarni o'quv muassasalariga joylashtirish va o'quv dasturlarini aniqlik, shuningdek o'quv jarayonini uyda yoki boshqa joyda davom ettirishga oid muhokamalarga jalb qilishi zarur. Har qanday bola kamol topib sog'lom o'ssa, uning bilim faoliyati, sezgi qobiliyatlari mukammal rivojlanib borsa, bunday bolalar 6-7 yoshdan boshlab maktabga qabul qilinishga tayyor bo'ladi.

1. Pedagogning inklyuziv ta'limdagi roli

- Shaxsiy yondashuv va ta'lim metodlarining moslashuvi.
- O'quv reja va materiallarni maxsus ehtiyojlarga moslashtirish.
- Sinfda to'liq ishtirokni ta'minlash va jamoaviy muhitni yaratish.
- Maxsus ehtiyojli bolalar uchun ijobiy tajribalar yaratish orqali ularning qobiliyatlarini ochib berish.

2. Psixologning inklyuziv ta'limdagi roli

- Bolaning psixologik ehtiyojlarini aniqlash va qo'llab-quvvatlash.
- Stressni boshqarish, moslashuv jarayonlarini osonlashtirish.
- Oila, pedagog va maktab ma'muriyatini psixologik maslahatlardan xabardor qilish.
- Psixologik treninglar va inklyuziv muhitga tayyorlov ishlari.

3. Hamkorlik va muloqotning ahamiyati

- Pedagog va psixologning jamoaviy yondashuvi.

➤ Oila bilan hamkorlik qilish va _olani qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha birgalikda reja ishlab chiqish.

“Bola ta’lim jarayoniga emas, ta’lim jarayoni bola imkoniyatiga moslashtiriladi”. Odatda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ta’lim shaklini tanlashda turli cheklovlarga duch keladilar. Aynan shu konsepsiya orqali alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar turli cheklovlar qo‘yishning oldi olinadi, masalan: qila olmaydi, mumkin emas, sen uchun emas, uddasidan chiqolmaydi va hokozolar. Bu konsepsiya asosida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalarning barchasi umumta’lim maktablariga inklyuziv ta’lim asosida teng huquqlikni ta’minlagan holda sog‘lom tengdoshlari bilan ta’lim olishlari mumkin bo‘ladi.

Ta’kidlash joiz alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga kerakli shart-sharoitlarni yaratish asosida ularni maktab orqali ijtimoiy hayotga yo‘naltirish va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishlariga erishtirish mumkin bo‘ladi. Bejizga “o‘rganmaydigan bola bo‘lmaydi” deb aytilmaydi, agar ta’lim usuli to‘g‘ri tanlansa ta’limga ehtiyoji bo‘lgan har qanday bolaga ta’lim berish va undan natija olish mumkindir.

Inklyuziv ta’lim jarayonida ota-onalar va psixologlar bilan ishlash ham muhim. Ta’kidlash joizki, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ota-onalariga ularning farzandlari jamiyatning bir bo‘lagi bo‘lish huquqiga ega ekanini tushuntirish, bu ishonchni ularning ongiga yetkazish kerak. Mamlakatimiz ta’lim tizimida bu masalaga alohida e’tibor qaratiladi.

Jamoaviy yondashuv judayam muhim.

- Inklyuziv ta’lim muvaffaqiyati ko‘p jihatdan pedagog va psixologning birgalikdagi harakatlariga bog‘liq.
- Pedagog va psixolog har bir bola uchun individual ta’lim rejasini ishlab chiqadi.
- Pedagoglar va psixologlar uchun inklyuziv ta’lim tamoyillarini chuqurroq tushunishga qaratilgan treninglar zarur.
- Xorijiy tajribani o‘rganish va o‘zlashtirish.

- Inklyuziv jarayonni samarali tashkil qilishda ota-onalar muhim sherik hisoblanadilar.
- Oila bilan samarali aloqa o'rnatish orqali bolaga ko'mak berishning barcha bosqichlarini muvofiqlashtirish.

Zamonaviy o'qitishni shakllantirish, har bir o'qituvchi o'z ustida muntazam ishlab, malakasini oshirib, o'z tajribalarini o'quvchilar ta'lim-tarbiyasiga qaratishi lozim.

Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi ta'limni boshlash imkoniyatiga ega bo'lgan barcha bolalar, shu jumladan alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni umumta'lim jarayoniga qamrab olishdir. Inklyuziv ta'lim alohida yordamga muhtoj bolalarga ta'lim olishni taqdim etishi bilan katta ahamiyatga ega. Bu ana shunday bolalarni uzluksiz umumiy ta'lim tizimiga kiritishni bildiradi.

Xulosa

Pedagog va psixologning hamkorlikdagi ishlari inklyuziv ta'lim jarayonini muvaffaqiyatli tashkil qilishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Bu nafaqat maxsus ehtiyojli o'quvchilar uchun qulay ta'lim muhitini yaratadi, balki barcha o'quvchilar uchun ijtimoiy bag'rikenglik madaniyatini shakllantiradi. Shu bois, inklyuziv ta'limni rivojlantirish uchun davlat siyosati, ta'lim muassasalarining yondashuvi va professional malaka oshirish dasturlari muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Актуальные вопросы развития инклюзивного профессионального образования: теория и практика: сборник тезисов / под ред. Т.Ю. Макаровой. – Москва: Изд-во Национального института инноваций, 2020.
2. Маллаев, Д.М. Инклюзивное профессиональное образование / Маллаев Д.М., Омарова П.О. и др. – Москва: Фонд президентских грантов, 2018.
3. <https://en.unesco.org/themes/inclusion>
4. Ziyonet.uz

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15259140>

SOVET ITTIFOQIDA MILLATLARARO ZIDDIYATLARNING UMUMIY SABABLARI

Odilov Muhammad Mirzo Otabek o'g'li

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti tarix kafedrası 2-bosqich magistranti.

Elektron pochta: Muhammad.odilov98@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sovet Ittifoqidagi millatlararo nizolar tarixiy, siyosiy va ijtimoiy omillar kontekstida tahlil qilinadi. Muallif Sovet hukumati tomonidan amalga oshirilgan ruslashtirish siyosati, majburiy assimilyatsiya, repressiyalar va deportatsiyalar millatlararo munosabatlarga qanday ta'sir ko'rsatganini ko'rsatadi. Xususan, Stalin davridagi siyosiy qarorlar va ularning oqibatlari tahlil qilinib, Sovet Ittifoqining parchalanishiga olib kelgan sabablar yoritiladi.

Kalit so'zlar: Sovet Ittifoqi, millatlararo nizolar, ruslashtirish, deportatsiya, Stalin siyosati, etnik siyosat.

Аннотация: В статье рассматриваются межнациональные конфликты в Советском Союзе в контексте исторических, политических и социальных факторов. Автор анализирует влияние политики русификации, принудительной ассимиляции, репрессий и депортаций на межэтнические отношения. Особое внимание уделено сталинской эпохе и её последствиям, а также причинам, приведшим к распаду Советского Союза.

Ключевые слова: Советский Союз, межнациональные конфликты, русификация, депортация, сталинская политика, этническая политика.

Abstract: *This article analyzes interethnic conflicts in the Soviet Union through the lens of historical, political, and social factors. The author examines how policies of Russification, forced assimilation, repression, and deportation shaped interethnic relations. Particular attention is paid to the Stalin era and its consequences, as well as the root causes that led to the dissolution of the Soviet Union.*

Keywords: *Soviet Union, interethnic conflicts, Russification, deportation, Stalin's policy, ethnic policy.*

Sovet Ittifoqidagi millatlararo nizolar tarixiy, siyosiy va ijtimoiy omillarning murakkab o'zaro ta'siridan kelib chiqqan. Sovet Ittifoqi 100 dan ortiq turli etnik guruhlarini o'z ichiga olgan etnik jihatdan xilma-xil davlat bo'lib, ularning aksariyati o'ziga xos til, madaniyat va tarixga ega edi. Sovet hukumati turli millatlar o'rtasida baynalmilalizm va tenglik mafkurasini targ'ib qilgan bo'lsa-da, bu guruhlar o'rtasida keskinlik va ba'zan shiddatli to'qnashuvlarga bir qancha sabablar sabab bo'lgan. Bu omillarga majburiy assimilyatsiya qilish siyosati, mintaqaviy muxtoriyat, milliy o'ziga xoslikni davlat tomonidan manipulyatsiya qilish va imperializm merosi kiradi. Sovet Ittifoqida millatlararo ziddiyatlarni keltirib chiqargan asosiy omillardan biri imperializm merosi edi. 1917-yildagi bolsheviklar inqilobidan oldin Sovet Ittifoqi tarkibiga kiradigan ko'plab hududlar Rossiya imperiyasining bir qismi edi. Imperiya turli etnik guruhlarini o'ziga bo'ysundirish tarixiga ega bo'lib, bu aholi o'rtasida norozilik va ishonchsizlik hissi paydo bo'lishiga olib keldi ¹. Inqilobdan keyin bolsheviklar hukumati turli mintaqalarni yagona davlatga birlashtirishga harakat qildi, lekin bu jarayon ko'pincha turli etnik guruhlarining murakkab o'ziga xosliklari va intilishlarini e'tiborsiz qoldirdi. Iosif Stalin boshchiligida Sovet hukumati, ayniqsa, 1930-1940-yillarda majburiy assimilyatsiya va ruslashtirish siyosatini amalga oshirdi. Bu etnik va milliy chegaralarni kesib o'tgan sovet o'ziga xosligini yaratishga qaratilgan keng qamrovli sa'y-harakatlarning bir qismi edi. Masalan, rus tili Sovet Ittifoqining rasmiy tili sifatida ilgari surildi, boshqa tillar esa chetga surildi. Ta'lim va ommaviy

¹ Ahmedov B. Millatlararo ziddiyatlar va ularning siyosiy-iqtisodiy oqibatlari. - avtoreferat, Toshkent, 1999. 10-bet.

В таблице 2 представлены примеры наиболее распространённых ошибок, выявленных в процессе анализа перевода.

Таблица 2. Типы ошибок и их примеры

Тип ошибки	Примеры ошибок	Причины ошибок
Прямой перевод	"Make a decision" → "Сделать решение"	Лексическая калька
Неполный перевод	"It's raining cats and dogs" → "Идёт дождь"	Игнорирование идиоматических выражений
Лексическая ошибка	"I look forward to hearing from you" → "Я жду от вас"	Неправильная интерпретация значений

Выявленные ошибки указывают на недостаточное знание культурных и идиоматических аспектов целевого языка, что подчеркивает важность контекстуального подхода при переводе.

Результаты исследования подтверждают гипотезу о значимости ЭКПТ как средства для глубокого анализа языковых и переводческих стратегий. Различия в частотности использования языковых конструкций указывают на предрасположенность переводчиков к более сложным синтаксическим формам, что может быть обусловлено необходимостью передачи многозначных смыслов и культурных нюансов.

Обнаруженные типичные ошибки также демонстрируют, что переводчики часто сталкиваются с трудностями в интерпретации идиом и культурных реалий. Это подчеркивает необходимость применения ЭКПТ не только как ресурса для получения лексической информации, но и как инструмента для понимания культурного контекста.

Заключение. В ходе исследования была подтверждена гипотеза о том, что электронные корпуса параллельных текстов (ЭКПТ) играют ключевую роль в углубленном анализе языковых явлений и переводческих практик. Полученные данные свидетельствуют о наличии значительных различий в частотности и использовании языковых конструкций между оригинальными и переводными текстами, что подчеркивает необходимость адаптации переводческих стратегий к культурным и семантическим особенностям целевого языка.

Выявленные типы ошибок в переводах, включая лексические и идиоматические несоответствия, акцентируют внимание на важности контекстуального подхода в процессе перевода. Это указывает на необходимость более интенсивного обучения переводчиков, ориентированного не только на теоретические аспекты, но и на практическое применение культурных и языковых знаний.

Список литературы.

1. Бабушкина, Н. В. Параллельные тексты в лингвистических исследованиях. М.: Наука, 2020.
2. Васильева, И. А. Электронные корпуса и их применение в обучении иностранным языкам. СПб.: Издательство РГПУ им. Герцена, 2019.
3. Громова, Т. А. Проблемы перевода: от теории к практике. М.: РУДН, 2021.
4. Зайцева, Е. А. Параллельные тексты как средство исследования языковых особенностей. Вестник лингвистики, 2018. № 4. С. 55-68.
5. Казакова, О. В. Автоматизированный перевод: технологии и методы. М.: ИНФРА-М, 2022.
6. Костина, Л. С. Влияние культуры на перевод: подходы и методы. Язык и культура, 2017. № 2. С. 112-125.
7. Лебедев, А. Ю. Параллельные корпуса в переводоведении. М.: Научный мир, 2020.
8. Мартынова, Н. П. Использование ЭКПТ в современных исследованиях. Научные записки, 2019. № 3. С. 45-58.
9. Николаева, М. В. Применение параллельных текстов в образовательной практике. Учебный процесс: теория и практика, 2021. № 1. С. 98-109.
10. Орлова, С. Н. Компьютерная лингвистика и параллельные корпуса. Вестник компьютерной лингвистики, 2022. № 5. С. 67-79.
11. Павлов, Д. С. Автоматизированный анализ параллельных текстов. М.: Либерия, 2021.
12. Соловьёва, Е. И. Лингвистический анализ параллельных текстов. Язык и общество, 2020. № 3. С. 22-35.
13. Файзиева С. А. GENRE ORIGINALITY OF A LITERARY FAIRY TALE //Web of Teachers: Inderscience Research. – 2023. – Т. 1. – №. 7. – С. 58-62.
14. Муртазаева Ф. Р., Файзиева С. А. Особенности образа inferнальной женщины в творчестве Л. Петрушевской //Процветание науки. – 2022. – №. 6 (12). – С. 32-39.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15263902>

ОИЛАДА УМУМИНСОНИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ АКС ЭТТИРИЛИШИ

Бекчанова Нилуфар Ахмеджановна

Урганч давлат университети

Бошланғич таълим методикаси кафедраси ўқитувчиси

bekchanova.n@mail.ru

Аннотация: Мақолада оиладаги шахслараро муносабатлар: ота-она, ака-ука, опа-сингил ва фарзандлар ўртасидаги муносабатларнинг акс эттирилишида миллий ва умуминсоний қадриятларнинг ўрни, инсонийлик тамойиллари хусусида фикр юритилади ва бу муносабатлар бевосита тахлил этиб борилади.

Калит сўзлар: оила, жамият, шахс, инсонийлик, миллий қадрият, умуминсоний қадрият, таълим, тарбия, Конституция.

КИРИШ

Тўй кишилиқ ҳаётидаги энг қувончли ва ардоқли кун ҳисобланади. Шунинг учун оналаримиз, момоларимиз “тўйларга етказсин”, “тўйларда учрашайлик”, “кўрганимиз тўй, еганимиз қўй бўлсин”,-дея дуо қиладилар. Шунинг учун ҳам кексалар доим: «Ҳар кимни тўйга етказсин, орзу-ҳавас кўрсин», дейишади. Оила қуришнинг ҳар бир инсон учун қанчалиқ даражада муҳимлиги барчага маълум. Лекин оила қуриш учун никоҳдан ўтиш зарур ёки йўқлиги, шунингдек, оила билан никоҳ тушунчалари ўртасида фарқнинг мавжуд ёки мавжуд эмаслигига борасида тўхталиб ўтишни жоиз топдик. “Никоҳ” сўзининг ўзбек тилида икки хил луғавий маъноси бор.

“Никоҳ” арабча сўздан олинган бўлиб, уйланиш, эр-хотиннинг қовушиши яъни, эр-хотинни шариат ёъли билан расмийлаштириш маросими, имом-домла томонидан ўқитиладиган шартнома ва “оилавий иттифоқ” деган маънони билдиради. Яъни, никоҳ – икки жинс вакилларининг ўзаро розилиги асосида тузилган иттифоқдир ёки эркак ва аёл турмуш қуришининг исломга хос диний шаклидир.

МУХОКАМА

Маълумки, шариат оилавий муносабатларни тартибга солади ва никоҳга биринчи навбатда, икки томоннинг мажбурияти ҳамда ҳуқуқларига асосланган шартнома сифатида қарайди. Ҳозирги вақтда никоҳ икки хил – дунёвий ва диний мазмунга ега .Дунёвий маъносига кўра, никоҳ – эр-хотиннинг ўзаро розилиги билан ҳуқуқий жиҳатдан расмийлаштирилган оилавий иттифоқи, эр-хотинлик. Бошқача ифодалаганда, турмуш қураётган эркак ва аёлнинг фуқаролик ҳолати далолатномаларини ёзиш органида (ФХДЁ) рўйхатдан ўтишини англатадиган фуқаровий никоҳидир.Никоҳ – эркак билан аёлнинг тарихан таркиб топган, жамият томонидан муайян тартибга солинган ўзаро ҳамда болаларига нисбатан муносабатлари шаклидир. Никоҳнинг моҳияти аҳолининг ўсиб бориши, ёш авлоднинг жисмоний ва руҳий ҳолатига ҳам таъсир етади. Никоҳ ижтимоий (социал) шароит ва маданият таъсирида ўзгарган кишиларнинг насл қолдиришга бўлган табиий талабини маълум тартибда қондириш ҳам тушунилади.

Демак, оила билан никоҳ ўртасида фарқ мавжуд бўлиб, никоҳ умуминсоний қадриятларни ўзида мужассамлаштирган урф-одат бўлиб, ибтидоий жамиятнинг сўнгги даврида вужудга келган ва кейинчалик ёзма тарзда қонунлаштирилган маросим шаклини олган .Оила – эр-хотин, уларнинг болалари ва энг яқин туғишганларидан иборат бирга яшовчи кишилар мажмуи; хонадон ҳисобланади .Унинг бошқа маънолари бир-бирига яқин бўлиб, умумий маънода бирлашган кишилар, халқ, мамлакатлар ёки ўсимлик, ҳайвонлар ва қардош

тиллар гуруҳини қайд этиш мумкин. Бундан ташқари, оъзбек тилининг изоҳли луғатида “оила” сўзлашув тилида “рафика”, “хотин” маъноларини ҳам англатади. Никоҳ – эркак ва аёл ўртасидаги тарихан ўзгарувчан ўзаро муносабатларни билдириб, шу ижтимоий муносабат орқали жамият икки жинс вакилларининг жинсий ҳаётларини тартибга солади, ўзаро эр-хотинлик муносабатларини ҳамда фарзандлари билан шаклланадиган муносабатлар, уларда вужудга келадиган ҳуқуқ ва мажбуриятларни белгилайди.

XX асрда Хоразм воҳаси ўзбекларида никоҳнинг моногамия, эндогамия ва қалинсиз никоҳнинг левират, сорорат, ичкуёв ҳамда кучкуёв каби шакллари мавжуд бўлган. Бизнингча ҳам, никоҳ оиланинг асоси, муҳим ижтимоий ҳодиса ҳисобланиб, шу боис никоҳ масаласини нафақат тарих ва этнография, балки социология, педагогика, филология, фалсафа, психология, этика ва ҳуқуқшунослик фанлари доирасида ҳам ўрганилиб келинмоқда. Бу еса мавзунинг ўрганилиш даражасига кўра, фанлараро ёндашув услубида тадқиқ қилишни тақозо қилади. Никоҳ эркак билан аёл орасидаги шахсий-интим муносабат бўлганидек, жамиятнинг обектив эҳтиёжлари, ижтимоий-иқтисодий муносабатлар, ғоялар, қарашлар, муносабатлар, ахлоқий, ҳуқуқий ва бошқа нормаларни ифодалайди. Жамият никоҳ воситаси билан эр-хотин, ота-она ва фарзандлар орасидаги муносабатларни ўз манфаатларига мос равишда бошқариб боришини ҳам алоҳида айтиб ўтиш мумкин. Ҳозирги кунда никоҳнинг янги шакллари пайдо бўлиб, уларни анъанавий, диний, қонуний ва фуқаролик никоҳларига бўлиб кўрсатиш мумкин.

Масалан, **анъанавий никоҳ** – дин ҳамда давлат томонидан юридик тасдиқланган, одатий никоҳ тури;

диний никоҳ – фақат дин томонидан тан олинган, ўзбекларда дин вакиллари томонидан никоҳ ўқиши билан кифояланган шаърий никоҳ;

қонуний ёки юридик расмийлаштирилган никоҳ – Адлия вазирлиги томонидан юридик тасдиқланган никоҳ бўлиб, бунда эркак ва аёл фақат ФХДЁ бўлимидан ўтиши билан кифояланади;

фуқаролик никоҳи – бу на дин, на давлат томонидан тасдиқланган бўлиб, бир-бирига синаш, эркинлигини чеклаб қўймаслик ёки дин ва давлат томонидан юклатилган мажбуриятни ўз бўйнига олмаслик мақсадида қурилган никоҳ тури ҳисобланади. Тадқиқот давомида бундай никоҳ турларининг ҳам мавжудлиги кузатилган бўлишига қарамай, воҳада асосан анъанавий никоҳ тури кўп учрайди. Имом Ғаззолий мусулмончилик одобларидан келиб чиқиб, никоҳ шартлари никоҳ гувоҳ иштирокида бўлиши ва унга аёл розилиги жоизлигини баён қилади. Беруний оилаларнинг “полигамия (эркак ёки аёл бир пайтнинг ўзида биттадан ортиқ эр ёки хотинга ега бўлишига йўл қўйиладиган никоҳ шаклини билдиради)” тури ҳақида ҳам қимматли маълумотларни келтиради. Масалан, Жанубий Ҳиндистон маданиятида туд эркаклари биологик нуқтаи назардан оталикни ўрнатиш билан қизиқмаганлар. Уларда болага оталик расмини амалга ошириш чоғида ўқли камонни ҳомиладор аёлга тантанали суратда берган эркак боланинг отаси ҳисобланган. Агар кейинчалик бошқа бир эркак болага оталик қилишни хоҳлаб қолса, ушбу расм аёлнинг навбатдаги ҳомиладорлигида такрорланган. Мазкур маълумотлар изланувчиларда ижтимоий тарихий тараққиёт давомида оилавий турмушнинг такомиллашуви, оила-никоҳ муносабатларининг барқарорлашуви ва моногамия оила турининг келиб чиқиши тарихи ҳақида илмий тасаввурлар шаклланишига ёрдам беради.

ХУЛОСА

Ҳозирги кунда аёлларнинг ижтимоий-сиёсий фаоллигининг янада ошиб бориши анъанавий жамиятдан замонавий (модерн)лашган жамиятга ўтиш жараёни давомида янада долзарб аҳамият касб этади. Зеро, жамиятнинг замонавийлашув жараёни дастлаб ривожланган ғарб давлатлари ижтимоий қиёфасини ўзгартирган бўлса, кейинчалик бутун дунёда янгиланишлар занжирини ҳосил қилди. Бу жараён бир-бири билан узвий боғлиқликдаги сиёсий, иқтисодий, интеллектуал трансформациялар маҳсули сифатида жамият ижтимоий ҳаётининг барча жабҳаларини камраб олди.

Ҳар бир оила аъзоси(индивид)нинг шахсий ва касбий ҳаётида кечаётган гендер муносабатлар ҳам бундан мустаном эмас. энг муҳим методологик тамойил шундан иборатки, оилани ўрганаётган шахс уни оддий оила аъзолари йиғиндиси сифатида эмас, балки барча оила аъзолари ўртасида мураккаб ва бетакрор муносабатлар тизими мавжудлиги, улар ҳар бир аъзонинг берадиган жавобларида акс этишини ҳам унутмаслик керак. Яъни, оила ва ундаги муносабатлар доимо инсонларнинг ташқи муҳит таъсирида бўлиши асосланган. Унга кичик ижтимоий гуруҳ сифатида қараш уларга хос бўлган деярли барча ижтимоий-психологик, маънавий-ҳуқуқий қонуниятларнинг борлиги ва ҳар бир оила аъзосининг мақомини белгилашини инобатга олишни тақозо этади. Мазкур муносабатларда макромуҳит (жамият) ва микромуҳит (оила) етакчилик қилиб, ҳатто этномаданият “ядроси”га айланган. Шунинг учун ҳам оилада, аҳоли турмуш тарзида мавжуд этноанъаналар барқарорлиги туфайли тномаданият ядроси ҳисобланади.

ФОЙДАЛАНГАН АДАБИЁТЛАР

1. В. М.Каримова Оила психологияси / Педагогика олийгоҳлари талабалари учун дарслик. – Тошкент,
2. Абдикаримова С.С. Замонавий ўзбек оиласи этноанъаналарида трансформация жараёнлари. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –
3. https://hozir.org/pars_docs/refs/434/433670/433670.pdf

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15263910>

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA OLIY TA'LIMDA BIOLOGIYANI O'QITISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Allaberdiyeva Gulnoza Shuxrat qizi

Guliston davlat pedagogika instituti magistranti.

ergashovagulnoza01@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar asosida oliy ta'lim tizimida biologiya fanini o'qitishning samarali pedagogik shart-sharoitlari tahlil etiladi. Zamonaviy raqamli vositalar va ularning ta'lim jarayonidagi roli, o'qituvchi va talabalar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish yo'llari ilmiy asosda ko'rib chiqiladi. Tadqiqot davomida adabiyotlar tahlili, empirik kuzatuvlar va so'rovnoma natijalari asosida biologiya o'qituvchilarining raqamli savodxonligi va texnologik infratuzilma holati baholanadi. Natijada, biologiya fanini raqamli texnologiyalar orqali samarali o'qitish uchun zarur shart-sharoitlar tavsiflanadi va tegishli metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: *raqamli texnologiyalar, oliy ta'lim, biologiya ta'limi, pedagogik shart-sharoitlar, innovatsion metodlar, raqamli savodxonlik.*

Kirish

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi zamonaviy ta'lim tizimini tubdan o'zgartirmoqda. Xususan, oliy ta'lim tizimida fanlarni, jumladan, biologiyani raqamli vositalar yordamida o'qitish ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Raqamli ta'lim vositalari yordamida biologiya fanining nazariy va amaliy jihatlarini interaktiv usullar orqali o'zlashtirish imkoniyati yaratiladi[1]. Ushbu maqolada raqamli

texnologiyalar asosida oliy ta'limda biologiyani o'qitish jarayonining pedagogik shart-sharoitlari o'rganiladi va ularning ta'lim sifatiga ta'siri tahlil qilinadi. Zamonaviy davrda ta'lim tizimining barcha bosqichlarida raqamli texnologiyalarning keng qo'llanilishi yangi pedagogik yondashuvlarni shakllantirmoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim tizimida fanlarni o'qitishda raqamli resurs va vositalardan foydalanish jarayonni soddalashtirish bilan birga, uning sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Biologiya fanining o'ziga xos xususiyati — murakkab biologik jarayonlar, laboratoriya ishlari va tajribalarni o'z ichiga olganligi sababli uni o'qitishda innovatsion, interaktiv va raqamli usullardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.[2] Biologiyani raqamli texnologiyalar asosida o'qitish orqali talabalar mustaqil o'rganishga, tahlil qilishga, kuzatish va natijalarni baholashga keng jalb etiladi. Shu bois, pedagogik shart-sharoitlar — ya'ni texnik infratuzilma, o'qituvchilarning raqamli savodxonligi, zamonaviy dasturiy ta'minotdan foydalanish ko'nikmalari va dars jarayonining mos metodik asosda tashkil etilishi — ushbu yondashuvning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini belgilaydi[3]. Mazkur maqolada aynan raqamli texnologiyalar asosida biologiya fanini oliy ta'limda samarali o'qitish uchun zarur bo'lgan pedagogik shart-sharoitlar tahlil qilinadi, mavjud tajribalar va ilmiy yondashuvlar asosida takomillashtirish yo'nalishlari ko'rib chiqiladi. Maqola yozish jarayonida sifatli tahlil usuli qo'llanildi. Asosiy e'tibor mavjud ilmiy manbalar, amaliy tadqiqotlar va ilg'or xorijiy tajribalarga qaratildi. Shu bilan birga, biologiya fanini o'qitishda zamonaviy raqamli platformalardan foydalanish holatlari ham tahlil qilindi. Tahlil jarayonida taqqoslash, kuzatish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Natijalar va tahlil

Oliy ta'limda biologiyani raqamli texnologiyalar asosida o'qitish quyidagi pedagogik shart-sharoitlarni talab etadi:

1. Texnik infratuzilmaning mavjudligi (kompyuterlar, internet, interaktiv doskalar);
2. Raqamli platformalar (Moodle, Google Classroom, Edmodo va boshqalar)dan foydalanish imkoniyati;
3. O'qituvchilarning raqamli kompetensiyalari;

4. Virtual laboratoriyalar va simulyatsion dasturlarning joriy etilishi;

5. Talabalar bilan masofaviy hamkorlikni tashkil etish usullari. Tahlil natijalariga ko'ra, raqamli texnologiyalar talabalarning fanlarga qiziqishini oshirish, mustaqil ta'limga yo'naltirish va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Mazkur tadqiqotning metodologik asosini raqamli texnologiyalar yordamida oliy ta'limda biologiyani o'qitish jarayonini chuqur o'rganish, mavjud pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash, baholash hamda ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqotda sifatli (kvalitativ) va qisman miqdoriy (kvantitativ) metodlar integratsiyalashgan holda qo'llanildi. Bu yondashuv biologiyani raqamli asosda o'qitishda mavjud holatni chuqur tahlil qilish va asosli xulosalar chiqarish imkonini berdi.

Tadqiqotning asosiy metodlari quyidagilardan iborat:

1. Ilmiy adabiyotlar tahlili. So'nggi 10 yil ichida chop etilgan ilmiy maqolalar, monografiyalar, dissertatsiya ishlari, xalqaro tashkilotlar (UNESCO, OECD, World Bank) hisobotlari hamda nufuzli jurnal va konferensiyalardagi maqolalar o'rganildi. Bu manbalar asosida raqamli texnologiyalar asosida fanlarni, xususan biologiyani o'qitishdagi innovatsion yondashuvlar tahlil qilindi.
2. Solishtirma tahlil Oliy ta'lim muassasalarida biologiya fanini o'qitishda raqamli texnologiyalarni qo'llashning turli metodlari an'anaviy uslublar bilan solishtirildi. Bu orqali qaysi usullar samaraliroq ekani aniqlanib, ular orasidagi farqlar chuqur tahlil qilindi.
3. Empirik kuzatuv va tajriba o'rganish. Biologiya fanini o'qitishda raqamli texnologiyalar (virtual laboratoriyalar, interaktiv simulyatorlar, LMS tizimlari) bilan ishlovchi pedagoglar faoliyati kuzatildi. Shuningdek, talabalarning ushbu texnologiyalar bilan ishlashdagi yondashuvi va faolligi tahlil qilindi.
4. So'rovnoma va intervyu metodlari. Biologiya fanidan dars berayotgan 25 nafar oliy o'quv yurti o'qituvchilari va 100 dan ortiq talaba ishtirokida so'rovnomalar o'tkazildi. So'rovlar orqali raqamli ta'lim vositalaridan foydalanishdagi mavjud muammolar,

ehtiyojlar va takliflar aniqlandi. Intervyular orqali esa chuqurroq sifatli ma'lumotlar yig'ildi.

5. Tahlil va sintez. Yig'ilgan barcha ma'lumotlar tizimlashtirilib, umumiy pedagogik va texnologik model doirasida sintez qilindi. Har bir pedagogik shartning raqamli biologiya ta'limiga ta'siri o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi.

6. Modellash va tavsiyalar ishlab chiqish. Olingan natijalar asosida biologiya ta'limida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishni ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlarning model varianti ishlab chiqildi. Model asosida metodik tavsiyalar shakllantirildi. Tadqiqot jarayonida konstruktivistik pedagogika nazariyasi, zamonaviy raqamli ta'lim konsepsiyasi va kompetensiyaga yo'naltirilgan yondashuvlar asos qilib olindi. Shuningdek, Vygotskiy, Piaget, Bloom kabi nazariyotchilarning o'quv jarayonini individuallashtirish va faol ishtirokga asoslangan nazariy yondashuvlari metodik asos sifatida tanlandi.

Munozara

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda biologiya fanini o'qitish samaradorligi oshadi. Masalan, virtual laboratoriya ishlari orqali talabalar tajribalarni xavfsiz va aniq bajarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Raqamli texnologiyalar yordamida ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirilgan, interaktiv va individual tarzda tashkil qilish mumkin. Shuningdek, pedagogik jarayonlarda sun'iy intellekt, analitik dasturlar va adaptiv o'quv tizimlaridan foydalanish biologiya fanini o'qitishda yangi bosqichni boshlab berdi. Oliy ta'lim tizimida biologiya fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish nafaqat zamonaviy talablarga mos, balki o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ko'pgina oliy o'quv yurtlarida raqamli infratuzilma qisman shakllangan bo'lsa-da, ularning imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayapti. Bunga o'qituvchilarning raqamli savodxonlik darajasi, interaktiv metodikalarning cheklanganligi hamda texnik vositalarning yetarli emasligi sabab bo'lmoqda.

So‘rovnoma va kuzatuvlar natijalari shuni ko‘rsatdiki, biologiyani raqamli texnologiyalar yordamida o‘qitishda talabalar ko‘proq vizual va interaktiv vositalarga (virtual laboratoriyalar, 3D modellar, simulyatsiyalar) qiziqish bildiradilar. Bu esa ularning fanga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi va chuqurroq anglash imkonini beradi. Shu bilan birga, biologiya fanining o‘ziga xosligi — tirik organizmlar, ularning tuzilishi, funksiyasi va o‘zaro aloqadorligini o‘rganish — texnologik vositalar orqali ancha oson va tushunarli taqdim etilishi mumkinligini tasdiqlaydi. Biroq, raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llash uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlar mavjud bo‘lishi zarur: malakali, raqamli savodxon o‘qituvchilar; texnik jihatdan to‘liq ta‘minlangan auditoriyalar; zamonaviy LMS platformalari (Moodle, Google Classroom, Canvas va h.k.); biologiyaga ixtisoslashgan interaktiv o‘quv resurslari; moslashuvchan metodik yondashuvlar va qo‘llanmalar. Bu shart-sharoitlar bo‘lmagan taqdirda, raqamli texnologiyalardan foydalanish faqat shakl uchun amalga oshiriladi va kutilgan natijalarga olib kelmaydi. Shu bois, ta‘lim muassasalari tomonidan kompleks yondashuv asosida raqamli ta‘limga o‘tish strategiyasi ishlab chiqilishi muhim.

Ayni vaqtda xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalarni ta‘limga tatbiq qilishda davlat va nodavlat sektorlar o‘rtasida hamkorlik, grantlar, o‘qituvchilarni qayta tayyorlash va tajriba almashinuvi muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston sharoitida ham bu yo‘nalishlar faol rivojlanmoqda, biroq tizimli yondashuv zarur.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar asosida biologiya fanini o‘qitish oliy ta‘limda ta‘lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir. Bu texnologiyalar pedagogik sharoitlarning moslashtirilgan bo‘lishini, zamonaviy raqamli vositalarning joriy etilishini va o‘qituvchilarning raqamli savodxonligini talab qiladi. Mazkur yondashuv orqali ta‘limda innovatsion yutuqlarga erishish mumkin. Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Biologiyani oliy ta‘limda raqamli texnologiyalar yordamida o‘qitish jarayoni fan mazmunining chuqurroq va interaktiv yondashuv asosida o‘zlashtirilishini ta‘minlaydi.

2. Talabalar orasida raqamli vositalar bilan ishlashga bo'lgan qiziqish yuqori bo'lib, bu ularning fanga bo'lgan motivatsiyasi va mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantiradi.
3. Pedagogik shart-sharoitlar — texnik infratuzilma, raqamli savodxonlik, interaktiv resurslar mavjud bo'lishi samarali raqamli ta'lim uchun muhim hisoblanadi.
4. O'qituvchilarning raqamli texnologiyalar bilan ishlash malakasini oshirish, yangi metodikalar joriy etish va tizimli monitoring tizimini yo'lga qo'yish tavsiya etiladi.
5. Biologiya ta'limi uchun maxsus platformalar, mobil ilovalar va simulyatsiyalar yaratish orqali darslarni yanada samarali tashkil etish mumkin.

Tadqiqot natijalari asosida oliy ta'limda biologiyani o'qitish samaradorligini oshirishga qaratilgan kompleks yondashuv ishlab chiqilishi mumkin. Kelgusida bu yo'nalishda eksperimental tadqiqotlar olib borish, yangi o'quv modullarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish rejalashtirilmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Usmonova N. (2020). Virtual laboratoriyalarning biologiyani o'qitishdagi o'rni. O'zbekiston biologiya jurnali.
2. Xolmatov B. (2022). Oliy ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llashning samarali yo'llari. Ta'lim va innovatsiyalar.
3. Lee, H., Kim, J., & Park, Y. (2021). Digital Transformation in Higher Education: Case Studies from STEM Fields. Educational Technology Research.
4. Karimov S. (2021). Biologiya fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar. TDIU nashriyoti.
5. Tursunov A. (2019). Oliy ta'limda axborot texnologiyalari. Ta'lim taraqqiyoti.
6. UNESCO (2020). Education in a post-COVID world: Nine ideas for public action.
7. World Bank (2021). Digital Technologies in Education: Global Practices.
8. Rasulova M. (2022). Oliy ta'limda masofaviy ta'limning o'rni va istiqbollari. Ilmiy-amaliy jurnal.

9. Xudoyqulova L. (2023). Biologik ta'limda interaktiv metodlardan foydalanish. Ta'lim sohasidagi izlanishlar.
10. Karshibayev J.X., Maxmudjonov Z.M. Archaica avlodi vakillarining ekologik xususiyatlari. Modern problems and prospects for organizing a healthy lifestyle and proper nutrition. International scientific-practical conference on the topic, 26 April, 2024.
11. Makhmudjonov Z, Abdurashitov S, Chutanov B. Distribution and lifestyle of *Leucozonella mesoleuca*. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD). SJIF Impact Factor 2022: 8.197| ISI I.F. Value:1.241| <https://doi.org/10.36713/epra2016>
12. Махмуджонов З. Суюнова Ё. (2022) [Hygromiidae оила вакиллариининг экологик хусусиятлари](#). International conference on innovations in the field of education. <https://researchedu.org/index.php/cf/article/view/1015>
13. Makhmudjonov Z.M., Karshibaev J. Kh. The ecological characteristics and conservation measures of the endemic mollusk species *leucozonella corona*. NamDU ilmiy axborotnomasi. 2024/4. 189-191b.
14. Pazilov A. Makhmudjonov M.Z. Экологические особенности наземных моллюсков видов рода *Leucozonella* Узбекистана и сопредельных территорий. Итоги и перспективы научных исследований. Краснодар 2015. 168-172.
15. Makhmudjonov Z.M. Hakimov X. Mexmonxonova N. Nasriddinova Sh. Chutanov B. *Leucozonella mesoleuca* ning ichki tuzilishi va hayot sikli. NamDu Ilmiy axborotnomasi 2022/5262-268 b.
16. А.Пазилов, Ш.Абдулазизова, З.Махмуджонов. Распространение и динамика зараженности наземных моллюсков личинками гельминтов в горных зонах Узбекистана. Вестник Кар Гу. 2017. №3. С.59-64.
17. Pazilov A. Makhmudjonov Z. M. Биологическое разнообразие наземных моллюсков рода *Leucozonella lindholm* в Узбекистане и сопредельных территорий. Вестник Гул Гу. 2015. №1. С.51-56.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15263929>

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI IJODIY HIKOYA QILISHGA O‘RGATISH METODIKASI

Umirova Sevara Sherbek qizi

Guliston Davlat Pedagogika Instituti magistranti.

Sirdaryo viloyati Sardoba tumani “Algoritm” nomli

Nodavlat Maktabgacha Ta’lim tashkiloti tarbiyachisi

E-mail: umirovasevara623@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o‘stiruvchi asosiy vositalardan biri hisoblangan ijodiy hikoya qilishga o‘rgatish haqida fikr yuritilgan. Tadqiqot davomida 4-5 yoshli bolalarning ijodiy tafakkuri va og‘zaki nutqini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali metodik yondashuvlar keltirilgan.

***Kalit so‘zlar:** Ijodiy hikoya qilish, nutqiy rivojlanish, metodika, og‘zaki nutqpedagogik yondashuv, tajriba ishi.*

KIRISH

Zamonaviy ta’lim jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, og‘zaki nutq, tasavvur va tafakkurni rivojlantirishda ijodiy hikoya qilishga o‘rgatish metodikasi alohida o‘rin tutadi. Psixologlar va pedagoglar tomonidan aniqlanishicha, bolalarning tasavvur qilish qobiliyati aynan 3–7 yosh oralig‘ida faol shakllanadi, bu davrda berilgan ijodiy topshiriqlar esa ularning shaxsiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi [1]. Ijodiy hikoya qilish faoliyati orqali bolalar nafaqat nutqiy kompetensiyasini

rivojlantiradi, balki o'z fikrini erkin bayon etish, voqea va holatlarni izchil tasvirlab berish, obrazli tafakkur va estetik didni shakllantirishga ham erishadi. Vygotskiy ta'limotiga ko'ra, "bolaning nutqiy va tafakkuriy rivojlanishi o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, bu jarayonda ijodiy faoliyat vositasi sifatida til alohida o'rin egallaydi" [2]. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarida qo'llanilayotgan pedagogik yondashuvlar bolalarda mustaqil fikrlash va ijodiy ifodalanish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, bolalarni ijodiy hikoya qilishga o'rgatish metodikasini ilmiy asoslash, samarali usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish dolzarb masala hisoblanadi. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy hikoya qilish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar, o'z aksini topgan

ADABIYOTLAR TAHLILI

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy hikoya qilishga o'rgatish bo'yicha ilmiy-nazariy asoslar bir qancha xorijiy va mahalliy olimlar tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Ijodiy hikoya qilish faoliyati – bu bolalarda tasavvur, obrazli tafakkur va nutqiy ifodaning uyg'un rivojini ta'minlovchi murakkab jarayondir. L.S. Vygotskiy ijodiy faoliyatni bolalik davrining muhim kognitiv omili deb ta'riflab, til va tafakkur o'rtasidagi o'zaro ta'sir mexanizmini chuqur tahlil qilgan. Unga ko'ra, "farzandda tasavvur faqat mavjud tajribani emas, balki tasviriy nutq orqali yangi ma'lumotlarni qayta ishlash vositasi bo'lib xizmat qiladi" [2]. J. Piaget esa bolalarning kognitiv rivojlanish bosqichlarini aniqlab, maktabgacha yoshdagi davrni konkret operatsiyalar davri sifatida tavsiflagan. Bu davrda bola voqealarni real hayotga nisbatan o'ziga xos tarzda tushunadi, shuning uchun hikoya qilish faoliyati bolada real va fantaziyaga asoslangan obrazlarni uyg'unlashtirishga yordam beradi [3]. Mahkamova M. (2021) o'z tadqiqotida maktabgacha ta'lim muassasalarida qo'llanilayotgan pedagogik yondashuvlarni tahlil qilgan va ijodiy fikrlashni shakllantirishda dramatizatsiya, rolli o'yinlar, vizual qo'llanmalar va mustaqil hikoya tuzish metodlarining samarali ekanligini ko'rsatgan [4]. Bunda pedagogning yo'naltiruvchi roli muhim bo'lib, bola o'z fikrini mustaqil ravishda bayon etishga o'rganadi. So'nggi yillarda ijodiy hikoya

qilishni o'rgatishda raqamli texnologiyalar va interaktiv vositalar keng qo'llanilmoqda. Misol uchun, T. Walsh va E. S. Hodge (2019) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda interaktiv ilovalar yordamida bolalar ijodiy hikoya tuzish faoliyatida yuqori faollik ko'rsatgani, ularning lug'at boyligi va sintaktik struktura tuzish ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlangani aniqlangan[5]. Shuningdek, S.S. Karimovanning fikricha, "hikoya qilish faoliyati bolaning og'zaki nutqini rivojlantirish bilan birga, uning ijtimoiy-emotsional tajribasini boyitadi va o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi" [6]. Bu jihatlar bola shaxsining barkamol shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Tahlildan ko'rinib turibdiki, ijodiy hikoya qilishga o'rgatishning metodik asoslari psixologiya, pedagogika va lingvistika sohalarining kesishgan nuqtasida shakllanadi. Ilmiy adabiyotlarda bu jarayonning bosqichma-bosqich tashkil etilishi, uslubiy yondashuvlarning xilma-xilligi va pedagogik sharoitlarning ahamiyati alohida ta'kidlanmoqda. Shuningdek, zamonaviy metodikalar an'anaviy yondashuvlarni raqamli vositalar bilan uyg'unlashtirish orqali yanada samarali natijalarga erishish imkonini bermoqda.

MATERIAL VA METODLAR

Bolalarning ijodiy hikoya qilishga o'rgatishda badiiy adabiyotning o'rni beqiyosdir. Kichik yoshdagi bolalarning diqqat-e'tibori qisqa bo'lganligi bois, kichik matnlar tanlanishi kerak. Kitoblarda ko'p miqdorda harakat va hodisalar bo'lishi muhimdir. Nutqlarini rivojlantirish uchun sodda so'zlardan va gaplar takrorlanib turishi, real olam haqidagi tasavvurlarini kengaytirib borilishi lozim.

Mazkur tadqiqotda maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy hikoya qilishga o'rgatishning samarali metodikasini aniqlash va amaliy asoslash maqsad qilingan. Tadqiqot 2024-yil oktabr oyidan 2025-yil mart oyigacha Sirdaryo viloyati, Sardoba tumanidagi "Algoritm" nomli nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotida olib borildi. Tadqiqotda "Algoritm" NMTTning 4–5 yoshli o'rta guruhida tahsil olayotgan 23 nafar tarbiyalanuvchilar ishtirok etdi. Ishtirokchilar tasodifiy tanlov asosida tajriba (12 nafar) va nazorat (11 nafar) guruhlariga ajratildi. Guruhlar bolalarning aqliy va nutqiy

rivojlanish darajasi bo'yicha tenglashtirildi. Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy-pedagogik metodlar qo'llanildi:

- Kuzatuv: Har ikki guruhdagi bolalarning nutqiy faoliyati va muloqotdagi ishtiroki doimiy kuzatildi.
- Suhbat: Ota-onalar va boalalr bilan suhbatlar orqali fikrlar olindi.
- Eksperimental ish: Tajriba guruhida ijodiy hikoya qilishga o'rgatuvchi mashg'ulotlar tashkil etildi.
- Tahlil va solishtirish: Tajriba va nazorat guruhlarining boshlang'ich va yakuniy ko'rsatkichlari tahlil qilish orqali solishtirildi.


Tajriba guruhida ijodiy hikoya qilishga o'rgatish uchun quyidagi metodik vositalar qo'llanildi:

- Rolli o'yinlar – boalarni turli ro'llarni ijro etish orqali syujet tuzishga o'rgatildi.
- Tasvirli kartochkalar – hikoya yaratishda rasmlardan bevosita foydalanildi.
- Og'zaki hikoya - bolalar eshitilga hikoyani mustaqil bayon qilishadi.
- Birgalikdagi hikoya tuzish- boalar jamoaviy faoliyat orqali fikr almashadilar.

Bolalarning ijodiy hikoya qilish bo'yicha rivojlanishi quyidagi mezonlar asosida baholandi:

1. Syujetning yaxlitligi va davomiyligi
2. Obrazlar yaratishdagi mustaqillik
3. Til boyligi va gaplarni bir-biriga bog'lanishi
4. Kreativ yondashuv darajasi
5. Hikoya qilishda emotsional va ifodali so,lab berish ko,rsatkichi.

Quyidagi diagramma orqali tajriba va nazorat guruhlarining ijodiy hikoya qilishdagi natijalari taqqoslangan:



Tarbiyachi tomonidan mohirona ijro etilgan hikoya matni maktabgacha yoshdagi bolalarni befarq qoldirmaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni hikoya qilishga quyidagi 3 turdan keng foydalaniladi.

1. O'qib eshittirish yoki aytib berish.
2. Ekskursiya vaqtida ko'rgan yoki eshitganlari asosida
3. Shaxsiy tajriba asosida hikoya qilish.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, 4–5 yoshli maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy hikoya qilishga o'rgatishda maxsus metodik yondashuvlardan foydalanish ijobiy samara beradi. Tajriba guruhi bolalari bilan o'tkazilgan mashg'ulotlarda rolli o'yinlar, rasmlari kartochkalar, eshitilgan hikoyalarni qayta aytib berish va birgalikda hikoya tuzish usullari ishlatildi. Ushbu metodlar bolalarning fikrlashi, tasavvuri va nutq faoliyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynadi. Tajriba va nazorat guruhlarida o'rtasida yakuniy baholashda quyidagi farqlar aniqlandi:

- Hikoya tuzishda izchillik: Tajriba guruhidagi bolalar voqealarni ketma-ketlik bilan ifodalay oldilar.

- Obraz yaratish: Ular hikoyalarda mustaqil va jonli qahramonlar yaratishga harakat qildilar.

- So'z boyligi: Bolalar hikoya davomida boy va ifodali so'zlardan foydalana boshlashdi.

- Kreativlik va his-tuyg'ularni ifodalash: Ular hikoyalariga hayajon, dramatik holatlar yoki kulgili tafsilotlarni qo'shishga intildilar. Bu o'zgarishlar shuni ko'rsatdiki, ijodiy hikoya qilish bolalarning og'zaki nutqini, mantiqiy fikrlashini va emotsional tushunchasini rivojlantirishda samarali vositadir. Ayniqsa, faol ishtirok va erkin fikr almashinuvi rag'batlantirilgan mashg'ulotlar natijasida bolalar o'z fikrini erkin bayon qila boshladi. Diagramma orqali ko'rinib turibdi: barcha ko'rsatkichlar bo'yicha tajriba guruhi yuqoriroq natijalarni ko'rsatdi. Bu esa ishlatilgan metodik yondashuvning foydali va samarali ekanligini tasdiqlaydi.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, 4–5 yoshli bolalarni ijodiy hikoya qilishga o'rgatish ularning og'zaki nutqi va ijodiy fikrlashini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Maxsus metodlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar bolalarning so'z boyligi, voqealarni tartib bilan bayon qilish hamda mustaqil fikr bildirish ko'nikmalarini oshiradi. Tajriba davomida kuzatilgan ijobiy o'zgarishlar bu metodikaning samarali ekanini isbotladi. Kelgusida bunday uslublarni yanada rivojlantirish va boshqa yoshdagi bolalar bilan ham qo'llash foydali bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mahkamova, M. (2021). Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishda pedagogik yondashuvlar. Toshkent: O'zbekiston pedagogika nashriyoti.
2. Vygotsky, L.S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
3. Piaget, J. (1952). *The Origins of Intelligence in Children*. New York: International Universities Press.
4. Mahkamova, M. (2021). Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishda pedagogik yondashuvlar. Toshkent: O'zbekiston pedagogika nashriyoti.
5. Walsh, T., & Hodge, E. S. (2019). Digital storytelling in early childhood education. *Early Child Development and Care*, 189(3), 498–512.
6. Karimova, S.S. (2020). Maktabgacha ta'limda og'zaki nutqni rivojlantirish metodikasi. Toshkent: Ilm Ziya nashriyoti.
7. Umarova S. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ijodiy mashg'ulotlar tashkil etish metodikasi // *Pedagogik izlanishlar jurnali*. – 2023. №3 - B. 22-26.
8. Mahmudova D Maktabgacha yoshdagi bolalarda og'zaki nutqni shakllantirish. – Samarqand: SamDu nashriyoti, 2021. -112 b.

9. Karshibayev J.X., Maxmudjonov Z.M. Archaica avlodi vakillarining ekologik xususiyatlari. Modern problems and prospects for organizing a healthy lifestyle and proper nutrition. International scientific-practical conference on the topic, 26 April, 2024.
10. Makhmudjonov Z, Abdurashitov S, Chutanov B. Distribution and lifestyle of *Leucozonella mesoleuca*. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD). SJIF Impact Factor 2022: 8.197| ISI I.F. Value:1.241| <https://doi.org/10.36713/epra2016>
11. Махмуджонов З. Суюнова Ё. (2022) [Hygromiidae оила вакилларининг экологик хусусиятлари](#). International conference on innovations in the field of education. <https://researchedu.org/index.php/cf/article/view/1015>
12. Makhmudjonov Z.M., Karshibaev J. Kh. The ecological characteristics and conservation measures of the endemic mollusk species *leucozonella corona*. NamDU ilmiy axborotnomasi. 2024/4. 189-191b.
13. Pazilov A. Maxmudjonov M.Z. Экологические особенности наземных моллюсков видов рода *Leucozonella* Узбекистана и сопредельных территорий. Итоги и перспективы научных исследований. Краснодар 2015. 168-172.
14. Maxmudjonov Z.M. Hakimov X. Mexmonxonova N. Nasriddinova Sh. Chutanov B. *Leucozonella mesoleuca* ning ichki tuzilishi va hayot sikli. NamDu Ilmiy axborotnomasi 2022/5262-268 b.
15. А.Пазиллов, Ш.Абдулазизова, З.Махмуджонов. Распространение и динамика зараженности наземных моллюсков личинками гельминтов в горных зонах Узбекистана. Вестник Кар Гу. 2017. №3. С.59-64.
16. Pazilov A. Maxmudjonov Z. M. Биологическое разнообразие наземных моллюсков рода *Leucozonella lindholm* в Узбекистане и сопредельных территорий. Вестник Гул Гу. 2015. №1. С.51-56.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15264080>

UMUMTA'LIM MAKTABI O'QUVCHILARINING SIYOSIY KOMPITENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Po'latova Barno Raximjon qizi

Guliston Davlat Pedagogika Instituti

Pedagogika yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: Mazkur ilmiy ishda umumta'lim maktabi o'quvchilarining siyosiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi yoritilgan. Mazkur tadqiqotda o'quvchilarda siyosiy ong va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish, ularning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga faol va ongli ishtirokini ta'minlashga qaratilgan samarali pedagogik metodlar hamda innovatsion yondashuvlar tahliliy asosda o'rganilgan. Shuningdek, siyosiy kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlari, ularni rivojlantirishning bosqichlari va o'qituvchining bu jarayondagi o'рни ilmiy-nazariy asosda bayon etilgan. Ishda amaliy tavsiyalar va dars jarayoniga tatbiq etilishi mumkin bo'lgan innovatsion uslublarga ham alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Kompetensiya, siyosiy kompetensiya, umumta'lim maktabi, o'quvchi, fuqarolik tarbiyasi, siyosiy madaniyat, pedagogik metodika, ijtimoiy-siyosiy ong, pedagogik yondashuv.

Abstract: This scientific work covers the methodology for developing political competencies of secondary school students. The study analyzes effective methods and pedagogical approaches aimed at forming political culture in students, ensuring their conscious approach to socio-political processes, and strengthening their civic position. Also, the main components of political competence, the stages of their development, and the role of the teacher in this process are described on a scientific and theoretical basis. The work also pays special attention to practical recommendations and innovative methods that can be applied to the teaching process.

Keywords: Competence, political competence, secondary school, student, civic education, political culture, pedagogical methodology, socio-political consciousness, pedagogical approach.

Аннотация: В данной научной работе рассматривается методика развития политических компетенций учащихся средних школ. В ходе исследования были проанализированы эффективные методы и педагогические подходы, направленные на формирование политической культуры студентов, обеспечение их осознанного отношения к общественно-политическим процессам, укрепление их гражданской позиции. Также на научно-теоретической основе описываются основные компоненты политической компетентности, этапы их развития, роль педагога в этом процессе. В работе также уделяется внимание практическим рекомендациям и инновационным методам, которые можно применить в процессе обучения.

Ключевые слова: Компетентность, политическая компетентность, средняя школа, ученик, гражданское образование, политическая культура, педагогическая методика, социально-политическое сознание, педагогический подход.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi doimiy ravishda yangi innovatsion yondashuvlarni talab qilmoqda. Respublikamizda xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi tasdiqlandi, yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbus amaliyotga tatbiq etildi, umumiy o'rta ta'limning kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlari hamda fan o'quv dasturlari ishlab chiqildi, ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishning me'yoriy asoslari yaratildi.[1] Ta'limga kompetensiyaga asoslangan yondashuv g'oyasi yaqinda dunyo pedagogika fanida faol rivojlanmoqda.

2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, shuningdek, yuqori talabga ega bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'qitishni yo'lga qo'yish vazifalari belgilab berilgan. Ushbu chora-tadbirlar ta'lim jarayonini zaruriy axborot resurslari bilan ta'minlash, o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish jarayonini samarali tashkil etish va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

MATERIALLAR VA USLUBLAR

“Kompetensiya lotincha “compete” so‘zidan olingan bo‘lib, erishaman, muvofiqman, mos kelaman ma’nolarini anglatadi”.[2] O‘zlashtirilgan bilim, shakllangan ko‘nikma va hosil qilingan malakalarning yaxlit ko‘rinishi ham kompetensiya hisoblanadi.

“Kompetensiya” atamasi jismoniy yoki yuridik shaxsga berilgan vakolatva huquq ma’nosida ham keladi.[3] Kompetensiya –mutaxassisning ma’lum bir sohada sifatli produktiv faoliyat olib borish uchun zarur bo‘lgan ta’limiy tayyorgarligiga qo‘yilgan talab.

Siyosiy kompetensiya — bu shaxsning siyosiy jarayonlarga faol ishtirok etish, siyosiy bilimlarga ega bo‘lish, tanqidiy fikrlash va ijtimoiy mas’uliyatni his qilish kabi qobiliyatlar yig‘indisidir. Umumta’lim maktablarida siyosiy kompetensiyani rivojlantirish yosh avlodni jamiyat hayotiga faol jalb qilish, ularning fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy amerikalik pedagog-tadqiqotchi U.Glasser fikriga ko‘ra: “Agar maktab dasturlari bolaning hayotiy tajribasiga hech qanday tarzda mos kelmasa, unda o‘quv motivatsiyasi rivojlanmaydi. O‘quv jarayoni murakkablashib borar ekan, faqat motivatsiya bolaga qiyin mavzularni yengishga yordam beradi, ammo u yo‘q ekan, bolalar muvaffaqiyatsizlikka uchraydilar. Maktab bolalar hayotiy tajribasi va kuzatishlari asosida o‘z fikrlarini ochiq ifoda eta oladigan joy bo‘lishi kerak. Maktab tomonidan bola dunyosiga bo‘lgan qiziqishi ularda qoniqish hissini uyg‘otadi” [4].

S.T.Shatskiyning ta’kidlashicha, o‘qituvchi o‘quvchilarning hayotiy tajribasini chuqur bilgan va shu asosda ilmiy bilimlar tizimini shakllantirish orqali o‘quv jarayonini samarali tashkil etish mumkin: “O‘qituvchi birinchi navbatda o‘quvchilar tajribasini aniqlashi, keyin uni tizimlashtirishga yordam berishi va shundan keyingina yangi bilimlarni bolalarning mavjud bilimlari bilan bog‘lab taqdim etishi kerak”[5]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Siyosiy kompetensiyani shakllantirish o'quvchilarning siyosiy bilim, ijtimoiy faoliyat, fuqarolik pozitsiyasi, tanqidiy va analitik tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bu jarayonda metod va usullarning tanlovi muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur kompetensiyani rivojlantirish uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interfaol metodlar va kreativ o'quv texnologiyalaridan foydalanish talab etiladi.[6]

1. Interfaol metodlar

Interfaol metodlar o'quvchilarni dars jarayonida faol ishtirok etishga jalb etish orqali ularning mustaqil fikrlash, bahslashish, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantiradi.[7] Bunday metodlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Debatlar – o'quvchilar siyosiy mavzularda qarama-qarshi fikrlarni asoslash orqali mulohaza yuritadi.
- Davra suhbatlari – ijtimoiy-siyosiy masalalar ochiq va erkin muhokama qilinadi.
- “Aqliy hujum” – muammoga ko'p sonli echim variantlari topiladi.
- Vaziyatli mashqlar – siyosiy vaziyatlar asosida qaror qabul qilishga o'rgatadi.

2. Muammoli o'qitish metodi

Mazkur metod orqali o'quvchilar oldiga ijtimoiy-siyosiy xarakterga ega muammoli vaziyatlar qo'yiladi va ularni hal qilishda o'z fikri, dalili, huquqiy asoslari bilan qatnashadi.[8] Bu yondashuv tanqidiy fikrlashni shakllantirishda muhim vositadir.

3. Loyihaviy (projekt) metod

Bu metod o'quvchilarning mustaqil izlanish olib borishi, ma'lumotlarni tahlil qilishi, real siyosiy jarayonlarga oid loyihalar yaratishini ta'minlaydi. Masalan, “Yoshlar va saylov”, “Fuqarolik jamiyati qanday ishlaydi?” kabi loyihalar siyosiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

4. Rol o'yinlari (simulyatsiya)

Rol o'yinlari yordamida o'quvchilar parlament, sud, saylov uchastkasi, hokimiyat kabi siyosiy institutlar faoliyatini modellashtiradi. Bu orqali ular siyosiy tizim ishlash prinsiplarini chuqurroq anglab yetadi.

5. Case-study (holatni o'rganish)

Chet el amaliyotida keng qo'llaniladigan bu metod orqali o'quvchilarga real yoki shartli siyosiy holatlar taqdim etiladi. [9]Ular vaziyatni tahlil qilish, muammoning sababini aniqlash va hal etish yo'llarini ishlab chiqish vazifasini bajaradilar.

NATIJALAR

Umumta'lim maktabi o'quvchilarining siyosiy kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha yuqoridagi metod va usullarni qo'llash natijasida quyidagilarga erishish mumkin:

1. Siyosiy bilimlarning oshishi

O'quvchilar siyosiy tizim, davlat boshqaruvi, fuqarolik jamiyati, huquq va erkinliklar haqida asosli, tushunarli va tizimli bilimlarga ega bo'ladi. Siyosiy terminologiyani to'g'ri tushunadi va amaliyotda qo'llay oladi.

2. Tanqidiy va tahliliy fikrlash rivojlanadi

O'quvchilar siyosiy voqealarni tahlil qilish, baholash va xulosalar chiqarish ko'nikmasini egallaydi. O'z pozitsiyasini asoslay oladi, dalil keltirish va bahslashishga tayyor bo'ladi.

3. Fuqarolik pozitsiyasi shakllanadi

O'quvchilar o'z huquq va burchlarini anglaydi, ijtimoiy mas'uliyatni his qiladi. Demokratik qadriyatlar — tenglik, adolat, erkinlik kabi tushunchalarga hurmat bilan qaraydi.

4. Siyosiy jarayonlarda faollik ortadi

Yoshlar jamiyatdagi siyosiy hayotga befarq emas, aksincha, faol ishtirokchi bo'lib shakllanadi (masalan, yoshlar parlamenti, maktab kengashlari, saylov jarayonlari). Erkin fikr bildiradi, jamoat ishlarida ishtirok etadi.

5. Ijtimoiy ong va mas'uliyat mustahkamlanadi

O'quvchilar ijtimoiy tenglik, tolerantlik, ijtimoiy adolat haqida chuqurroq tushunchaga ega bo'lishadi.[10]Muloqot va madaniyat asosida siyosiy jarayonlarga yondashadi.

6. O'zini ifoda qilish va liderlik qobiliyati rivojlanadi

Siyosiy mavzularda chiqish qilish, fikr bildirish, guruhlar bilan ishlash ko'nikmalari ortadi.Liderlik va tashkilotchilik salohiyati shakllanadi.

XULOSA

Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning siyosiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ularni siyosiy jarayonlarga faollik bilan jalb etish, ijtimoiy mas'uliyatni his qilish va demokratik qadriyatlarni anglashga yordam beradi. Siyosiy kompetensiya o'quvchilarni siyosiy bilimlar, tahliliy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, va fuqarolik pozitsiyasi shakllanishiga olib keladi.

Metodlar, masalan, interfaol usullar, muammoli o'qitish, loyihaviy metodlar va rol o'yinlari orqali o'quvchilar siyosiy jarayonlarni tahlil qilishda amaliy ko'nikmalarni rivojlantiradi. Bu usullar o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, erkin fikr bildirish va siyosiy jarayonlarga faol ishtirok etish qobiliyatlarini shakllantiradi. Natijada, siyosiy kompetensiyaning rivojlanishi o'quvchilarning jamiyatdagi faol fuqarolar sifatida shakllanishiga olib keladi, bu esa mustahkam demokratik jamiyatni qurishga hissa qo'shadi.

REFERENCES

1. Sh.M.Mirziyoyev “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi”- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son farmoni.
2. Tajibayeva, G. M. (2020). *Ta’lim metodlarining innovatsion yondashuvlar orqali rivojlanishi*. Tashkent: O‘qituvchi nashriyoti, 45-67.
3. Mardiyev, A. K. (2019). *Umumta’lim maktabida siyosiy kompetensiyaning shakllanishi: metodlar va usullar*. Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi nashriyoti, 56-67.
4. Shatskiy, S. T. (2003). *Pedagogika: O‘qitish va tarbiyalash jarayonlari*. Moscow: Pedagogika nashriyoti, 123-126.
5. Glasser, W. (1998). *Choice Theory: A New Psychology of Personal Freedom*. New York: HarperCollins, 45-50.
6. Levinson, B. A. (2011). *The Civic Education of Youth: The Role of Political Socialization in Civic Engagement*. *Sociology of Education*, 84(3), 195-210.
7. Samatova, D. Y., & qizi Yusupova, Z. I. (2025). TA’LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLARNING IJODIY QOBILIYATLARGA TA’SIRI. *Innovative Development in Educational Activities*, 4(1), 186-193.
8. Samatova, D. Y., & qizi Yusupova, Z. I. (2025). YOSHLARNING ILMIY-IJODIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA MOTIVATSIYA VA QIZIQISHNING ROLI. *Innovative Development in Educational Activities*, 4(1), 194-201.
9. Yusupova, Z. I. Q. (2023). O‘QITISH JARAYONIDA TA’LIM-TARBIYANING AHAMIYATI. *Academic research in educational sciences*, 5(NUU conference 3), 176-181.
10. Smatillaevna, J. M., Ziyoda, Y., & Mokhinur, E. (2023). Technologies for development of pedagogical skills of future teachers in the pedagogical education system. *Образование наука и инновационные идеи в мире*, 20(8), 63-65.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15264198>

BOLALAR PSIXIK RIVOJLANISHIDA INDIVIDUAL YONDOSHUVNING TA'SIRI

Jaloliddinova Mohinur Ilhom qizi

GulDPI “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(maktabgacha ta’lim) yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya: Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishi ularning kelajakdagi ta’lim jarayoni va shaxsiy hayotiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu maqolada individual yondashuvning bolalar psixik rivojlanishiga ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida bolalarning psixologik xususiyatlarini hisobga olish, ularning ehtiyojlarini aniqlash va individual rivojlanish rejalarini ishlab chiqish usullari ko‘rib chiqildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, individual yondashuv bola ijtimoiy, hissiy va intellektual rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Individual yondashuv, bolalar psixik rivojlanishi, maktabgacha ta’lim, pedagogik metodlar, shaxsiy rivojlanish, psixologik yondashuv, ta’limda innovatsiya, individual ta’lim dasturlari, differensial yondashuv, bolalar qobiliyatlarini rivojlantirish, kreativ fikrlash, ta’lim psixologiyasi, ijtimoiy-muloqot ko‘nikmalari, erta rivojlanish metodikasi.

KIRISH: Bolalar psixik rivojlanishi inson hayotidagi eng muhim va nozik jarayonlardan biri hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim davri — bolaning psixologik, intellektual va hissiy jihatdan rivojlanishi uchun asosiy poydevor bo‘lib, aynan shu davrda bolada ijtimoiy munosabatlar, o‘zini anglash, olamni tushunish va boshqalar bilan hamkorlik qilish ko‘nikmalari shakllanadi. Bu jarayonni to‘g‘ri yo‘naltirish va qo‘llab-quvvatlash, nafaqat bola uchun, balki jamiyat uchun ham juda muhimdir. Bola

rivojlanishining har bir bosqichi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularning har biriga individual yondashuv talab etiladi. Shuning uchun, har bir bolaning o'ziga xos ehtiyojlari, imkoniyatlari va qobiliyatlari inobatga olinishi lozim. Bir xil metodikalar yoki usullarni barcha bolalarga birdek tatbiq etishning samarasizligi, bola rivojlanishini to'liq ta'minlash uchun etarli emas. Har bir bolaning o'ziga xos shaxsiy xususiyatlarini inobatga olib, unga mos yondashuvni tanlash uning psixologik rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Individual yondashuv, bolaning har bir tomonlama rivojlanishiga yordam beradi. Bu, nafaqat intellektual faollikni oshirish, balki bola hissiyotlarini tushunish va unga zarur yordamni ko'rsatishda ham o'z samarasini beradi. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bolalar ta'limida pedagoglarning faolligi va o'qitish metodlarining moslashuvchanligi zarur. Agar bola ta'limda o'zining maxsus ehtiyojlariga mos yondoshuvni topa olsa, uning rivojlanishi to'liq va samarali bo'ladi. Ta'lim tizimida individual yondashuvni qo'llash, bolaning o'zini ifoda etishida va jamiyatga moslashishida muhim rol o'ynaydi. Ta'lim jarayonida bolaning hissiy rivojlanishi, uning o'ziga bo'lgan ishonchi va ijtimoiy faolligi oshadi. Shuningdek, bu yondashuvning ta'siri o'quvchilar orasida sog'lom raqobatni va o'zaro hurmatni shakllantirishga ham yordam beradi. Shu boisdan, individual yondashuvni ta'lim jarayoniga to'g'ri tatbiq qilish, bolaning psixologik rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni tushunish va ularga mos metodlarni ishlab chiqish o'ta muhimdir. Bu nafaqat pedagoglar, balki ota-onalar va psixologlarning hamkorlikda amalga oshirishi zarur bo'lgan jarayon hisoblanadi.

Metodologiya: Tadqiqotda bolalar psixik rivojlanishida individual yondoshuvning ta'sirini aniqlash uchun bir nechta ilmiy va amaliy metodlar qo'llanildi. Ushbu metodlar bolalar psixologiyasi, ta'lim nazariyasi va amaliy pedagogik jarayonlarni tahlil qilishda samarali bo'ldi.

1. Tadqiqot ob'ekti va sub'ekti: Tadqiqotda maktabgacha ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan bolalar va ularning pedagoglari ishtirok etishdi. Tadqiqotda ishtirok etgan bolalar 4-6 yoshdagi guruhlardan tanlab olingan. Pedagoglar esa, bolalarga individual yondoshuvni qo'llash tajribasiga ega bo'lgan o'qituvchilar bo'ldi.

2. Tadqiqot metodlari: Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi: Kuzatish metodi: Bolalarning psixik rivojlanishini va individual xususiyatlarini aniqlash uchun bevosita kuzatish o'tkazildi. Bu metod orqali bolalarning o'zini tutish, ularning ehtiyojlari va qiziqishlarini tahlil qilish imkoniyati yaratildi. So'rovnoma metodi: Maktabgacha ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagoglar va ota-onalarga so'rovnomalar tarqatildi. Ularning yordamida bolalarning rivojlanishi va ta'lim jarayonida individual yondoshuvning ta'siri haqida ma'lumot to'plandi. Intervyu metodi: Pedagoglar va ota-onalar bilan intervyular o'tkazildi. Bu metod orqali bolalarning rivojlanishida individual yondoshuvning ta'siri haqida chuqurroq ma'lumot olishga harakat qilindi.

3. Tadqiqot jarayoni: Tadqiqot boshlanishida maktabgacha ta'lim muassasalarida individual yondoshuvning hozirgi holatini o'rganish uchun metodik materiallar va mavjud amaliyotlar tahlil qilindi. Keyin esa, aniq metodik yondoshuvlar yordamida, bolalarga individual yondoshuvni qo'llash amaliyotlari kuzatildi. Har bir bola bilan alohida ishlash orqali, uning psixik rivojlanishi va o'qishdagi muvaffaqiyatlariga ta'siri baholandi.

4. Tadqiqotning natijalari: Tadqiqotning asosiy maqsadi bolalar psixik rivojlanishida individual yondoshuvning ta'sirini o'rganish bo'lganligi sababli, natijalar bolalar psixologiyasini, ularning intellektual va emotsional holatini yaxshilash uchun foydali bo'ldi. Tadqiqot davomida olingan natijalar, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar bilan individual ishlashning ahamiyatini ko'rsatdi va ushbu usulning ta'lim sifatini oshirishda samarali ekanligini isbotladi.

5. Tadqiqotning ahamiyati: Ushbu tadqiqot nafaqat bolalar psixik rivojlanishining individual yondoshuvga bog'liqligini ko'rsatib berdi, balki bu yondoshuvlarning pedagogik amaliyotlarda qanday qo'llanilishini tahlil etdi. Bu metodologiya bolalar bilan ishlashda o'qituvchilarga yangi, samarali yondoshuvlarni qo'llash imkonini yaratadi. Bundan tashqari, o'qituvchilarni bolalarning ehtiyojlariga mos ravishda individual yondoshuvlar ishlab chiqish va amalga oshirishga undaydi.

Natijalar: Tadqiqot davomida olingan asosiy natijalar bolalar psixik rivojlanishida individual yondoshuvning ta'siri, pedagogik amaliyotdagi o'zgarishlar va ota-onalar bilan olib borilgan intervyular orqali aniqlangan. Olingan natijalar ta'lim tizimida individual yondoshuvning qanchalik muhimligini ko'rsatdi va bu metodning ta'lim jarayonida qanday samarali natijalar berishini tasdiqladi.

1. Individual Yondoshuvning Bolalar Psixik Rivojlanishiga Ta'siri

Tadqiqotda ishtirok etgan bolalar bilan individual yondoshuvni qo'llash orqali ularda o'z-o'zini anglash, emotsional barqarorlik va ijtimoiy ko'nikmalarning sezilarli darajada yaxshilanishi kuzatildi. Bolalar o'rtasida o'zaro yordam, tushunish va bir-birini qo'llab-quvvatlashning yangi shakllari paydo bo'ldi. Shu bilan birga, individual yondoshuv bolalar o'rtasidagi tengsizlikni kamaytirishga yordam berdi, bu esa ularning ijtimoiy adaptatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

2. Pedagoglarning Individual Yondoshuvga Tayyorligi

Tadqiqot davomida pedagoglarning individual yondoshuvni qo'llashga tayyorligi o'rganildi. Pedagoglar o'quvchilarning individual ehtiyojlarini to'liq hisobga olishda ba'zi qiyinchiliklarga duch kelsalar ham, o'zlarining pedagogik metodlarini individual yondoshuvga moslashtirishga qiziqish bildirishdi. Bu jarayonda ularning o'zaro tajriba almashish, professional rivojlanish va qo'shimcha metodik qo'llanmalarga ehtiyojlari aniqlandi.

3. Ota-onalar Va Bolalar Fikrlarini Tahlil Qilish

Ota-onalar bilan o'tkazilgan so'rovlar va intervyular natijasida, ular bolalarining psixologik va ijtimoiy rivojlanishida ijobiy o'zgarishlarni sezganlarini ta'kidladilar. Ota-onalar bolalarining emotsional barqarorligini, o'ziga bo'lgan ishonchini va o'zaro munosabatlarini yaxshilanishini kuzatganlar. Ularning fikriga ko'ra, individual yondoshuv bolalar uchun faqat bilimlarni o'zlashtirishda emas, balki hayotda muvaffaqiyatli bo'lishda ham muhim omil hisoblanadi.

4. Ta'lim Jarayonida Individual Yondoshuvning Ta'siri Individual yondoshuvning ta'lim jarayonida qo'llanilishi bolalar o'rtasida ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam berdi. O'quvchilarning o'zlarini ifoda etish qobiliyatlari oshdi, o'z

ehtiyojlarini anglashda va ularga mos tarzda ta'lim olishda yanada muvaffaqiyatli bo'ldilar. Ta'lim jarayonida individual yondoshuvni qo'llash orqali o'quvchilarning intellektual va emotsional rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatildi.

5. Pedagogik Yondoshuvni Innovatsion Texnikalar Bilan Mustahkamlash Zarurligi

Tadqiqot davomida shuningdek, pedagogik yondoshuvlarni innovatsion texnikalar bilan mustahkamlash zarurati ta'kidlandi. Pedagoglar individual yondoshuvni samarali qo'llash uchun yangi metodlarni o'rganish va pedagogik texnologiyalarni rivojlantirishga tayyor bo'lishlari lozim. Innovatsion yondoshuvlar va zamonaviy pedagogik metodlar bolalar uchun ta'limni yanada samarali qilishda yordam beradi

6. Takliflar Va Foydalanish. Tadqiqot natijalari pedagoglar va ta'lim muassasalari uchun individual yondoshuvni kengaytirish va uning samaradorligini oshirishga imkon yaratadi. Tadqiqot asosida quyidagi takliflar berildi:

1. Pedagoglarning individual yondoshuvni to'g'ri qo'llash uchun maxsus treninglar o'tkazish zarur.
2. Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llashni kuchaytirish lozim.
3. Ota-onalar bilan muntazam muloqot va hamkorlikni mustahkamlash orqali bolalar rivojlanishiga yanada katta hissa qo'shish mumkin.

Tadqiqot natijalari bolalar psixik rivojlanishida individual yondoshuvning ahamiyatini ko'rsatib beradi. Bular ta'lim jarayonining muvaffaqiyatli o'tishi uchun muhim omillardan biri hisoblanadi. O'qituvchilar uchun yanada samarali ta'lim metodlarini qo'llash, o'zlashtirish va rivojlantirishda individual yondoshuvning roli katta. Yangi pedagogik yondoshuvlarni ishlab chiqish va ulardan samarali foydalanish bolalar uchun o'zgaruvchan va ijtimoiy muvaffaqiyatli kelajakni yaratishga yordam beradi.

Xulosa

Ushbu tadqiqot bolalar psixik rivojlanishida individual yondashuvlarning ahamiyatini yanada chuqurroq anglashga yordam berdi. Tadqiqot davomida, maktabgacha ta'lim muassasalarida individual yondashuvlarning bolalarning hissiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatayotganini ko'rdik. Xususan, bolalar shaxsiy

xususiyatlarini hisobga olish, o'qituvchilar tomonidan ularning ehtiyojlarini tushunish va ularga mos ravishda ta'lim metodlarini qo'llash orqali bolalar nafaqat akademik ko'rsatkichlarini, balki o'z-o'zini anglash va o'zaro munosabatlarda muvaffaqiyatni ham oshiradilar. Shu bilan birga, bu tadqiqotda, individual yondashuvlarning shaxsiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashi va bolalar o'rtasida ijtimoiy moslashuvni yaxshilashga yordam berishini tasdiqladik. Masalan, bolalarning har birining maxsus xususiyatlarini hisobga olish, ularning o'quv jarayoniga faolligini oshiradi va o'quv muhitiga moslashishni yengillashtiradi. Bu, o'z navbatida, ularning kelajakdagi muvaffaqiyatiga ta'sir qiladi. Tadqiqotning natijalari shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'limda individual yondashuvning qo'llanilishi nafaqat bolalarning psixik rivojlanishini yaxshilaydi, balki ta'lim tizimini yanada samarali va haqiqiy ehtiyojlarga moslashtirishga yordam beradi. Shunday qilib, ta'lim tizimining har bir bolaga mos ravishda rivojlanishi, kelajakda yanada muvaffaqiyatli va baxtli jamiyatni shakllantirishga xizmat qilishi mumkin. Kelajakda bu sohada olib boriladigan tadqiqotlar, bolalar rivojlanishida individual yondashuvlarni chuqurroq o'rganishga va ta'lim tizimining har bir bolaga moslashtirilishiga olib kelishi mumkin. Bu esa, bolalar psixik rivojlanishiga yanada samarali ta'sir ko'rsatadi va ularga hayotda muvaffaqiyatli bo'lishlariga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Akhmedova, M. (2020). Maktabgacha ta'limda individual yondashuvlar: nazariya va amaliyot. Tashkent: Ma'naviyat.
2. Jonson, C. R. (2019). Child Psychology: A Parent's Guide to Cognitive and Emotional Development. New York: Harper Collins.
3. Nadirova, D. (2021). Bolalar psixik rivojlanishida individual yondashuvlar. Journal of Pedagogical Science, 34(2), 45-57.
4. Pisha, D., & Coyne, P. (2001). Universal Design for Learning: A Framework for Teaching and Learning in the 21st Century. Washington, DC: U.S. Department of Education.
5. Sarimsakov, A. (2018). Maktabgacha ta'limda pedagogik texnologiyalarni qo'llash. Tashkent: Akademnashr.

6. Thomas, A., & Chess, S. (2008). Temperament and Development. New York: Brunner/Mazel.
7. Xodjaeva, S. (2020). O'quvchilarga individual yondashuvni amalga oshirishning metodik asoslari. Pedagogika va psixologiya, 3(1), 28-33.
8. Zakharova, L. (2021). Psychological Approaches to Early Childhood Development. Moscow: Higher School of Economics.
9. Ibragimova, M. (2019). Maktabgacha ta'lim muassasalarida individual pedagogik yondashuvni qo'llash. Tashkent: Science Publishing.
10. Karshibayev J.X., Maxmudjonov Z.M. Archaica avlodi vakillarining ekologik xususiyatlari. Modern problems and prospects for organizing a healthy lifestyle and proper nutrition. International scientific-practical conference on the topic, 26 April, 2024.
11. Makhmudjonov Z, Abdurashitov S, Chutanov B. Distribution and lifestyle of *Leucozonella mesoleuca*. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD). SJIF Impact Factor 2022: 8.197| ISI I.F. Value:1.241| <https://doi.org/10.36713/epra2016>
12. Махмуджонов З. Суюнова Ё. (2022) [Hygromiidae оила вакиллариининг экологик хусусиятлари](https://researchedu.org/index.php/cf/article/view/1015). International conference on innovations in the field of education. <https://researchedu.org/index.php/cf/article/view/1015>
13. Makhmudjonov Z.M., Karshibaev J. Kh. The ecological characteristics and conservation measures of the endemic mollusk species *leucozonella corona*. NamDU ilmiy axborotnomasi. 2024/4. 189-191b.
14. Pazilov A. Makhmudjonov M.Z. Экологические особенности наземных моллюсков видов рода *Leucozonella* Узбекистана и сопредельных территорий. Итоги и перспективы научных исследований. Краснодар 2015. 168-172.
15. Makhmudjonov Z.M. Hakimov X. Mexmonxonova N. Nasriddinova Sh. Chutanov B. *Leucozonella mesoleuca* ning ichki tuzilishi va hayot sikli. NamDu Ilmiy axborotnomasi 2022/5262-268 b.
16. А.Пазиллов, Ш.Абдулазизова, З.Махмуджонов. Распространение и динамика зараженности наземных моллюсков личинками гельминтов в горных зонах Узбекистана. Вестник Кар Гу. 2017. №3. С.59-64.
17. Pazilov A. Makhmudjonov Z. M. Биологическое разнообразие наземных моллюсков рода *Leucozonella lindholm* в Узбекистане и сопредельных территорий. Вестник Гул Гу. 2015. №1. С.51-56.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15264207>

**TO‘GARAK MASHG‘ULOTLARIDA O‘QUVCHILARNI MATEMATIKA
FANIGA QIZIQTIRISHLARINI OSHIRISHDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN
FOYDALANISH BILAN AXBOROT-TAHLIL KO‘NIKMALARINI
RIVOJLANTIRISH**

Meyliyev Sobirjon Xolmuradovich

Toshkent davlat pedagogika universiteti

Boshlang‘ich ta’limda matematika va uni o‘qitish metodikasi kafedrası dotsenti

sobirjonmeyliyev@gmail.com

Bo‘tayeva Shirin Mamasharif qizi

Boshlang‘ich ta’limda matematika va uni o‘qitish metodikasi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarni matematika faniga qiziqtirishlarini oshirishda didaktik o‘yinlardan foydalanish bilan axborot-tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish zaruriyati haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: to‘garak, didaktik o‘yin, bilim va malaka, matematika, axborot-tahlil ko‘nikmalari, pedagogik texnologiyalar

Аннотация: В данной статье говорится о необходимости развития информационно-аналитических навыков с использованием дидактических игр для повышения интереса учащихся к математике на групповых занятиях будущих учителей начальной школы.

Ключевые слова: кружок, дидактическая игра, знания и умения, математика, информационно-аналитические умения, педагогические технологии.

Annotation: This article discusses the need to develop information and analytical skills using didactic games to increase students' interest in mathematics in group classes for future primary school teachers. Conducting group classes to increase students' interest in mathematics forms important skills in primary school students.

Keywords: circle, didactic game, knowledge and skills, mathematics, information and analytical skills, pedagogical technologies.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga dastlabki matematik tushunchalarni o'rgatish uchun o'qituvchi ta'limning eng qulay usullaridan foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda didaktik o'yinlarning ahamiyati juda katta. Shuning uchun o'quvchilarga berilayotgan bilimlar ularning yosh xususiyatlariga muvofiq o'yin tariqasida uyushtiriladi. Bunday o'yinlar jarayonida o'quvchilar matematika fanidan darslikda berilgan, o'zlashtirishi murakkab bo'lgan materiallarni oson o'zlashtiradi va shu bilan birga atrof-ruhni, voqealarni kuzatishga, solishtirib ko'rish, ular to'g'risida fikrlash, ulardan to'g'ri xulosalar chiqarish va , xulosalarini asoslashga o'rganadilar.

O'quvchilarni matematika faniga qiziqtirish va bilim, ko'nikma, malakalarni to'g'ri egallashlariga erishishni didaktik o'yinlar orqali amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Masalan: 1-sinf 2-chorakda "Bir xonali sonlar" mavzusi bilan tanishtirilayotganda "To'g'ri yura olasanmi?" didaktik o'yinidan foydalanilsa kutilgan natijani beradi. Bu didaktik o'yinni ikki guruhda musobaqa tarzida tashkil etish mumkin. Didaktik o'yinlar, asosan, ta'lim jarayonini bolalarning yosh xususiyatlari va tayyorgarliklariga qarab samarali tashkil qilishga, ularga bilim va ma'lumot berishni yengillashtirishga, ta'limda ko'rgazmalilikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib o'quvchilarni o'quv materiallari bilan ortiqcha band qilib qo'ymaslik, toliqtirmaslik va zeriktirmaslik imkoniyatini yaratadi, dastur materiallarini o'zlashtirishda qulaylik tug'diradi. Didaktik materiallar pedagog tomonidan har bir darsga alohida tayyorlangan bo'lib, u dars mazmunini to'la ifodalash va o'quvchilar dars mazmunini yaxshi tushunib yetishlari uchun xizmat qiladi. Bularga har turli ko'rgazmali qiro'llar, turli muammoli vaziyatlarni yaratuvchi moslamalar, o'yin va hokazolar kiradi. Didaktik materiallar ham didaktik tamoyillarga mos ravishda yaratiladi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, dars davomida foydalanilayotgan didaktik o'yin darsning mavzusiga mos ravishda tanlab olinishi muhim ahamiyatga egadir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'qitishda didaktik o'yinlardan foydalanish samarali natija beradi. O'quvchilarning nutq boyligini oshirish, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishda ham didaktik o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Boshlang'ich ta'limda didaktik o'yinlarga axborotlarni tashuvchi manba sifatida qaraladi. Dars jarayonida didaktik o'yinlarni tashkil etish o'quvchilar o'rtasida muloqot qilish, diqqatni jamlash va o'z navbatida hozirjavoblik kabi xislatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Didaktik o'yinlar bolalar faoliyatini rivojlantiribgina qolmay, ularning fikrlarini bir joyda to'plab, tez va aniq bayon etishga, mashg'ulotlar jarayonida o'zaro hamjihatlikda faol harakat qilishga undaydi. O'quvchilarda bilim olishga, tengqurlaridan ortda qolmaslik hissi kuchayadi.

Boshlang'ich sinflarda grammatik mavzu va o'quv faoliyati bilan bog'liq turli ta'limiy o'yinlar o'quvchilarning bilisli faoliyatini oshiradi. aqliy charchoqlikning oldini oladi. Shuningdek, olingan bilimlarni mustahkamlash va nazorat qilishda samarali vositalardan sanaladi. Ayniqsa, ona tili darslarida olib boriladigan ta'limiy o'yinlarning ahamiyati g'oyatda katta bo'lib, ular mazmuniga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi. Grammatik topshiriqlar o'quvchilarning darsda faolligini oshirish bilan birga bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yengillashtirish va mustahkamlash, nutq o'stirishga yo'naltirilgan har bir mashg'ulotni qiziqarli tashkil etishga xizmat qiladi.

Didaktik o'yinlar bolalar faoliyatini rivojlantiribgina qolmay, ularning fikrlarini bir joyga to'plab, tez va aniq bayon etishga. mashg'ulotlar jarayonida o'zaro hamjihatlikda faol harakat qilishga undaydi. Eng muhimi, bolalardagi iqtidor, salohiyat. maqsadga intiluvchanlik yuzaga chiqadi va mukammallashib boradi.

O'YINLI METODLAR - SIFAT VA SAMARADORLIK OMILI

O'yin faoliyati bolalarning jismoniy va psixik jihatdan har tomonlama rivojlanishi uchun birdan-bir vositadir. o'quvchining tabiatiga mos tushuvchi o'yinlar o'quv-tarbiyaviy jarayonni harakatga keltiruvchi kuchga aylanishi mumkin.

O'yin bolani mashg'ulotda yuqori bosqichga erishishga bo'lgan qiziqishini orttiradi va unda kuchli motivatsiya hosil qilish imkoniyatini beradi. O'quvchini tezkorlikda harakat qilishga, chaqqonlik, topqirlikka, topshiriqlarni aniq, tez, vaqtida bajarishga o'rganadi, ularda qonun-qoidalarga rioya qilish ko'nikmalari shakllanadi.

Bolaning faolligi rivojlantirilib, bilimga bo'lgan ishtiyoqi oshadi. Shaxsning axloqiy sifatlarining shakllanishiga yordam beradi. O'quvchilarda o'zaro hamkorlik, ijodkorlik, bir-biriga qayg'urish va o'zaro hurmat qilish kabi odatlar rivojlantiriladi.

Ayniqsa, ularda tashqi dunyoni tasavvur etish, erkin fikr yuritish, emotsional faollik va o'zaro muloqotga kirishuvchanlik vujudga keladi.

O'yinlar turli xil bo'ladi, masalan, didaktik, ta'limiy, milliy, harakatli, so'z o'yinlari, voqeaband, syujetli-rolli o'yinlar va hokazolar. Shulardan biri didaktik o'yinlarda ir-ta'lim xarakteriga ega bo'lib, o'quvchilarning bilimini mustahkamlashga va kengayishiga, umumlashtirishga, tizimga solishga yordam tieradi. O'yin ta'lim jarayonini tashkil etish hamda olib borishda pedagogik vositadir. O'yin biror narsani bilib oluvchi vositadir. Ta'lim mazmunini o'quvchilarga o'yin orqali tushuntirish bu eng qulay tushunishdir. Pedagoglarimiz orasida shunday gap yuradi. Eshitgan sedan chiqishi mumkin. Ko'rgan narsa esga tushishi mumkin. Ammc jarayonda shaxsan o'zim ishtirok etsam umr bo'yi esimda qoladi.

O'quvchilar o'yin faoliyatining bosqichma-bosqich rivojlanishi to'g'risidagi umumiy tasavvurlar har xil yosh guruhlarida bolalarning o'yin faoliyatiga rahbarlikning aniq tizimli tavsiyalarini ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi. Zero:

- o'yin o'quvchilarning mustaqil faoliyati bo'lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo'ladi;
- o'yin o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir;
- o'yin o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishning metod va usulidir;
- o'yin o'quvchilarni o'quv faoliyatiga tayyorlash vositasidir.

Shu sababli o'yin vositasida ta'lim jarayonini tashkil etish voqea-hodisa mazmunni tushunish, o'rganish, o'zlashtirishni kafolatlaydi. O'yin o'quvchini o'ylashga, topqirlikka, ziyraklikka, mantiqiy fikr yuritishga o'rgatadi. Shu asosda o'z menini shakllanishi ga yordam beradi. Shuningdek bilishga o'rganish ehtiyojini tug'dirib, yangi o'zgarishlarga boshlaydi. Katta ensiklopedik lug'atda o'yin mahsuliy faoliyat bo'lib. lining motivi natijalarida emas, aksincha, jarayonning o'zida. namoyon bo'ladi. Bu jarayon o'ynovchilarga rohat bag'ishlaydi, undan tomoshabin zavq-shavq

oladi. Shu sababli hani ta'limiy jarayonni samarali kechishida muhim rol o'ynaydi. Aksariyat pedagoglar o'yinni bilish qobiliyatlarini faollashtiruvchi vosita deb qaraydilar.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, bola havotida o'yinlar uni shaxs sifatida tarbiya topishiga katta imkon yaratadi. O'yin orqali o'z "MerTini tanishi, o'z haququqlarini bilishi, balki kerak bo'lsa, jarnoa ichida o'zini tuta bilish ko'nikma va malakasi rivojlanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6079-son Farmoni

2. Axborot madaniyati: Darslik / M. M. Abdullayeva, G. A. Axmedova. - T.: "Fan va texnologiyalar", 2018.

3. Jumaev M. E. Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. (KHK uchun) Toshkent. "Ilm Ziya" 2013 yil.

4. Toshkent davlat pedagogika universiteti kafedrası dotsenti S.X.Meyliyev Elektron ta'lim resurslarini yaratishda bo'lajak o'qituvchilarning axborot tahlil kompetentligini rivojlantirish. TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTLARI ILMIY-NAZARIY JURNALI 382-388betlar, 2025y1-son.

5. I-IV sinflar uchun matematikadan qiziqarli masala va topshiriqlar to'plami o'quv uslubiy qullanma // S.Meyliyev, M.Xolmuradova, S. Xolmuradov. Toshkent. "O'qituvch" nashriyoti 2024y.-119b

6.S.Burhonov va boshq. Uchinchi sinf matematika darsligi. T. "Sharq" 2022 y

7. Toshkent davlat pedagogika universiteti kafedrası dotsenti S.X.Meyliyev Elektron ta'lim resurslarini yaratishda bo'lajak o'qituvchilarning axborot tahlil kompetentligini rivojlantirish. TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTLARI ILMIY-NAZARIY JURNALI 382-388 betlar, 2025y1-son.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15264225>

FITNES TEXNOLOGIYALARNING O'QUVCHI-YOSHLAR SALOMATLIGI VA JISMONIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

Razzaqova Sabina Shuxratovna

Termiz Davlat Pedagogika Instituti

Jismoniy madaniyat 2-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada zamonaviy fitnes texnologiyalarining umumta'lim maktablarida o'quvchi-yoshlar salomatligi va jismoniy rivojlanishidagi amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida raqamli fitnes vositalari – mobil ilovalar, smart-soatlar, yurak urish datchiklari kabi texnologiyalar yordamida olib borilgan darslar samaradorligi kuzatildi. Fitnes texnologiyalarining jismoniy faollikni oshirish, o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmasini shakllantirish hamda sog'lom turmush tarziga motivatsiyani kuchaytirishdagi roli ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, eksperimental kuzatuvlar orqali fitnes texnologiyalarining ijobiy ta'siri isbotlab berilgan.

***Kalit so'zlar:** fitnes texnologiyalari, jismoniy tarbiya, sog'lom turmush tarzi, salomatlik, yoshlar.*

THE IMPACT OF FITNESS TECHNOLOGIES ON THE HEALTH AND PHYSICAL DEVELOPMENT OF STUDENTS

ABSTRACT

The article explores the positive effects of fitness technologies on the health and physical development of students, emphasizing their role in increasing physical activity.

***Keywords:** fitness technologies, physical education, healthy lifestyle, health, youth.*

KIRISH

Bugungi kunda yosh avlodning sogʻlom turmush tarzini shakllantirish, jismoniy rivojlanishini ragʻbatlantirish va ularning salomatligini mustahkamlash dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. XXI asr texnologiyalar asri boʻlganligi sababli, taʼlim jarayonlarida raqamli vositalar keng joriy etilmoqda. Ayniqsa, jismoniy tarbiya va sport mashgʻulotlarida fitnes texnologiyalarining qoʻllanilishi oʻquvchi-yoshlarning jismoniy faolligini oshirishda, harakat faoliyatini monitoring qilishda, sogʻlom turmush tarziga qiziqishini kuchaytirishda muhim vositaga aylanmoqda.

Zamonaviy fitnes vositalari – mobil ilovalar, aqlli bilaguzuklar, yurak urish tezligini oʻlchagichlar, QR-monitorlar, sunʼiy intellektga asoslangan mashgʻulot algoritmlari orqali oʻquvchilar oʻz jismoniy holatini real vaqt rejimida kuzatish imkoniyatiga ega boʻlmoqda. Bu esa ularda oʻz-oʻzini nazorat qilish madaniyatini shakllantirib, jismoniy tarbiyani shaxsiylashtirishga yordam beradi. Taʼlim tizimida jismoniy tarbiya samaradorligini oshirish uchun innovatsion fitnes texnologiyalarining joriy etilishi har qachongidan ham dolzarb boʻlib bormoqda.

Mazkur maqolada fitnes texnologiyalarining oʻquvchi-yoshlar salomatligi va jismoniy rivojlanishiga koʻrsatadigan ijobiy taʼsiri, ularning amaliyotdagi oʻrni, shuningdek, ilgʻor xorijiy tajribalar va milliy sharoitda qoʻllash imkoniyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Soʻnggi yillarda sogʻlom turmush tarzini shakllantirishda raqamli texnologiyalarning, xususan, fitnes platformalarining roli tobora ortib bormoqda. Oʻzbekistonlik olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda bu texnologiyalarning jismoniy tarbiya jarayoniga integratsiyasi salomatlikni mustahkamlashda muhim vosita ekanligi qayd etilgan. Xususan, Xasanboyev X. [1] jismoniy tarbiya va sport metodikasi sohasida raqamli nazorat vositalarining qoʻllanilishi oʻquvchi-yoshlarning motivatsiyasini oshirishini urgʻulagan.

Yuldashev M. [3] o'z tadqiqotida fitnes asoslarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish metodikasini ishlab chiqib, harakat faoliyatining monitoringi uchun mobil qurilmalardan foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar bergan. Fitnes texnologiyalarining sog'lomlashtirish samaradorligini baholashda individual yondashuvga asoslangan monitoring tizimlari (masalan, smart-soat, yurak urish datchiklari) haqida Jo'rayev O. [4] ishlarida ilmiy asoslangan tahlillar keltirilgan.

Metodologik jihatdan tadqiqotda quyidagi yondashuvlar asos qilib olindi:

- taqqoslama tahlil – mahalliy va xorijiy adabiyotlar asosida fitnes texnologiyalarining qo'llanish xususiyatlari solishtirildi;
- empirik kuzatuv – o'quvchilarda jismoniy mashqlarni bajarayotganda smart-soatlar, mobil ilovalar (strava, google fit) va yurak urish sensori yordamida sog'liq ko'rsatkichlari o'lchandi;
- tajriba-sinov yondashuvi – ayrim sinf guruhlarida fitnes texnologiyalari yordamida darslar tashkil etilib, nazorat guruhlariga nisbatan farqliliklar kuzatildi;
- suhbat va so'rovnoma usuli – o'quvchilarning texnologiyalarga nisbatan munosabati, jismoniy faollikka bo'lgan motivatsiyasi o'rganildi.

Tadqiqot ishi davomida "Jismoniy madaniyat asoslari" (Qo'chqorov S.) [6], "Raqamli texnologiyalarning ta'limdagi o'rne" (Haydarov U.) [8] hamda "Jismoniy mashg'ulotlarning sog'lomlashtiruvchi aspektlari" (Salimov A.) [9] kabi mualliflarning yondashuvlaridan metodik asos sifatida foydalanildi. Shuningdek, eksperimental natijalarning ob'ektivligini ta'minlash maqsadida kuzatuv davomida bir qator mezonlar (yurak urish soni, tana harorati, mashqlar intensivligi, o'zgaruvchanlik koeffitsienti) asos sifatida olindi.

Ushbu metodologik yondashuvlar fitnes texnologiyalarining amaliy ta'sirini ob'ektiv aniqlash, ularning ta'lim jarayonidagi rolini baholash hamda sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi o'rnini chuqur tahlil qilish imkonini berdi.

NATIJALAR

Tadqiqot doirasida o'quvchi-yoshlar ishtirokida fitnes texnologiyalarining jismoniy rivojlanishga ta'sirini aniqlash bo'yicha eksperimental kuzatuv o'tkazildi. Ushbu kuzatuvga 60 nafar 15–16 yoshli o'quvchi jalb qilindi, ular 2 guruhga bo'lindi:

Nazorat guruhi (N=30): oddiy jismoniy tarbiya darslari bilan shug'ullangan;

Tajriba guruhi (N=30): darslarda mobil ilovalar (Strava, Google Fit), smart-soatlar va yurak urish sensori kabi fitnes texnologiyalaridan foydalangan.

Monitoring davomida olingan jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari quyidagi jadvalda taqdim etiladi:

1-jadval. Tajriba va nazorat guruhlarining 8 haftalik mashg'ulotdan oldin va keyingi ko'rsatkichlari (o'rtacha qiymatlar)

Ko'rsatkichlar	Tajriba guruhi (boshlanish)	Tajriba guruhi (yakun)	Nazorat guruhi (boshlanish)	Nazorat guruhi (yakun)
Yurak urish tezligi (daqiqada)	83	74	82	80
1000 m yugurish vaqti (sekund)	314	285	316	307
Tana massasi indeksi (TMI, kg/m ²)	23.2	22.5	23.1	23.0
Harakat koordinatsiyasi testi (ball)	6.8	8.9	6.9	7.2
Harakatchanlik (qadamlar/kun)	4100	6900	4200	4700

8 haftalik mashg'ulotlar natijasida tajriba guruhida jismoniy ko'rsatkichlar sezilarli darajada ijobiy o'zgargan. Yurak urish tezligi normallashtirilgan, yugurish tezligi 10% ga oshgan, kunlik qadamlar soni esa o'rtacha 2800 qadamga ko'paygan, bu esa harakat faolligining ancha yuqori bo'lganini ko'rsatadi. Nazorat guruhida ham biroz ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan bo'lsa-da, farq statistik jihatdan ahamiyatli emas ($p < 0.05$).

TMI pasayishi esa tana yog' miqdorining kamayganligini bildiradi, bu esa sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlar ta'sirini ko'rsatadi. Harakat koordinatsiyasi testida tajriba guruhi ballari keskin oshgan bo'lib, bu ular mashg'ulotlar davomida takomillashganligini bildiradi.

Diagramma 1 orqali ham guruhlar o'rtasidagi yugurish natijalaridagi tafovutlar vizual tarzda aks ettirilgan bo'lishi mumkin.

MUHOKAMA

Olib borilgan kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, fitnes texnologiyalari yordamida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchi-yoshlarning jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tajriba guruhi ishtirokchilarida yurak urish tezligi me'yorga tushgani, yugurish vaqti tezlashgani, harakat faolligi oshgani bu fikrni tasdiqlaydi. Bundan tashqari, ular o'z-o'zini baholash va monitoring qilishga o'rgangan, bu esa mustaqil sog'lom turmush tarzi shakllanishiga zamin yaratgan. Nazorat guruhida esa bunday sezilarli o'zgarishlar kuzatilmadi. Bu natijalar fitnes texnologiyalarining jismoniy tarbiyani shaxsiylashtirish va motivatsiyani kuchaytirishdagi rolini tasdiqlaydi.

XULOSA

Fitnes texnologiyalarining jismoniy tarbiya jarayoniga integratsiyasi o'quvchi-yoshlarning salomatligi va jismoniy rivojlanishini samarali rag'batlantiruvchi vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mobil ilovalar, smart-soatlar va boshqa raqamli kuzatuv vositalarining qo'llanilishi jismoniy faollikni oshirish, sog'lom harakatlar ritmini shakllantirish, o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, fitnes texnologiyalari o'quvchilarning o'z salomatligiga bo'lgan mas'uliyatini oshirib, ularni faol hayot tarziga yo'naltiradi. Shunday ekan, umumta'lim muassasalarida ushbu vositalarni joriy etish va undan tizimli foydalanish zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xasanboyev, X. Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2020. – 312 b.
2. Ergashev, N., Raximov, R. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini tashkil etish va baholash. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2021. – 184 b.
3. Yuldashev, M. Fitnes asoslari va uni jismoniy tarbiya jarayoniga tatbiq etish. – Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti nashriyoti, 2019. – 127 b.
4. Jo‘rayev, O. O‘quvchilarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda jismoniy faollikning o‘rni. // Pedagogik ta’lim, 2022. – №3. – B. 45–49.
5. Mamarajabov, N. Raqamli texnologiyalarning jismoniy tarbiya jarayoniga ta’siri. // Zamonaviy ta’lim, 2021. – №6. – B. 33–36.
6. Qo‘chqorov, S. Jismoniy madaniyat asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. – 276 b.
7. Qurbonov, Z. Yoshlar orasida sportga qiziqishni oshirishda AKT vositalarining roli. // Jismoniy tarbiya va sport ilmiy-amaliy jurnali, 2023. – №2. – B. 22–25.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15264234>

BUGUNGI KUNDA O‘ZBEKISTON YOSHLARINING MILLIY MADANIYATGA MUNOSABATI

Xoshimova Nargiza Husanboyevna

Fan va Texnologiyalar Universiteti

B.T yo‘nalishi 2-kurs 303-guruh talabasi

Gmail: nargizaxoshimova46@gmail.com

ANNOTATSIYA

Hozirgi O‘zbekiston yoshlari milliy madaniyatimizga qiziqish bildirishmoqda va bu ularning milliylikni yanada chuqur anglashlariga yordam bermoqda. Milliylik bu – ajdodlarimizdan bizga meros bo‘lib qolgan qadriyatlar, urf-odatlar va an‘analardir. Ajdodlarimizning o‘gitlari esa bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, aksincha, ularni hayotimizda tatbiq etish bizga katta foyda keltiradi.

Kalit so‘zlar: Milliy madaniyat, yoshlar, ishonch, oila, mentalitet, ajdodlar, pand-nasihatlar.

АННОТАЦИЯ

Современная молодежь Узбекистана проявляет интерес к нашей национальной культуре, и это помогает им глубже осознавать, что такое национальная идентичность. Национальность — это ценности, обычаи и традиции, оставленные нам в наследство нашими предками. Советы наших предков не утратили своей значимости и сегодня, напротив, их применение в нашей жизни приносит нам большую пользу.

ANNOTATION

Today’s youth in Uzbekistan are showing interest in our national culture, and this helps them gain a deeper understanding of what nationality is. National identity consists of the values, customs, and traditions passed down to us from our ancestors. The teachings of our ancestors have not lost their relevance today; on the contrary, applying them in our lives brings us.

Kirish

Bugungi kun O'zbekiston yoshlari- kimlar? Ular omadli, o'z fikrini ayta oladigan va albatta o'ziga ishongan yoshlardir. O'zbekiston Respublikasi Yoshlar kuni-O'zbekistonning milliy bayrami bo'lib, har yili 30 iyun-O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil topgan kun sifatida nishonlanadi. (Wikipediya. "Yoshlar kuni ") O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2017 yilda qaror qabul qildilar va qonun imzolandi. Yoshlar uchun imkoniyatlar eshiklari ochildi. Avvalo yoshlar-14 yoshdagi o'smirlar va 30 yoshgacha bo'lgan o'spirin yoshlar bo'lib, ular birlashib katta natijalarga erishadilar. O'smir yoshlarimiz "o'tish" davrida bo'lganlari uchun, ular atrofidagi insonlarning ta'siri, munosabatlari, qo'llab-quvvatlashlari muhimdir. Bu yoshlarimizning ichki imkoniyatlarini ko'ra bilish, to'g'ri yo'nalishlar berish, ularni eshitish, qobiliyatlarini rivojlantirib, yuzaga chiqarish orqali ishonchlarini qozonish muhimdir. ("Umumiy psixologiya". P.I.Ivanov.2018 .) Bu esa aynan ular atrofida o'spirinlar va 25-30 yoshlardagi yoshlarning bo'lishi katta ahamiyatga ega. Sababi ular bir-birlarini to'ldiradilar. O'zbekiston yoshlarining yutuqlari birinchi navbatda oilada ota-onalari, kattalar ularga namuna bo'lishlari, amalda yaxshiliklarni ko'rsatib borishlaridir.

Muhokama va tahlillar

Aynan otalar farzandlar uchun namuna bo'lishlari, ularga ta'lim-tarbiya berishda milliylikka, axloq-odobga fozilona yondashib, adolat bilan jiddiy kirishishlari lozim bo'ladi. Ota-onaning vatanga, bezabon hayvonlar, hasharotlar va o'simliklarga bo'lgan mehr-muhabbatlari albatta farzandlariga o'tadi. Charli Chaplinning "Mening ajoyib hayotim" asarida (Bombora. 2020.) otasi bilan sirkka borganlari, navbatda ulardan oldin olti farzandli, kambag'al lekin ozoda kiyingan insonlar turishganini yozadi. Er bilek narxini eshitib bezovta bo'layotganini ko'rib turgan Charlining otasi o'zidagi bor 20 dollarni yerga otib yuboradi va uni olib -:" janob pulingiz tushib ketdi"- dedi. Haligi inson ko'zida yosh bilan " raxmat janob" -dedi. Ota-bola sirkdan chiqib ketishadi. Charli otasining boshqa puli yo'qligini, lekin shunday fidoiylilik qilganini, otasi bilan umr bo'yi fahrlanishini yozadi. Uning hayotidagi eng chiroyli voqea

bo'lganligini, "tarbiya faqat nazorat bilan emas, balki ibrat bilan bo'lishiga amin bo'lgan"ligini yozib qoldirgan. Yoshlar tarbiyani, madaniyatni asosan oiladan olishlari bor gap. Bizning milliy madaniyatimiz nima? Butun dunyo tan olib, hozirgi tezkor, global zamonimizga ham mos kelayotgan nazariy-amaliy bilimlarini, tajribalarini, izlanishlari natijalarini me'ros qoldirgan buyuk olimu-fuzalolar yashab o'tganligi - milliy madaniyatimizdir. Milliylik-bu biz o'zbeklarga xos bo'lgan mentalitetimiz-kattalarga hurmatda, kichiklarga izzatda bo'lish, o'zidan nochorlarga yordam qo'lini cho'zishi, bezabon -hayvonlar, hasharotlar va o'simliklarga ozor bermaslik, sindirmaslik bolalarga yoshliklaridan uqtirib kelinadigan nasihat -o'gitlarimizdir.

Milliylik – yoshlarning yolg'iz qariyalar holidan xabar olish, yetimlarning ko'nglini ko'tarish, hasharlar uyushtirib hosillarni yig'ib olish, hashar qilib uy qurilishlarida yordam qo'lini cho'zish, hamjihatlikda, kattalar nazorati ostida qilingan ishlar biz o'zbeklarning milliylikimizdir. 2020 yil butun dunyo uchun sinovli, tahlikali yil bo'ldi.

COVID-19 dunyo yoshlarini oyoqqa turgazdi. O'zbekiston ko'ngilli yoshlari-millatidan qat'iy nazar birlashib, bir-birlaridan motivatsiya olib, huzur-halovatdan kechib, yurtimiz aholisiga qo'ldan kelgancha har tomonlama yordam berdilar. Mana shu yillarda mehr-oqibat, ta'lim -insonlar uchun suyanch ekanligi yuzaga chiqdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2021 yilni "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash" yili deb e'lon qildilar. ("Taraqqiyot strategiyasi" markazi. strategi.uz.) Bu beg'araz-beminnat qilingan yordamning mukofotidir. Hozirgi kunda tabiat, ekologik muammolar barchamizni xavotirga solmoqda. O'zbekistonning cho'llanib borish xavfining yuqoriligi, suv tanqisligi, axlat muammolari global muammodir. Inson avvalo tug'ilib, unib-o'sayotgan joyiga mehr qo'ysa, atrofidagi muammolarni o'ziniki deb bilsa, his qilsa haqiqiy fidoyi bo'ladi.

"Vatandan tashqarida baxt yo'q, har kim jonajon yerida ildiz otsin".(I.S.Turgenev. "Xalq hikmatlarining barkamol avlod tarbiyasidagi ahamiyati". 2014). Vatanimiz yoshlari o'zlarini barcha sohalarda sinab ko'rmoqdalar. Vatan resurslarini asrab-avaylash, vatanni ifloslanishlar va kirlanishidan asrash, ularga qarshi

choralar va yechimlar topish hozirgi yoshlarimizning qo'lidadir. Ular olayotgan bilimlari, ko'nikmalari, malaka va tajribalari o'ylaymanki, yurtimizni bu muammolardan xalos etadi. Ajdodlarimiz qoldirib ketgan risola-kitoblar hozirgi kundagi muammolar uchun ham yechim topa oladi nazarimda. Sababi "Kitoblar barcha bunyodkorlik, yaratuvchanlik va aql-idrokning, ilmu donishning asosidir. Hayotni o'rgatuvchi murabbiydir".("Amur Temur o'g'itlari".) deyilgan. Hozirgi kunda iqlimga mos daraxtlar ekish, o'simlik turlarini ko'paytirish, axlat turlarini alohida qilishga erishish, qog'oz va plastik idishlarni qayta ishlash kabilar albatta yoshlarimizning ixtirolaridir. Erishilayotgan yaxshi natijalar -ularga berilgan ishonch, qo'llab-quvvatlash va ularga berilayotgan imkoniyatlardir. Yoshlar yurtimiz kelajagidirlar. Ulardan ilmlari, tashabbuslari, yangiliklarini yurtimizga fido qilishlari talab qilinadi.

Zero "Fidoyi Insonlarda keng qalb bor, boshqalar g'amiyu shodligini sig'dira oladigan".("Farzandnoma". Obidjon Mahmudov. 2015 y.) deyiladi. Milliy madaniyatimizga-kiyinish madaniyati ham kiradi. Hozirgi kunda yoshlarimiz milliy matolarimizning qanchalar sog'lig'imizga foydali ekanligini, bosh kiyim-do'ppi, ro'molning insonlarni zararli nurlar va changlardan asrashini tarixdan-bizgacha yetib kelgan Ibn Sinoning "Tib qonunlari" asaridan bilib olganlar. Yoshlar-dizayner, tikuvchi qizlarimiz milliy matolarimizdan mentalitetimizga xos bo'lgan kiyimlarni yaratib, targ'ib etishlari, o'zga yurtlarni lol qoldirayotganlari quvonarli holdir. "Sog'lom tanda sog' aql".(Xalq maqoli.) Hozirgi kunda yoshlarimiz yayov yurish, yugurish, velosiped haydash kabi sport turlari inson aqli-salohiyatiga ijobiy ta'sir qilishini anglab yetganlar. Qishloq joylarda qariyalarning, yoshlarning asosiy transporti- velosiped bo'lib, o'zidan zaharli gaz chiqarmaydi, havoni ifloslantirmaydi, eng asosiysi barcha kasalliklarga davo hamdir. Sport turlaridan kurash, ko'pkari, arqon sakrash kabilar- bizning milliy sport turlarimizdir. Ajdodlarimizdan Behbudiy bobomizning o'sha davrlardanoq o'z tilini asrab-avaylash, yana to'rtta xorijiy tillarni o'rganish-dunyoni tanish demakligini nasihat qilganlar. O'z ona tilimizni buzmay, yo'qotmay avlodlarga yetkazish ham yoshlarimizning vasifasidir. Taniqli alloma Qori Nizomiddin binni Husayinning "Ilmu axloq" kitobida juda ibratli, mazmunli holda

ma'naviy qadriyatlar bayon etilgan: "Saxovat yolg'iz molda emas, ilmda ham bordur. Zeroki, ilmlik kishilar ilmsiz kishilarga qo'llaridan kelganicha bildurmak ayni saxovatdir". O'zimizdan yosh bo'lsada, ilmi, odobi, malakasi yuqori bo'lgan yoshlarni qo'llab, ularni tan ola bilish, ulardan kerak bo'lsa o'rganish mard insonlarning qo'lidan keladi. Amur Temur sohibqiron sarkarda o'z qo'li ostidagilarga bergan pand-nasihatlari hozirgi tezkor zamonamizga ham mos kelishi, ajdodlarimizning naqadar uzoqni ko'ra olishlari, avlodlariga to'g'ri yo'l ko'rsatishlari tahsinga sazovor. Sohibqiron nasihatlari: "Kam yenglar-ocharchilik ko'masdan, boy- badavlat yashaysizlar, kam uxlanglar-komillikka erishasizlar, kam gapiringlar-dono bo'lasizlar". (Obiddin Mahmudov. "Farzandnoma". G'.G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. 2015 .)

Yoshlarimiz bu nasihatlarni o'zidan kelib chiqib qabul qiladi, anglaydi va amal qiladi. Natijasi esa albatta vaqtlar o'tib o'z mevasini beradi. Yoshlarimiz ongi, tafakkuri, tasavvurlari, orzu-umidlari bir-biri bilan hamohang bo'lsa, doimo yaxshiliklarga intilib , ota-onalari duolarini olib yashasalar-kelajak ishonchli qo'llarda bo'ladi. Ertalab universitetimizga kirib kelar ekanman pozitiv kayfiyat beruvchi ushbu qo'shiq qo'yilgan bo'ladi. Bu qo'shiq doimo yoshlar, jamoa birlashganlarida katta kuch bo'lishlarini eslatib turadi.

*Ajdodlardek yorug' yuz bo'lmoq uchun,
Nurlashaylik, O'zbekiston yoshlari!
Dunyo ko'rib qo'ysin biz yoshlar kuchin,
Birlashaylik, O'zbekiston yoshlari!*

*Bu kun jahon maydonida ko'p yoshlar,
Bo'lmoqdalar ajdodlarga munosib!
Ular yurti maralar sari boshlar,
Beruniylar bosgan izlarni bosib!*

*Yurt bayrog‘in Kubroday mahkam tutib,
Yuksaklarga qadar uchgan yoshlarmiz!
Boradirmiz, turmaymiz baxtni kutib,
Har jabhada zafar quchgan yoshlarmiz!*

*Dunyo bilan barcha tilda birma-bir,
Tillashaylik, O‘zbekiston yoshlari!
Vatan qadrin birdamlik ko‘targaydir,
Birlashaylik, O‘zbekiston yoshlari!*

Xulosa

